MUNDARIJA

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal
MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi, "Tafakkur-tamaddun" OOO
"Beruniy avlodlari" jamoat fondi
HAMKORLARIMIZ:

- **O'zRFA Qoraqalpog`iston bo'limi**
- **Qoraqalpoq davlat universiteti**
- **Urganch davlat universiteti**
- **Xorazm Ma'mun akademiyasi**

TAHRIR HAY'ATI:
BOSH MUHARRIR:
Munavvara QURBONBOYEVA
BO'LIM MUHARRIRI:
Anvar ALLAMBERGENOV

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.
Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., (DSc)
Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)
Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)
Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)
Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)
Yaxshibeka ABDULLAYEVA, t.f.d., prof.
Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., (DSc), k.i.x.
O'tkir ABDULLAYEV, t.f.d., (DSc)
Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD)
Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d., (DSc)
Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.
Shohida SODIQOVA, sots.f.d., (DSc)
Abdug'ani XOLBEKOV, sots.f.d., (DSc)
Sobir XODJAYEV, sots.f.d., (PhD)
Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.
Olmos ULVIY, f.f.d., prof.
Vahob RAHMONOV, f.f.n.,dots.
Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., (DSc)
Safo MATJONOV, p.f.d., (DSc)
Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)
Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.
Anvar ISMOILOV, s.f.f.d., (PhD),k.i.x
G'ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d., (PhD)
Svetlana MAMBETULLAYEVA, b.f.d., prof.
Otanazar RAHIMOV, b.f.n. ped.f.d.(DSc), prof.
Umarbek ABDURAHIMOV, b.f.f.d. (PhD)
Nuraddin RO'ZIBOYEV, q.x.f.d., (DSc)
Ne'matullo XUDAYBERGANOV, q.x.f.d., (PhD)
Zokir RAJABOV, q.x.f.d., (PhD), k.i.x.
Roza XOJAMURATOVA, g.f.d., (DSc)
Sattorbergan AVEZOV, g.f.n., dots.
Keunimjay ALLANAZAROV, g.f.n., dots.
Furqat RAJABOV, g.f.d., (PhD), dots.
Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilbar URAZBAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Mels QOBULOV, tib.f.d., prof.
Bozorboy ORAZALIYEV, t.f.n.
Davlatyor BOLTAYEV, t.f.n., dots.

FALSAFA

Абдураҳим БОЛТАЕВ. Ибн Арабий ахлоқий қарашларида сўфийлик ибодати масаласи 2
Yo'ldosh ISOMIDDINOV. Abdurauf Fitrat ma'naviy merosining falsafiy ahamiyati.....6
Xurshid DANABAYEV. Zamonaviy jamiyatda kambag'allikni aniqlash mezonlari.....12
Eldor ALKAROV. Sayohatchilarning xavfsiz piyoda yurishlarini ta'minlashda turizmning falsafiy jihatlari 16
Xurriyat XUDAYBERDIYEVA. Milliy yuksalish jarayonida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash paradigmalari.....20
Irodaxon BADALBAYEVA. Islom dini va ta'limotida saxovat tushunchasiga berilgan ta'riflar.....24
Abrorxon OCHILOV. Axborot xurujlarining manbalari,ularni ijtimoiy muhitda bartaraf etish omillari.....28
Shoiraxon ISHANCHAYEVA. Toj Mahal bunyod etilishining tarixiy, ijtimoiy-falsafiy mohiyati.....31

TARIX

Kozimbek TUXTABEKOV. Shayboniy hukmdorlarining Movarounnahrda siyosiy hokimiyatni egallashi.....35
Sherali ALLABERGANOV. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyatida qatag'onlik siyosati.....40
Zafar KARIMOV. Qadimgi Xorazm davlati aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat sivilizatsiyasida sun'iy sug'orish tizimining tutgan o'rni.....45
Sherzod TO'RAYEV. Surxon vohasida chorvachilik xo'jaligi etnograf Bilqiz Xalilovna Karmisheva tadqiqotlari misolida (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).....50

FILOLOGIYA

Xafiza ABDURASHIDOVA. Yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallardan foydalanish samaradorligi.53
Navbahor BAZARBAYEVA. Tashqi ko'rinishni ifodalovchi sinonimlarni o'rganishda konseptual – mantiqiy va kognitiv yondashuvlar.....57
Boburjon ABDURAZOQOV. "Emotsional konsept"ning tildagi ijtimoiy hodisasi.....61
Mahliyo NORBOYEVA, Oysuluv URALOVA. Ingliz va o'zbek tillarida affiksatsiya usuli yordamida yasalgan taom nomlari.....64
Maya BABAYEVA. Qoraqalpog'istondagi turkmanlar tiliga qoraqalpoq tilining ta'siri.....68
Alijon ALLABERDIYEV. Buxoro o'g'uz shevalarida undoshlarning ayrim fonetik xususiyatlari.....77
Nilufar JURAYEVA, Oysuluv URALOVA. Ingliz va o'zbek tillarida gidronim terminlarining chog'ishtirma tadqiqi (Angliya va O'zbekiston gidronim terminlari).....81
Guzal ABDUMALIKOVA. Syntactical expressive means and stylistic devices.....83
Чаржаубай ЕЛМУРАТОВ. Александр Лаврентьевич Мелков экспедициясы ҳәм қарақалпақ миллий балалар ойынлары.....86
Сурожбек РУЗМЕТОВ. Устаревшие латинизмы в речи узбекоязычных представителей старшего поколения.....91
Мунаввара КУРБАНБАЕВА. Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров.....95
Komila KOMILJONOVA. Erkin Vohidov ijodida Navoiyga izdoshlik.....97
Shoira TOLIYEVA. Lingvistik ekspertizada haqorat alomatini belgilash.....100

PEDAGOGIKA

Бакварган АЛЛАБЕРГЕНОВ. Лингводидактический аспект преодоления фонетической интерференции носителями хорезмского диалекта (на примере обучения произношению на русском языке).....73

NAZM

Анвармирзо ҚУДРАТОВ. Қорақалпоғистон.....34

Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani. Web-sayt: https://tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com. Telegram kanali: https://t.me/tamaddunnuri.
Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
Bosishga 26.05.2023-yilda ruxsat berildi. Qog'oz bichimi 60x84 ⅛. Nashriyot hisob tabog'i 6,5.
Indeks – 960. ISSN 2181-8258. Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
"ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona. Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy.
2023-yil, 5-son (44). **Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyuyrtma №17.
Rassom: Alibek ABDURAHMONOV
Sahifalovchi-bezovchi: G`iyosiddin O`NAROV
Texnik muharrir: Ulug`bek SAIDOV

Jurnal OAK e'tirof etgan nashrlarning 07.00.00 "Tarix", 09.00.00 "Falsafa", 10.00.00, "Filologiya" ixtisosligi bo'yicha ro'yxatiga kiritilgan.

УДК:1(091)(5) Араби:304.3

ИБН АРАБИЙ АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИДА СЎФИЙЛИК ИБОДАТИ МАСАЛАСИ

Абдураҳим БОЛТАЕВ,
Бухоро давлат университети, сиёсий фанлар номзоди, доцент

Аннотация: *Мазкур мақолада ўрта асрларнинг машҳур мутасаввифи Муҳйиддин Ибн Арабий (1160-1240)нинг сўфийлик ибодати тўғрисидаги қарашлари тадқиқ қилинган. Мутасаввифнинг бу борадаги ғоялари Робиа ал-Адавия, Абу Ҳомид Ғаззолий каби сўфий ва файласуфларнинг фикрлари билан қиёсий таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *Сўфий, ибодат, маънавий ибодат, мақом, ҳаракат, инсон камолоти, ирфоний билиш, хулқ, илоҳий тажалли.*

Annotation: *This article examines the views of the famous medieval mystic Muhyiddin Ibn Arabi (1160-1240) on Sufi worship. The ideas of the mystic in this regard were compared with the thoughts of Sufis and philosophers such as Rabia al-Adawiya, Abu Hamid Ghazali.*

Key words: *Sufi, prayer, spiritual worship, status, action, human perfection, mystical knowledge, behavior, divine revelation.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются взгляды известного средневекового мистика Мухиддина Ибн Араби (1160-1240) на суфийское поклонение. Идеи мистика в этом отношении сравнивались с мыслями суфиев и философов, таких как Рабиа аль-Адавия, Абу Хамид Газали.*

Ключевые слова: *суфий, молитва, духовное поклонение, статус, действие, человеческое совершенство, мистическое знание, поведение, божественное откровение.*

Ибодат мақоми ҳақида «Ибодати исломия» китобида, Муҳаммад Зоҳид Қутқунинг «Иймон қушининг икки қаноти» асарларида ҳам фикрлар бор. Қуръони каримда айтилишича, «Аллоҳ халқни севади ва уни ўз муҳаббати сари етаклайди». Ғарблик тасаввуфшунос олимлар бетаъма ибодат ҳақида сўз кетганда илк сўфийлардан Робиа ал-Адавия (713-718 орасида туғ., ваф. 801)нинг тафсилини талқин қиладилар. Унинг ягона тилаги Аллоҳ васлига восил бўлиш, зуҳд-у ибодат таъма учун эмас, балки қалбдан «фи сабилиллаҳ» (Аллоҳ йўлида) бўлишидир. Робиа айтди: “Токи инсонлар дўзах ўтидан қўрқиб ёки жаннатга таъма қилиб ибодат қилмасинлар, ибодат қалб зийнатига айлансин”.

Сўфийлик йўлига кириш анъанавий усулда, яъни шариатга амал қилиб, унинг фарзларини бажариш орқали амалга оширилади. Ибодатнинг юқори даражасига “ибодатул маъна” (“маънавий ибодат” عبادة المعنى) орқали кирилади. Бунда мутасаввиф шариат қонун-қоидаларининг ўрнини алоҳида кўрсатади. Шариат аҳкомларига риоя қилиш билан биргаликда бу йўлда

асосий масала сўфийнинг шахсий тажриба ва малакаси ҳисобланади. Ибн Арабий фикрича: “Сўфийлик - бу шариат ибодати орқали маъно ибодатига ўтиш деганидир” [1;774]. Сўфийнинг ибодати шариат аҳкомларига итоат қилишда кўринган ҳолда маънавий ибодатни ўзида мужассам этиши лозим.

Мақом (араб. – жой, ўрин, манзил) – исломда суфийликка хос тушунча, ҳар бир суфий босиб ўтиши лозим бўлган босқич. Тариқатларда мақомларнинг сони ҳар хил келтирилади, лекин кўп ҳолларда тўртта мақом тилга олинади: шариат, тариқат, маърифат, ҳақиқат. Лекин тасаввуфнинг йирик намоёндалари мақомларни кўпроқ деб ҳисоблаганлар. Фаридуддин Аттор етти мақом, Ғаззолий тўққиз мақомни таърифлаган.

Маънавий ибодатга ўтиш сўфийнинг малакасига боғлиқ бўлиб, у ўз иқтидори ва малакасига лойиқ мақомларга кўтарилади. Бу мақомлар амалий ва маънавийга бўлинади.

Амалий мақомлар шариатнинг ибодат меъёрлари муносабати билан белгиланади. Сўфий шариат аҳкомлари ва ибодат талабларини чуқурроқ англаб бориши билан маълум бир мақомларга ўтиб боради. Ибн Арабий фикрича, бу мақомлар тўртга бўлинади:

1. Ҳаракатдан ҳаракатга ўтиш (من فعل إلي فعل) бунда ҳеч қандай тўсиқ ва шубҳалар бўлмаслиги керак.

2. Тарк қилишдан тарк қилишга ўтиш. (من ترك إلي ترك) бунда муайн тўсиқлар вужудга келиши керак.

3. Ҳаракатдан тарк қилишга ўтиш (من فعل إلي ترك) бунда тўсиқларга шубҳалар аралашиши керак.

4. Тарк қилишдан ҳаракатга ўтиш (من ترك) إلي فعل бунда ҳар қандай тўсиқ ва шубҳалар йўқолади.

Мақомлар инсон камолоти унинг фитратида мавжуд бўлиб, кейинчалик атроф-муҳитнинг таъсири натижасида фаолиятидан чалғиши мумкин. Ибн Арабий фикрича, амалий мақомлар инсон комилллик даражасига, унинг фитратидаги ҳолатига, яъни яна ўзликка қайтишини англатади.

Мутасаввиф мақомларни Худонинг ёрдамида секинлик билан бир маънавий мақомдан иккинчи маънавий мақомга ўтиш мақсадини тушунтиради. Бу мақомлар учта:

1. Исмлар мақомлари (مقامات الأسماء) Бу Аллоҳнинг сифатлари маъносини англаш.

2. Тажаллий мақомлари (مقامات التجلي). Бу сўфий қалбида воқелик ва мавҳумликнинг турлича намоён бўлиши.

3. Нафс мақомлари (مقامات النفس). Бу нафсни тарбиялаш ва тозалаш мақоми.

Ибн Арабий сўфийлик йўлидан борувчиларни иқтидори ва қобилиятига кўра қуйидаги гуруҳларга ажратади:

1. Роббиси билан йўлга тушган йўловчи (سالك بربه) бу тоифага Аллоҳ куч беради.

2. Нафси билан йўлга тушган йўловчи (سالك بنفسه). Бу тоифа Аллоҳ билан яқинлашганлар.

3. Роббиси ва нафси билан йўлга тушган йўловчи. (سالك بالمجموع) бу тоифа бир пайтда Аллоҳ ва нафси билан бирга бўладилар.

4. Йўлга тушмаган йўловчи (سالك لا سالك) Бу тоифа Аллоҳнинг ёрдамисиз ўзи йўлни босиб ўтишга ишонмаганлар [1;774].

Ирфоний билишнинг ўзига хос хусусияти инсоннинг ўз ички оламига мурожаат қилиши, ўз ички оламини илоҳий олам билан боғлаш орқали жавобни тўғридан тўғри Аслдан олишида англашилади. Ирфоний билишда индивидуал ботиний тажрибага таянилган, яъни ирфон бир-бири билан боғлиқ горизонтал (маънавий қадрият, мафкура оралиғи) ва вертикал (маънавий камолот, бир сифатдан иккинчи сифатга ўтишни ифодаловчи маънавий етуклик) идентификацияси орқали акс этган. Рус шарқшуноси И.Петрушевский тасаввуф таълимотига “мистика” тушунчаси асосида таъриф берган: “Мистика ёки мистицизм замирида одатда “тажалли”, ички “тажриба”, экстаз (жазба) кўмагида Худо билан бевосита мулоқотда бўлиш имконияти борлигини тан олувчи дунёқараш тушунилади. Ҳаким Термизий билишда идрок (билим, тажриба, малака), илм, ахлоқ, қалбнинг ўзаро диалектик боғлиқлигини қайд этиб, унинг биргаликда инсон руҳонияти ва тафаккурига кучли таъсир кўрсатишини таъкидлаган:

“Авлиёнинг энг яхшиси илм усулида сўз айта олганидир... Илм ибтидодир, илм мақодир (миқдор – ўлчов) ва илм мийсоқ” (эртанги кун учун йўл очилиши)дир, илм ҳарфлардир. Ва бу ҳикмат (фалсафа) усулидир ва олимнинг ҳикмати будир. Машойих улуғидан илм зоҳир бўлади” [3].

Сўфийлик тажрибаси бошқа мутафаккирларнинг шахсий-ғоявий тарбиясидан фарқланади. Сўфий йўли руҳни, нафсни тарбиялаш орқали маърифат (Аллоҳни англаш)га асосланган ҳамда бу йўлда ҳеч кимга тақлид қилмасдан, ёлғиз сайр қилган. Бу шахсий, сўфийнинг ўзигагина хос тажрибаси бўлиб, у доимий янгиликлар билан бойиб борган.

Ибн Арабий ҳам бундай тажрибани бошидан ўтказгани учун шундай хулосага келади. Мутасаввифнинг Ҳаққа етишиш усулини бошқа мутасаввифлардан фарқ қилганини кўришимиз мумкин. Чунки у ўз фикрини дадил айтган. Мутасаввиф Ҳақни англашдаги энг тўғри йўл сифатида сўфийлик йўлини кўрсатиб, бу хос одамларнинг йўли эканлигини таъкидлайди. Бу йўлга икки усул асосида борилади: бу нафсни тозалаш ва тарбиялаш (تطهير النفس و تهذيبها) ва қалбни поклаш (تنقية القلب).

Ҳақни англаш инсоннинг ўз-ўзини англашидир. Инсон Аллоҳга илоҳий фазилати, маънавий поклиги ва илму ҳикмати билан етиши, заррадан улкан Галактикагача Аллоҳ тасарруфи остида экани, Ундан ўзга мутасарриф йўқлиги ва мутлақ бўлмаслигини англагач, илоҳий ҳақиқат сирларидан баҳраманд бўлади: Аллоҳнинг тасарруфотида ҳеч қандай шубҳа йўқдир [4].

Ҳақиқат тафаккурнинг бирор нарса ёки ҳодисага нисбатан фалсафий-гносеологик тавсифидирки, ҳақиқат фикр, билимнинг объектив реаллик (воқелик)ка мос келиши билан белгиланади. Ҳақиқат икки тарафлама ўрганилади. Биринчиси, инсоннинг рационал ва иррационал билими орқали. Ҳақиқат масаласини илмий тарзда ҳал қилишнинг ягона йўли инсон билими билан объектив оламдаги реал нарса-ҳодисалар, унинг сифат ва хусусияти ўртасидаги муносабатнинг ўхшашлигидадир. Иккинчиси, ботиний билиш, яъни Ҳақни англаш ва Аллоҳ “тажалли”сига етиш орқали. Аллоҳни билиш учун иккинчи усул муҳим ва бу йўлда илм эмас, шавқ, жазба, илҳом, ишқ-муҳаббат асосий фундаментал тамойилдир [5].

Ибн Арабий инсон нафсига энг катта таъсир қиладиган нарсани сўз деб ҳисоблайди. Мутасаввиф фикрича, нафс панд-насиҳатни, тўғридан-тўғри танбеҳ эшитишни, таълим-тарбия олишни ёқтирмайди. Унга бу усуллар билан муносабатда бўлинса, у ўзини таҳқирланган ҳисоблайди ва унга ўз норозилигини намойиш қилади. Ўзига берилаётган панд-насиҳат ва танбеҳларни қабул қилишни истамайди.

Сўз ҳақида Баҳоуддин Нақшбанд қуйидаги таърифини келтирган:

Се нишон бувад валиро, ки нахуст он ба-маъни,
Ки чу рўи ў бубини, дили ту бар ў гарояд.
Дуввум он, ки дар мажолис, чун сухан кунат зи маъни.
Ҳаммаро зи ҳастии худ, би ҳадис мера-бояд.
Севум он, ки ба маъни, вали ахасси олам.
Ки зи ҳеч узв ўро, ҳаракоти бад наёяд. [6].

Мазмуни:

Валийнинг уч белгиси бор, унинг бирин-чиси у бамаъни,
Унинг юзини кўрсанг, юрагингни тор-тади.
Иккинчиси, мажлисда у маънили сўзла-ганида,
Ўз борлиғи ва сўзлари билан ҳаммани ўзига тортади.
Учинчиси шуки, бамаъниликда у олам-нинг энг хосидир.
Унинг бирор узвидан ёмон ҳаракат юзага чиқмайди.

Инсоннинг тили унинг фасоҳатини белгилайди. Фасоҳатли сўз инсон руҳиятига малҳам бўлиб, маънавий қувват (энергия) манбаидир. Ширинсухан, чучук тилли инсон билан заҳарханда, нолийдиган, дилозор, ёмонлайдиган, ҳамма гапга аралашадиган,

беҳуда, фаҳш ва ёқимсиз сўзлайдиган кишининг аҳволи фарқланади. Инсон руҳияти латиф бўлгани учун ёқимсиз ва мантиқсиз сўзларни ҳазм қила олмайди. Натижада руҳий бўшлиқлар пайдо бўлади. Жумладан, қандли диабет касаллигининг келиб чиқиши инсоннинг тили фасоҳат андозасидан чиқиши билан изоҳланади.

«Бундай усул, деб тушунтиради Ибн Арабий – фақиҳлар жамоасида қабул қилинган бўлиб, у устоз ва шогирд муносабатларида қабул қилинган меъёрдир. Сўфийларга эса бундай усул қўлланилмайди. Ва у моҳиятан уларнинг тутган йўлларига мос эмас». Бунинг муқобил варианти сифатида Ибн Арабий “зикр” («الذكر») ни таклиф қилади. Инсонга етказилиши керак бўлган хабар ёки маълумотни “зикр”, яъни эслатиш тарзида баён қилиш унинг нафсида бунга қарши қўзғалиш ва исённи вужудга келтирмайди [7].

Ибн Арабий “зикр” усулидан амалда ўз шогирдлари ва унга эргашганлар олдида қўллаган. Мутасаввиф атрофдагиларга етказилиши лозим бўлган маълумотни уларга ёки ўзига-ўзи эслатгандек қилиб етказган. Ибн Арабий ўзининг ахлоқий қарашлари ва ҳукмларини шогирдларига мулоқот шаклида етказган, яъни насиҳат ёки тавсия шаклида етказишдан қочган [1;706].

Аллоҳ дўстларига яқинлашиш ва пир (шайх, муршид) билан суҳбат ишқ йўлига кирган ошиқнинг маънавий камолотини тезлаштирган, нафсга қарши курашиб, ишқ дардида куйган кўнгилнинг иккинчи даражасида ҳиммати баланд, Аллоҳ учун жонини фидо қилишга тайёр ошиқ намоён бўлади. Пир (шайх, муршид) билан суҳбатда бўлиш Аллоҳга олиб борадиган йўлга олиб чиқади.

Ибн Арабий устозлар билан муносабатлари, ўзаро алоқалари, улар суҳбатидан олган фойдалари ҳақида ҳам ёзиб, уларга баҳо беради. Мутасаввиф устозларига чуқур эҳтиромини билдириб, уларни “Ҳақнинг ердаги ноиблари” деб атайди. Шунингдек, улар ўз даврлари учун Аллоҳ томонидан танлаб юборилган ва унинг шариатини ўрнатувчи ва ўргатувчилар ва пайғамбар ишининг давомчилари сифатида баҳолайди[1;706]. Ибн Арабий устозлари ва тасаввуф шайхларининг шариатнинг ҳамда “қалбларнинг ҳимоячилари” эканликларини ва ахлоқ тарбиячилари сифатидаги вазифаларини алоҳида таъкидлайди. Мутасаввиф сўфийларнинг инсонлар хатти-ҳаракатининг манбалари ва сабаблари, уларни тўғри йўлга бошлай олиш ва бошқара олиш қобилиятларига ҳам эътибор қаратади. Яъни тасаввуф шайхлари нафслари ва назарларига эгалик қиладилар, инсонларнинг касаллигига ташхис қўйиб, даволай ҳам оладилар. Вақт ва умрнинг моҳиятини англаб, макон ва замонни биладилар. Хулқни тарбиялаб, нима бузишини тушунадилар, илоҳий ва хаёлий кашфнинг фарқига борадилар. Илоҳий тажаллийни тажрибадан ўтказиб, муридларини қандай қилиб, “болалик”дан “ўсмирлик”ка, ундан эса “балоғат ёши”га етказишни уддалай оладилар. Пирлар муридларининг табиати устидан хўжайин бўлишини, ақли устидан ҳукмронлик қилиши мумкинлигини ва ўзининг фикрларига ўзи ишонишини яхши биладилар. Улар нафс бўйинсунадиган қонунлар нималигини (ما للنفس من الأحكام) ҳам биладилар [7]. Ибн Арабий шайхларнинг шогирд тарбиясидаги педагогик ва психологик ўринларини кўрсатиб, шогирднинг ўз малака ва кўникмасини шакллантиришдаги аҳамиятларини очиб берган. Бу ҳозирги кунда устоз ва шогирд тизимини амалга оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ибн Арабий. Ал-Футуҳот ал-Маккийя. Байрут: Дарул кутубил илмийя, 1985.
2. Фаридиддин Аттор. Тазкиратул авлиё. – 289-бет.
3. Абдулқодир Гийлоний (Ғавсул Аъзам). Раббонийликни англаш ва раҳмоний файзни қозониш. I китоб, 116 бет.
4. Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадир. 143 бет.
5. Махдуми Аъзам. Рисола - йэ вужудия. – 35 в.
6. Ибн Арабий. Расаилу Ибн Арабий. Байрут: ал-Интишарул арабий, 2002. 359-бет.

UDK: 835 (09) I46

ABDURAUF FITRAT MA'NAVIY MEROSINING FALSAFIY AHAMIYATI

Yo'ldosh ISOMIDDINOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Tabiiy, ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat ma'naviy merosining ijtimoiy-falsafiy mohiyati aks ettirilgan. Abdurauf Fitrat o'zbek tilshunosligiga o'zining benazir hissasini qo'shgan alloma sifatida e'tirof etiladi. Fitrat asarlarida millat ozodligi, mustaqillik nashidasi, hurriyat, erkinlik mavzulari ilgari surilgan. Fitrat o'z dramalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojiga ham katta hissa qo'shgan.*

Kalit so'zlar: *"Sarf" va "Nahv", "Munozara", "Bayonoti sayyohi Hindiy", "Oila" asari, dramaturgiya, ma'rifatparvarlik.*

Аннотация: *В данной статье отражается социально-философская сущность духовного наследия Абдурауфа Фитрата. Абдурауф Фитрат признан ученым, внесшим уникальный вклад в узбекское языкознание. В произведениях Фитрата выдвигаются темы национальной свободы, радости независимости и свободы страны. Фитрат также внес значительный вклад в развитие узбекской драматургии.*

Ключевые слова: *«Сарф» и «Нахв», «Мунозара», «Высказывание индийского путешественника», произведение «Семья», драматургия, просветительство.*

Annotation: *This article reflects the socio-philosophical essence of the spiritual heritage of Abdurauf Fitrat. Abdurauf Fitrat is recognized as a scientist who made a unique contribution to Uzbek linguistics. The themes of national freedom, the joy of independence and the freedom of the country are put forward in Fitrat's works. Fitrat also made a significant contribution to the development of Uzbek drama.*

Key words: *"Sarf" and "Nakhv", the work "Munozara", "The Statement of an Indian Traveler", the work "Family", dramaturgy, enlightenment.*

Insoniyat tarixida shunday daho mutafakkirlar o‘tganki, ular o‘z hayoti va ijodini, fikr-u xayoli, aql-zakovatini o‘z xalqining turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charog‘on etishga bag‘ishlaganlar. Shunday fidoiy ma’rifatparvar mutafakkirlardan biri Abdurauf Fitratdir. Abdurauf Fitrat XX asr birinchi choragidagi Markaziy Osiyo ziyolilarining eng ko‘zga ko‘ringan vakili sanaladi.

Abdurauf Fitrat istiqlol adabiyotining yetuk vakili sifatida adabiyot va san’atning mavjud barcha turlarida qalam tebratgan mutafakkirdir. Fitrat o‘zbek va fors-tojik tillaridagi o‘zining go‘zal she’rlari bilan barmoq vazniga asos solgan.

1886-yilda Buxoroda tavallud topgan. Abduraufning taxallusi Fitrat bo‘lib, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi “yaratmoqlik”dir [1. B. 5]. Abdurauf Fitrat yoshlik chog‘larida ayrim asarlarida “Mijmar” (Cho‘g‘don, xushbo‘y narsalar solib tutatiladigan idish) taxallusini qo‘llagan bo‘lsada, keyinchalik doimiy “Fitrat” taxallusiga sodiq qolgan. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, davr taqozosi bilan Fitratning zamondoshlari o‘z asarlariga bir necha taxallus va laqablarni qo‘llashi yoki taxalluslarini o‘zgartirishga majbur bo‘lishganda ham adib o‘zining ushbu taxallusidan voz kechmagan. Hattoki rasmiy hujjatlarda, davlat idoralaridagi xizmatida va hibsga olingan vaqtidagi hujjatdlarda ham Fitrat nomi qo‘llanilgan.

Boshlang‘ich tarbiyani diniy maktabda olgan Abdurauf Fitrat keyinchalik mashhur Buxorodagi “Mirarab” madrasasida tahsil olgan. Fors va o‘zbek tillarida mukammal ijod qilish bilan birga, arab tilini ham chuqur egallagan Abdurauf Fitrat jadidchilik harakati vakillari faoliyatiga qiziqib, uning ashaddiy targ‘ibotchilaridan biriga aylangan.

Abdurauf Fitrat dastlab jadidlar faoliyatiga qarshi bo‘lganligini, keyinchalik esa unda yangi usul maktablari va jadidchilikka qiziqish paydo bo‘lganligini o‘z asarlarida e’tirof etgan. Ko‘pincha, Fitratning hayot va ijodi turli manbalarda turlicha yoritilgan bo‘lib, ko‘proq uning 1909-yilgacha bo‘lgan hayot yo‘li chalkashtirib yuboriladi.

Fitrat ijodi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilarning e’tirof etishicha, Fitrat yosh bo‘lishiga qaramasdan Buxoroning o‘sha davr adabiy yo‘nalishida yetarli darajada mashhur bo‘lgan. Abdurauf Fitrat to‘g‘risidagi bizgacha yetib kelgan ilk ishonchli ma’lumotlar mutafakkirning o‘z asarlaridan tashqari uning zamondoshlari bo‘lmish Ne’matulloh Muhtaram, Sadriddin Ayniy hamda XX asr boshlarida Turkistonda yashagan olim va davlat arbobi Zaki Validi To‘g‘onning xotiralari va ilmiy asarlarida qayd etilgan [2. B. 7]. Jumladan, Ne’matulloh Muhtaram o‘z asarlarida Fitratni Hoji Mulla Abdurauf, deb tilga olgan. Chunki, Abdurauf Fitrat yoshlik chog‘ida haj amalini bajarish uchun sayohatga chiqib, Hindiston, Turkiya va Arabiston hamda Rossiyaning Moskva va Peterburg kabi shaharlari bo‘ylab sayohat qilgan.

Yosh buxoroliklar tarkibida Turkiyada tahsil olgan Fitrat Turkistonga mashhur shaxs sifatida qaytib kelgan. Fitratning 1911-1912-yillarda Istanbulda nashr qilingan “Munozara” va “Bayonoti sayyohi Hindiy” kabi ilk nasriy asarlari hamda “Sayha” nomli she’riy to‘plami nafaqat Buxoro, balki butun Turkiston jadidlarini shijoatga otlantirgan. Sadriddin Ayniy Fitratning birgina “Munozara” asari o‘z davrining taraqqiyotiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatganligini qayd etgan.

Jadidchilik harakatining faol vakili sifatida 1909-1913-yillarda Turkiyaning Istanbul shahrida tahsil olgan Abdurauf Fitrat Turkiston xalqi hayotini ham o‘zgartirishga harakat qilgan. Fitrat o‘zining “Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi” nomli ilk kitobini Buxoro amiri Buxoroda nashr etishga ruxsat bermagach, 1909-yilda Istanbulda nashr ettiradi. Mazkur asar Istanbulda nashr etilganligiga qaramay fors tilida yozilgan va atoqli fan namoyondalaridan sanalgan Hoji Muin tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. 1911-1913-yillarda mazkur asar “Turkiston viloyatining gazeti”da nashr etilgan.

O‘zbek adabiyotining namoyondasi, fan va madaniyatning yirik vakili, shoir va qomusiy bilimga ega olim, o‘qituvchi, tilshunos va betakror dramaturg, jurnalist va ma’rifatparvar

shaxs sifatida shuhrat qozongan Abdurauf Fitrat 1925-yilda eski o‘zbek alifbosida “O‘zbek tili qoidalari bo‘yicha tajriba” darsligini yaratgan. Abdurauf Fitratning ilmiy merosi boy va rang-barang bo‘lib, uning asarlari XX asrning 30-yillariga qadar bir necha marotaba qayta nashr etilgan. Fitratning o‘zbek tili grammatikasini yanada boyitishga qo‘shgan hissasi beqiyos bo‘lib, uning asarlari o‘zbek tilini mukammal o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Bundan tashqari, Abdurauf Fitrat musiqashunos olim sifatida “Shoshmaqom”, “O‘zbek klassik musiqasi hamda uning tarixi”, “Sharq musiqasi” kabi tadqiqotlarni ham yaratgan [2. B. 47].

1913-yillarda Istanbulda tahsil olgan Abdurauf Fitrat 1921-1922-yillarda bir qator yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan. Taqdir taqozosi bilan 1923-1924-yillarda Moskva va Leningradda yashab, Sharq tillari institutida faoliyat yuritgan Abdurauf Fitrat turk, arab, fors tillari va adabiyotidan tahsil bergan. Abdurauf Fitrat o‘zbek tilshunoslari orasida ilk bora Leningrad dorilfununi professorligiga saylangach, tilshunos olim sifatida o‘zbek tilining qoidalari to‘g‘risidagi o‘zining “Sarf” va “Nahv” asarlarini yaratgan. Fitrat asarlarining jozibasi kuchli, teran ma’noli, keng qamrovli bo‘lib, tarixshunoslik va sharqshunoslik sohalariga oid fors tilida bir necha maqola va risolalar ham yaratgan. Shuningdek, Abdurauf Fitratning o‘zbek tilshunosligiga qo‘shgan hissasi shundaki, u arab, fors va turkiy tillardan foydalanib, o‘zbek tilshunosligidagi ot, sifat, fe’llarning yordamchi so‘zlarni aniqlash muammolarini yoritgan. Tadqiqotlarda Abdurauf Fitratning ijodi “XX asr 20-yillari o‘zbek tilshunosligining noyob namunalari, o‘tmishning o‘lmas manbalari va zamonaviy tilshunoslik o‘rtasida mustahkam ko‘prik sifatida” e’tirof etilgan.

XX asr boshlaridayoq o‘zining she’rlari bilan ijod ahliga tanilgan Abdurauf Fitrat haj safarini amalga oshirib, Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohat ham qilgan. O‘zining asosiy tahsili va ijodini Turkiyada davom ettirgan Abdurauf Fitrat “Munozara” nomli ilk asarini ham Istanbulda nashr ettirib, uni turli yo‘llar bilan Buxoroga olib keltirgan [3. B. 102].

Yapon olimi Hisao Komatsuning e’tirof etishicha, “Munozara” dastlab 1911-yilda Istanbulda fors tilida nashr etilgan, so‘ngra esa Toshkentda o‘zbek va rus tillarida qayta nashr etilgan [4. B. 79]. “Munozara”da asosan yosh buxoroliklar tashkil etgan birinchi fors tilidagi “usuli jadid” maktabining faoliyati va uning atrofida yuzaga kelayotgan nizoli holatlar aks ettirilgan.

Abdurauf Fitratning “Munozara” nomli asari yangi usul maktablariga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur asar Buxoroda yangi usul maktablarining qayta ochilishiga zamin yaratgan. “Munozara” asarining mazmun mohiyatini yosh buxoroliklar tashkil etgan birinchi “usuli jadid” maktablarining faoliyati va atrofida nizoli voqealar qamrab olgan. Abdurauf Fitrat mazkur asari xususida 20 yildan so‘ng o‘zining bir maqolasida quyidagicha ma’lumot qoldirgan:

“1908-yilda yozgan bir asarimda Buxoro xonligida hukm surgan diniy taassubni va shunga tayangan idora usuli, hibs qilish, o‘ldirish, toshbo‘ron qilish kabi kundagi odatlarni yozgan edim. U zamonlarda kitob yozishning o‘zi “kofirlik” edi. Men shu vaqtlarda birinchi asarimni yozdim. Buxoroning idora usulini, ta’lim-tarbiya usulini, ko‘plab rasmiy idoralarni tanqid qildim”, deb qayd etadi [5. B. 121].

“Munozara” asari Istanbulda chop etilib, yashirincha Buxoroga olib kelingan. “Munozara” asari shunchalik darajada mashhur bo‘lganki, asarning asl forscha matnini hatto 1914-yilda Rossiya imperiyasi hududiga olib kirish ham ta’qiqlab qo‘yilgan.

“Munozara” asari Mahmudxo‘ja Behbudiyning yaqin izdoshlaridan bo‘lgan Hoji Muin ibn Shukrulloh tomondan o‘zbekchaga tarjima qilinib, 1913-yili kitob shaklida Toshkentda chop etilgan. Bu haqida Abdurauf Fitratning o‘zi bir maqolasida shunday iqtibos keltirgan. “Munozara”ni Hoji Muin (1883–1942) o‘zbek tiliga tarjima qildi va asar dastlab 1912-yili Turkiston viloyatining gazetida, 1913-yili kitobcha shaklida Toshkentda bosilib chiqdi”, deb qayd etadi [6. B. 79]. Mazkur maqola “Munozara” nashr etilgandan so‘ng yigirma yil o‘tib yozilgan. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, Fitrat asarining mazkur tarjimasida muallifning asosiy

islomchilik fikrlari, Rossiya va Buxoro hukumatlari va ulamolar tanqidlari deyarli chiqarib tashlanib, Hoji Muin asosan Chor Rossiyasi siyosatiga mos keladigan fikirlarni kiritgan. Shu sababdan general N.Ostroumov o‘z gazetasida ushbu tarjimani bosishga ruxsat bergan.

Abdurauf Fitrat ijodi benihoya serqirradir. U xalq dardi bilan yashab, istiqlolni orzu qilgan va milliy mustaqillik tomon intilib qatag‘on qurboni bo‘lgan o‘zbek adiblarining namunalisidir. Fitrat ijodining xilma-xilligi uning tafakkur doirasi kengligi, serqirra ijodkor ekanligi va chinakam bilim sohibi ekanligini yana bir bor namoyon etadi. Abdurauf Fitratning o‘zbek va fors-tojik tillaridagi asarlari o‘ziga xos uslubda yozilgan bo‘lib, hikoya va qissalari XX asr adabiyotining yangicha yo‘nalishlarini ochib bergan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Turkiyadan tahsil olib qaytgan Abdurauf Fitratning 1915-1916-yillarda maorifga doir bir qator dolzarb asarlari nashr etilgan bo‘lib, bular “Oila”, “Rahbari najot”, “Qisqacha islom tarixi” kabi asarlar shular jumlasidandir. Shuningdek, Abdurauf Fitratning 1920-yillarda “Chin sevish”, “Abo Muslim” dramalari sahnaga olib chiqilgan.

Fitrat asarlarning barchasida bir maqsad ya’ni, millat ozodligi, mustaqillik nashidasi, hurriyat, erkinlik mavzulari ilgari surilgan. Tez orada maorif ishlaridan shuhrat qozongan Fitrat 1916-yillarda Samarqandda nashr etiladigan “Hurriyat” gazetasining bosh muharriri sifatida faoliyat yuritgan. Fitrat ko‘proq tenglik va hurriyatni orzu qilgan, lekin bu orzuligicha qolib ketgan.

XX asrdagi ko‘plab hujjat va arxiv materiallaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, Abdurauf Fitrat 1914-yil Turkiya safaridan qaytgach, yangi usuli jadid maktabi va madrasalarni tashkil etib, ushbu ilm dargohlarida asosan o‘zi turk va fors tili adabiyotlari tarixi, islomshunoslik ilmi va sharq tillaridan saboq bera boshlagan. Shu bilan birga, bir necha yangi tadqiqotlar bilan shug‘ullanib, bir necha yangi asarlar yaratishga ham muvaffaq bo‘lgan. Xuddi shunday asarlardan biri Abdurauf Fitratning “Muxtasar Islom tarixi” asaridir. Mazkur asar madrasa talabalari uchun qo‘llanma tarzida yozilgan bo‘lib, asar uslubining soddaligi matn jihatdan tarixiy va diniy jarayonlarning uyg‘unlashtirilgan holda yoritilganligi, asarning mukammal yozilganligidan dalolat beradi. Asarda bayon etilgan voqea-hodisalarning tugallanmay qolganligi mazkur asarning to‘liq matni bizga yetib kelmagan degan xulosani beradi. Chunki, asar ham mantiqiy va ham tarixiy xronologik jihatdan nihoyalanmagan holatda yozilgan. Ba’zi bir tadqiqotlarda mazkur asarning tugallangan nusxasi shu ekanligi va asar tarjimasi 1915-yilda “Gazarov” matbaa nashiryotida chop etilib, “Московский императорский исторический музей” (Moskva imperatorlik tarix muzeyi)da XY 28411 raqami ostida saqlanayotganligi e’tirof etilgan.

Abdurauf Fitratning “Muxtasar Islom tarixi” asari o‘z zamonasining boshqa adiblari tomonidan yozilgan islom tarixiga oid asarlardan voqealarning aniq, jonli ifodada tasvirlanib, millatparvarlik ruhi singdirilganligi hamda diniy voqea-hodisalarni yoritishda ilohiylik yoki sun’iy iltifotlarni qo‘llamaganligi bilan farqlanadi. Aynan ushbu jihatlar Fitrat ijodidagi mukammallikni yaqqol namoyon etadi.

1918-yilda Toshkentga kelgan Fitrat o‘z atrofiga yoshlarni yig‘ib “Chig‘atoy gurungi”ni tashkil qilgan. Ushbu jamiyat uch yil faoliyat olib borganligiga qaramay, o‘zbek tili va adabiyotini rivojlantirish borasida yangi yo‘nalishga asos solgan. Zamonaviy tadqiqotlarda mazkur jamiyat faoliyati O‘zbekiston tarixidagi mahalliy ziyolilar tomonidan tuzilgan birinchi ilmiy tadqiqot jamiyati sifatida e’tirof etilib, hozirgi kundagi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining tamal toshi bo‘lganligi ta’kidlanadi. 1920-1923-yillar davomida yangi tuzilgan Buxoro hukumati tarkibida turli yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan Abdurauf Fitrat turli siyosiy ayblovlar bilan lavozimidan chetlashtirilgan. Shundan so‘ng mutafakkir umrining oxiriga qadar faqat ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan.

Abdurauf Fitrat Moskvadan qaytib kelgach, Buxoro, Samarqand va Toshkent universitetlarida tahsil berib, O‘zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot instituti, Til va adabiyot instituti hamda O‘zbekiston Fanlar qo‘mitasida beminnat

faoliyat yuritadi. Mazkur yillar oralig‘ida Fitrat ko‘plab she’rlar, pyesalar va birqancha teran ilmiy asarlar yozib qoldirgan. Shunga qaramay, Fitratning millatparvarligi bolsheviklar va Sho‘ro hukumati rahbarlariga yoqmay, uni boshqa ma’rifatparvarlar qatori millatchilikda ayblay boshladilar.

1920-yillarning 2-yarmidan boshlab Sho‘ro hukumati siyosatida erkin fikrning torayib borishi va jadidchilarga bo‘lgan xusumatning kuchayishi hamda ziyolilarni qoralash boshlangach, bu holat Fitratni ham chetlab o‘tmagan. Har bir hodisaga sinfiy-partiyaviy yondashish kuchayib, uzoq vaqtlik qiynoqlardan so‘ng Fitrat ham “millatchi”, “xalq dushmani” va “vatan xoini” singari to‘qima ayblovlar bilan ayblangan. Bu to‘g‘risida Fitratning o‘zi “Men o‘zbek millatchisi bo‘lgan zamonlarda har vaqt Sho‘ro hukumatining kommunistik firqasiga xayrixoh bo‘lib turdim”, deb qayd etgan. Shunga qaramay 1937-yil aprelda hibsga olingan Abdurauf Fitrat 1938-yilning 4-oktyabrida boshqa ma’rifatparvarlar qatori vahshiylarcha otib tashlangan. Eng achinarlisi ushbu ma’rifatparvarlarni otish haqidagi hukm bir kun keyin, ya’ni 1938-yil 5-oktyabrda chiqqan bo‘lib, 1957-yilda Sobiq Ittifoq Oliy sudining harbiy kollegiyasi 1938-yil 5-oktyabrdagi hukmni bekor qilgan va Fitratni aybsiz deb e’lon qilgan.

Fitrat ko‘p qirrali va sermahsul ijodkordir. Uning ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg‘unlik, g‘aflatdan uyg‘otish, ilm-ma’rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga va milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi. Fitrat o‘zbek xalqining o‘zligini tanishi, ota-bobolari kabi ulug‘vor kashfiyotlar qilishga, birlashgan, kuchli, qudratli davlat tuzishga va dunyoning ilg‘or madaniy mamlakatlariga yetib olishga chaqirgan. Buxoroning o‘sha davrdagi arboblaridan bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev: “Buxoro mustaqilligi g‘oyasi yorqin milliy shaklda birinchi bor ifodalab berilishida edi”, deb Fitrat ijodiga ta’rif bergan.

Fitratning she’riy to‘plamida Vatanga muhabbat, xalqning g‘am-g‘ussasiga achinish va zulmdan qutulishga undash g‘oyalari ilgari surilgan. Masalan:

Bayt:

Ham mohi mangu osoyishi, izzatu sharafi man,

Ham Ka’bai man, qiblai man, chamani man.

Tarjimasi

U mening osmondagi oyim, izzat-u sharafim

Ka’bam, sajdagohim, jon-u tanimdir.

Fitratning bir qancha asarlari bizgacha yetib kelmagan. Jumladan, “Uchqun” degan to‘plamining 1923-yilda nashrdan chiqqanligi to‘g‘risida xabarlar tarqalgan, lekin mazkur to‘plam topilmagan. Fitrat fors, arab tillarini yaxshi bilsa-da, o‘z she’rlarini asosan sodda o‘zbek tilida yozishga harakat qilgan. Bundan tashqari, Fitratning bir necha pyesalari va yozgan asarlari o‘z vaqtida nashriyotda bosilmay yo‘qolib ketgan.

Abdurauf Fitrat asarlarida ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, uning erki uchun hamma narsaga tayyor turish uchun “Yurtimizni qutqaramiz. Yashasin istiqlol!” degan shiorlar baralla ilgari suriladi. Mustabid tuzum faoliyatiga nisbatan qarshi qo‘zg‘algan isyonkorona g‘oyalar ko‘zga tashlanadi. Fitratning nazmiy asarlarida yurt erkinligi uchun kurash, bir daqiqa bo‘lsa ham hurriyatga erishish fikridan qaytmaslik g‘oyalari tarnnum etiladi.

Fitrat o‘z dramalari bilan o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. Ayniqsa, uning “Chin sevish” va “Hind ixtilochilari” nomli dramalarida xalqlarining ozodlik va mustaqillikka intilishlari, mustamlakachilarga qarshi olib borgan murosasiz kurashlari ifoda etilgan. Mustamlakachilarga qarshi mardonavor kurashini tasvirlash orqali ona Vatani Turkistonning bitmas-tuganmas dardlarini ifoda etgan. Shuningdek, Fitrat o‘zbek prozasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, Turkiston milliy uyg‘onishiga turtki bera oladigan asarlari bilan shuhrat qozongan. Fitrat o‘nlab hikoyalar yozgan, uning Vatan va millat ozodligi, istiqlol borasidagi fikrlari mustaqillikka erishish uchun bosib o‘tilgan suronli yillar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi qimmatli manbadir.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi eng og‘ir damlarda millat va Vatanga xizmat qilishga

yo‘naltirlgan. Har qanday holatda ham xalq bilan birga bo‘lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo‘yish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan biri edi. Abdurauf Fitrat ijodkor sifatida o‘zbek adabiyotini birinchilardan bo‘lib jahonga tarannum etdi. Uni yangi hayotbaxsh g‘oyalar bilan boyitib, o‘z iste’dodi bilan o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini ayta olgan mutafakkir edi. Abdurauf Fitrat o‘zbek dramaturgiyasini yuksak pog‘onaga olib chiqqan, zamonaviy adabiyotshunoslik ilmining asoschisi sifatida tarixga kirgan.

Shuningdek, Fitratning falsafiy-tanqidiy qarashlari o‘z zamonasi uchun har bir masalada qanchalik dolzarb hisoblansa, bugungi falsafiy tafakkurning yuksak rivojlangan pallasi uchun ham o‘zining juda ko‘p jihatlari bilan namuna bo‘la oladi. Mutafakkirning badiiy va ilmiy merosi o‘zbek adabiyoti va davlatchiligining taraqqiyotiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, 1991-yil 25-sentyabrda Abdurauf Fitratga Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti berildi. Buxoro shahrida Fitrat bog‘i va uy-muzeyi tashkil etilib, Buxoroda Abdurauf Fitrat haykali o‘rnatildi. Respublikamizdagi bir necha maktablar va ko‘chalarga Abdurauf Fitrat nomi berildi.

O‘zbek tilini yanada rivojlantirish va boyitishda Abdurauf Fitratning faoliyati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va zamonaviy yoshlar bilimlarini boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I-Жилд. Шеърлар, насрий асарлар ва драмалар. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев. Т.: Маънавият, 2002.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. Сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. Тошкент: Маънавият, 2000.-Б. 7.
3. Айний С. Таърихи инқилоби Бухоро. — Душанбе: Адиб, 1987.
4. Komatsu H. 20. Yüzyil Başlarında Orta Asya’da Türkcüluk ve Devrim Hareketleri. Ankara, 1993.
5. Фитрат. Шеърлар, драмалар, мақолалар. Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 242.
6. Абдурашидов З. Фитрат ижоди ва фаолиятига бир назар: “Мунозара” ва Истанбул Бухоро жамияти хайрияси. Scien-tific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 2 (31)

UDK:37.035.6.1:28(093)

ZAMONAVIY JAMIYATDA KAMBAG‘ALLIKNI ANIQLASH MEZONLARI

Xurshid DANABAYEV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda kambag‘allikni aniqlash mezonlari, uning darajasini ifodalash indekslarini belgilab olish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, kambag‘alligi darajasi, kambag‘allikni aniqlash, kambag‘allik fenomeni.

***Аннотация*:** В данной статье представлены критерии определения бедности в современном обществе.

***Ключевые слова*:** бедность, уровень бедности, определение бедности, феномен бедности.

***Annotation*:** In this article, the criteria for determining poverty in modern society are presented.

Key words: poverty, level of poverty, definition of poverty, phenomenon of poverty.

Mamlakatimizda bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida jamiyat a’zolarining farovon turmush tarzini ta’minlash, kambag‘allik ko‘lamini kamaytirish, inson manfaatlariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy barqaror muhitni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Zero, mamlakat rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidi bilan aytganda, “Davlatimiz siyosatining barcha ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda kambag‘allikni qisqartirish muhim o‘rin egallaydi”[1]. Shu maqsad yo‘lida kambag‘allik fenomenini falsafiy tadqiqot obyekti sifatida chuqur tahlil etish, xalqaro tajribalar asosida konstruktiv usullarni ishlab chiqish, uning oldini oluvchi zamonaviy mezonlarni shakllantirish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bundan kelib chiqib,

[1]Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Т.:Ўзбекистон, 2021.- Б.442.

mamlakatimizda kambag‘allik muammosining oldini oladigan, istiqbolli, zamonaviy, ilmiy-konseptual, falsafiy tadqiqotlarni amalga oshirish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda.

Kambag‘allikning ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat tarixining barcha davrlarida mavjud bo‘lgani, jamiyatda boshqalarga nisbatan kambag‘alroq kishilarning har qanday holatda ham saqlanib qolaverishi uni bartaraf etishga bo‘lgan intilishlarning bema’niligini anglatmaydi. Aksincha, jamiyatning insonparvarligi, ma’naviy jihatdan ulg‘ayganligi aynan ana shu xususiyat bilan belgilanadi. Boshqa tomondan, o‘z ijtimoiy barqarorligini ta’minlashni istagan har qanday sotsium albatta kambag‘allikni kamaytirish masalalariga diqqatni jamlashi shart, aks holda bu barqarorlikdan asar ham qolmaydi. Biroq masala keskinligini bir qadar zaiflashtirish uchun birinchi navbatda jamiyatdagi kambag‘al kishilar soni, ularning kambag‘alligi darajasi aniqlanmog‘i darkor. Bu vazifa, bir tomondan, kambag‘allikni aniqlash mezonlarini, ikkinchi tomondan esa, uning darajasini ifodalash indekslarini belgilab olishni taqozo qiladi.

Kambag‘allikni aniqlashda qo‘llaniladigan birinchi mezon *uy-joyning mavjudligi va uning ahvoli* bilan bog‘liq. Uy-joy inson hayotida muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat turmush kechirish uchun moslashtirilgan inshoot, balki inson hayotining sifatini belgilaydigan, uni tashqi ta’sirlardan himoya qiladigan, oilasining yaxlitligi va xotirjamligini saqlaydigan, avlodlar o‘rtasidagi vorisiylikni ta’minlaydigan manba vazifasini o‘taydi. O‘z uyiga ega bo‘lmagan jamiyat a’zosi ana shunday imkoniyatlardan bebahra qoladi va shu sababdan ham kambag‘al sifatida e’tirof etiladi.

Uy-joy sifati ham kambag‘allikni aniqlashning muhim o‘lchovidir. Bu sifat uyning kattaligi, sharoitlari, ekologik xususiyatlari bilan belgilanadi. “Uy sifati,- deb yozadi V.D.Konstantinov,- faqat uning hajmi va zaruriy sharoitlarga egaligi bilan cheklanmaydi, balki ekologik omillarni, shuningdek, binoning eskirganligi, turar joyning namligi va sovuqligi darajasini ham o‘z ichiga oladi”[2]. Odatda jamiyatning har bir a’zosi o‘z moddiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uy barpo etadi yoki uni ijaraga oladi. Moddiy imkoniyatlarning cheklanganligi sifatli uyga ega bo‘lishga xalal beradi. Binobarin, sifatsiz uyda istiqomat qilayotgan inson moddiy imkoniyatlari cheklangan, kambag‘al kishi deb baholanishi mumkin.

Uy-joy muayyan normalarga javob bermog‘i darkor. Bu normalar oilaning bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan maydon bilan ifodalanadi. Turli mamlakatlarda uy-joyning turli normalari qabul qilingan. Masalan, Sovet Ittifoqida bu norma bir kishiga 10-12 m^2 qilib belgilangandi[3]. Hozir MDHning aksariyat mamlakatlarida kishi boshiga 18 m^2 maydon norma hisoblanadi[4]. Bugungi kunda bu ko‘rsatkich AQSHda 75 m^2 ni, Buyuk Britaniyada 62 m^2 ni, Germaniyada 45 m^2 ni, Rossiyada 23 m^2 ni tashkil etadi[5]. Ushbu normalardan kamroq hajmdagi turar joyga ega bo‘lgan fuqarolar kambag‘al sanaladi.

Kambag‘allikni aniqlashning ikkinchi mezoni *oziq-ovqat va toza ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi* bilan bog‘liq. Sog‘lom ovqatlanishning inson hayotiy faoliyatini ta’minlashdagi ahamiyati juda muhim sanaladi. Oziq-ovqat mahsulotlari, toza ichimlik suvi bilan yetarli darajada ta’minlangan kishining turmushinigina farovon deb atash mumkin. Uning tanqisligi, ochlik – inson kambag‘alligining eng o‘tkir mahsulidir. Kambag‘allik foydali oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilish imkoniyatlarini kamaytiradi. Mahsulotlarning foydaliligi darajasi ularning kaloriyasi va vitaminlarga boyligi bilan belgilanadi. Tabiiyki, bunday mahsulotlarning ishlab chiqarilishi nisbatan ko‘proq xarajatlarni

[2]Константинов V.D. Проблема качества жиля в современных условиях: социологические аспекты.// Вестник Саратовского государственного технического университета, 2006, №1.- 186-с.

[3]Қаранг: Сидорчук I.В. Критерии бедности и показатели ее определения.// Ученые записки Крымского феде-рального университета имени В. И. Вернадского. География. Геология, 2009, №2.- 261-с.

[4]Қаранг: ўша жойда

[5]Почувствуй разнитсу.// kanaev55.livejournal.com, 2013, 21 сентября.

talab qiladi. Oqibatda, foydali oziq-ovqat mahsulotlarining narx-navosi sifatsiz mahsulotlarga qaraganda ancha baland bo‘ladi. Moddiy imkoniyatlari cheklangan insonning qimmat, lekin foydali mahsulotlar xaridiдan o‘zini tiyishi, arzon, lekin sifatsiz mahsulotlarni xarid qilishi ehtimoli ancha katta. Shunga ko‘ra, kambag‘allik me’yorini foydali oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli darajasiga qarab aniqlash mumkin.

Kambag‘allikni aniqlashning uchinchi mezoni *kiyim-bosh bilan ta’minlanganlik darajasidan* iborat. Kambag‘allikni ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq qilgan ko‘pgina tadqiqotchilar mazkur mezonni alohida ajratib ko‘rsatmaydilar. Ammo inson kambag‘alligi uning kiyim-boshida ham namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, kiyim-bosh insonni nafaqat atrof-muhitning salbiy ta’siridan himoya qiladi, balki turkum utilitar va estetik funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari, kiyim-bosh jamiyat a’zosining ijtimoiy maqomini ham namoyish qiladi. Kiyimning aynan ana shu funksiyalariga qarab inson moddiy imkoniyatlarini aniqlasa bo‘ladi: bunday imkoniyatlari cheklangan kishi kiyim-boshining utilitar va estetik xususiyatlari zaif bo‘ladi. Kiyim-bosh avvalo gigiyenik talablarga javob bermog‘i darkor. Biroq inson uchun qulay gigiyenik sharoit hosil qiladigan ichki kiyim, ustki kiyim, bosh kiyim, poyabzal va boshqalar ancha qimmat xom ashyodan ishlab chiqarilgani bois hammabop bo‘lmaydi. Inson kiygan kiyimining ishlab chiqarilish tipi ham uning moddiy imkoniyatlarini aniqlashda qo‘l keladi.

Kambag‘allikni aniqlashning to‘rtinchi mezoni *ta’lim olish imkoniyalari* bilan bog‘liq. Zamonaviy jamiyatda ta’lim nafaqat muayyan bilimlar tizimini o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, kasb-korga ega bo‘lish imkonini beradigan ijtimoiy institut, balki shaxsning ijtimoiy maqomini oshirishga, turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladigan omil vazifasini ham o‘taydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi doirasida doimiy tarzda jahon mamlakatlaridagi ta’lim darajasi indeksi e’lon qilib boriladi. Bu indeks, bir tomondan, aholining savodxonligi darajasiga, ikkinchi tomondan esa, mamlakatda tahsil olayotgan kishilarning umumiy soniga qarab belgilanadi. Barcha raqamlar davlatlarning rasman taqdim qilgan ma’lumotlari bazasidan olinadi. Ta’lim darajasi indeksi 0 dan 1 ga qadar bo‘lgan sonlarda ifodalanadi. 2019-yilgi tahlillarga asosan, Germaniyaning ta’lim darajasi indeksi 0,943, Norvegiyaniki – 0,930, Buyuk Britaniyaniki – 0,928, Finlyandiyaniki – 0,927, Islandiyaniki – 0,926, Yangi Zelandiyaniki 0,926, Avstraliyaniki – 0,924, Irlandiyaniki – 0,922, Daniyaniki – 0,920, Shvetsiyaniki – 0,918 ni tashkil etdi[6]. Ko‘rinib turibdiki, multaq kambag‘allikni bartaraf etish, nisbiy kambag‘allikni kamaytirish borasida jiddiy muvaaffaqiyatlarga erishgan mamlakatlarda ta’lim darajasi indeksi yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu davlatlarning barchasida umumiy o‘rta ma’lumot asosan bepul taqdim etiladi, moliyaviy imkoniyati cheklangan fuqarolarga oliy ma’lumot olish uchun turli ta’lim kreditlari taklif qilinadi. Kambag‘allikni aniqlashning beshinchi mezoni *sog‘liqni saqlash imkoniyatlari* bilan bog‘liq. Ma’lumki, sog‘liqni saqlash tizimi jamiyat a’zolariga tibbiy xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan kishilar, tashkilotlar va turli resurslarni o‘z ichiga oladi. Jahonda mahalliy shart-sharoitlarga moslashtirilgan va milliy xususiyatlarni o‘zida mujassam qilgan turfa sog‘liqni saqlash tizimlari mavjud. Ularni yagona maxrajga keltirish qiyin, albatta. Biroq har qanday sog‘liqni saqlash tizimi boshqaruv institutlari, davolash muassasalari, sanatoriy va profilaktoriylar tizimi, farmatsevtika korxonalari, apteka muassasalari, tibbiy ta’lim maskanlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur elementlar faoliyati samarasi ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati, resurslarning taqsimlanishi, moliyalashtirish darajasi va boshqaruvning ratsionalligiga bog‘liq. Biroq sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini ifodalovchi yana bir ko‘rsatkich mavjud. Mazkur tizim sifati aholining naqadar qamrab olingani bilan belgilanadi. Umumiy qamrov darajasi tibbiy xizmatlardan moliyaviy qiyinchiliklarsiz foydalanish imkoniga ega

[6]Қаранг: Education Index 2020.//http://hdr.undp.org.

bo‘lgan kishilar soniga qarab aniqlanadi. Zamonaviy jamiyatda har bir shaxs tibbiyot xizmatlaridan foydalanish, o‘z sog‘lig‘ini asrash, sanatoriy va profilaktoriyda salomatligini tiklash, dori-darmon xarid qilish, tibbiy maslahatlar olish, sharoit taqozo qilgan hollarda tez tibbiy yordam olish imkoniga ega bo‘lmog‘i darkor. Shunday imkoniyatlarni yarata olgan sog‘liqni saqlash tizimigina zamonaviy, sifatli, insonparvar ijtimoiy mexanizm deb tan olish, mazkur imkoniyatlardan foydalanishga qurbi yetgan kishinigina o‘rtahol jamiyat a’zosi deb atash mumkin.

Xulosa qilib aytganda:

birinchidan, kambag‘allikni kamaytirish uchun eng avvalo jamiyatdagi kambag‘allar soni va kambag‘allik ko‘lamini aniqlash kerak bo‘ladi. Bunda uy-joyning mavjudligi va uning ahvoli, oziq-ovqat va toza ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi, kiyim-bosh bilan ta’minlanganlik darajasi, ta’lim olish imkoniyatlari, sog‘liqni saqlash imkoniyatlari kambag‘allar sonini aniqlash mezoni vazifasini o‘taydi;

ikkinchidan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotinning muhim jihatlaridan biri xalq farovonligi bilan bog‘liq. Farovon turmushga esa turkum ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, jumladan, jamiyatdagi kambag‘allik ko‘lamini kamaytirish orqali erishiladi. Strategik ahamiyatga molik mazkur vazifani uddalash uchun avvalo kambag‘allik ijtimoiy hodisasining mazmuni va mezonlari, sabablari va oqibatlari aniqlanmog‘i darkor;

uchinchidan, kambag‘allik fenomeni mezonlarini aniqlash, jamiyatda kambag‘allik ko‘lamini qisqartirilishida hamda unga qarshi samarali usullar, chora-tadbirlar ishlab chiqilishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Т.:Ўзбекистон, 2021.- Б.442.
2. Вагапова Г. Как решается жилищный вопрос за рубежом.// kazned.ru/article/200..
3. Константинов V.D. Проблема качества жилья в современных условиях: социологические аспекты.// Вестник Саратовского государственного технического университета, 2006, №1.- 186-с.
4. Ковалева ЕА., Ковалев М. О., Родионов D.A. Проблема голода в условиях глобализации.// Век глобализации, 2016, №1-2.- 87-88-с.
5. Сидорчук И.В. Критерии бедности и показатели ее определения.// Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. География. Геология, 2009, №2.- 261-с.
6. Почувствуй разницу.// kanaev55.livejournal.com. 2013, 21 сентября.
7. Рейтинг городов мира по количеству бездомных.// total-rating.ru, 2021, 5 февраля.
8. Education Index 2020. //http://hdr.undp.org.

UDK: 347.7.379:851.929

SAYOHATCHILARNING XAVFSIZ PIYODA YURISHLARINI TA'MINLASHDA TURIZMNING FALSAFIY JIHATLARI

Eldor ALKAROV,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayohatchilarning piyoda yurishlari xavfsizligi borasidagi ijtimoiy qarashlar va falsafiy jihatlar ilmiy tarzda tahlil etilgan. Unda sayohatlarni xavfsiz tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha jamoatchilikning fikri va sohaga doir fikr yuritilgan bo'lib, uning falsafiy ahamiyati keng yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm industriyasi, jamiyat, xavfsiz turizm, piyoda yurish sayohati, dam olish, sayohat manzillari.*

Аннотация: *В статье научно анализируются общественные взгляды и философские аспекты относительно безопасности туристов, посещающих нашу страну. В нем обсуждается мнение общественности о безопасной организации и проведении поездок, широко освещается его философское значение.*

Ключевые слова: *индустрия туризма, общество, безопасный туризм, походы, рекреация, туристические направления.*

Annotation: *The article scientifically analyzes social views and philosophical aspects regarding the safety of hikers visiting our country. In it, the opinion of the public on the safe organization and conduct of trips and the opinion of the industry are discussed, and its philosophical importance is widely covered.*

Key words: *tourism industry, society, safe tourism, hiking, recreation, travel destinations.*

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida har bir voha va hududning geografik joylashuvini hisobga olish muhim sanaladi. Bugungi sayyohlar oqimining ichki va tashqi turizm rivojidagi oqimi ko'payib borayotganligi ijobiy ahamiyat kasb etishi bilan birga ularning xavfsizligini ta'minlash dolzarbdir. Chunki, yurtimizda turizm sohasining yangilanib borayotganligi sababli sayyohlarning ko'proq piyoda yurishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish, ularning har bir hududda xavfsizligini uzluksiz ta'minlab borish lozim. Bu boradagi ishlarimizning joylarda jamoatchilik ongiga singdirilib borilishi o'zining ijobiy natijasini beradi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek,

“Zero, bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlarida turizm iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga, uning o‘ziga xos drayveriga aylanib ulgurgan. Turizmning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi o‘rni muttasil oshib bormoqda. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot sur’atlarini jadallashtirishga intilayotgan yangi O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirish ustuvor iqtisodiy vazifalardan biri bo‘lmog‘i lozim”[1]. Bundan ko‘rinadiki, yurtimizda turizmni rivojlantirish borasida barcha imkoniyatlar yaratilishi jamiyatning ravnaqiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston aholisining deyarli yarmidan ko‘pi ichki turizmni amalga oshirishda faol bo‘lib, ular asosan piyoda sayohatlarni tashkil etishadi. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlar va talabalarning sayohatlari piyoda yurish asosida tashkil etiladi. Bunda rahbarlar tomonidan sayohatlarning tashkil etilishi bevosita xavfsizlik bilan bog‘liq ravishda viloyatlarda joylashgan tarixiy ziyoratgohlar tanlab olinadi. Bu sayohatlar bir kunlik va tunab kelish (2–3 kunlik) shaklida bo‘lishi mumkin. Bunda har bir yosh sayyohning tashrif buyurayotgan manzil haqida fikrga ega bo‘lishi yoki ziyoratdan so‘ng shakllanadigan tasavvurlar o‘ziga xos falsafiy jihatlarga ega hisoblanadi. Har bir hududning o‘ziga xos ahamiyatini anglash, jamiyatning rivojlanishida xavfsizlikning muhimligi, har bir piyoda yuradigan sayyohlarning erkin harakatlanishi muhimdir. Maktab o‘quvchilari o‘rtasida yozgi ta’til paytlarida (sog‘lomlashtirish oromgohlari va sport maskanlari) ko‘p kunlik (8-10 va undan ortiq) piyoda yurish sayohatlari uyushtiriladi. Bunday sayohatlar ta’lim muassasalari jismoniy madaniyat jamoalari kengashining yillik rejalari asosida tashkil etiladi. Har bir o‘quv muassasasi turizm klubi yoki to‘garagi rasmiy ravishda tashkil etilgan bo‘lsa, ularning mustaqil rejalari ham bo‘ladi. Sayohatlarning qaysi turi (piyoda yurish, tog‘ turizmi va hokazo) yoki shakli (bir kunlik, tunab kelish, ko‘p kunlik) bo‘lmasin, ularni tashkil qilish va o‘tkazish uchun yagona talablar qo‘yiladi:

1. O‘quv muassasasi turizm to‘garagini (seksiya) tashkil etish;

2. Jamoatchi faollarni (instruktor-uslubchi, tashkilotchi) tayyorlash;

3. Turistik jihozlarni jamg‘arish yoki ijaraga olish;

4. To‘garak qatnashchilarini turizmga oid nazariy bilim saviyasini oshirish, ularni jismonan tayyorlash;

5. Topografik tushunchalar, birinchi tibbiy yordam va tabiatni muhofaza qilish yo‘llarini o‘rgatish;

6. O‘quv yili davomida dam olish kunlari yoki ta’til paytlarida yaqin atroflarga qisqa sayr-sayohatlar o‘tkazish. Bunda chodirlarni o‘rnatish, atrof-muhitni kuzatish, yurish yo‘llarini chizmaga (xarita) tushirish, kompas bilan ishlash kabi amaliy malakalarni o‘rgatish talab etiladi;

7. Barcha talablar bajarilib, ma’lum ko‘nikmalar hosil qilinadi va tibbiy ko‘rikdan o‘tiladi. So‘ngra bir kunlik sayohatni tashkil qilish mumkin bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, respublikamizning deyarli barcha hududlari piyoda yurish sayohatlariga juda qulay hisoblanadi.

Ya’ni, tog‘oldi va tog‘li joylarda buloqlar, irmoqlar, kichik daryolar, suv omborlari mavjud. Ularning atroflari yashil o‘tloq, daraxtzor, soyasalqin joylarga ega. Farg‘ona vodiysining butun atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan va daryolar, katta soy suvlari, ariqlar, kanallar bilan ta’minlangan. Ya’ni, sayohatlarning ko‘pchilik turlarini o‘tkazish imkoniyatlari bor. Toshkent viloyatining Xo‘jakent, G‘azalkent, Chirchiq, Ohangaron, Olmaliq, Piskent, Bekobod kabi hududlari ham tog‘, daryo sharoitlariga ega. Shu sababdan ham, Shohimardon (Farg‘ona), Arslonbob atrofi (Andijon), Uchqo‘rg‘on, Chust, Pop (Namangan), Chotqol, Chimyon, Qurama, Chorvoq (Toshkent) tog‘ oralig‘i joylarida o‘quvchilarning dam olish oromgohlari va talabalarning sog‘lomlashtirish-sport maskanlari (Xumson, Kumushkon va hokazo) uzoq vaqtlardan buyon faoliyat ko‘rsatib keladi. Sirdaryo viloyatining o‘quvchi-yoshlari va talabalari Sirdaryo va Do‘stlik (sobiq Kirov) kanali sohillari, yangi o‘zlashtirilgan joylardagi (Oq oltin, Baxt, Yangiyer va hokazo) kanallari yoqalaridagi sog‘lomlashtiruvchi va dam olish oromgohlarida sayohatlarni o‘tkazish imkonlariga ega [2].

Ba’zi maktablar, kollejlar va universitet jamoalari sayohatlarni Toshkent va Jizzax viloyatining tog‘li joylarida uyushtirishlari amalda qo‘llanilmoqda. Jizzax viloyatining Zomin o‘rmon xo‘jaligi, Baxmal va Forish tumanlaridagi qo‘riqxonalarda joylashgan o‘quvchilar oromgohlarida sayohatlarni o‘tkazishadi. Jizzax

davlat pedagogika instituti Jismoniy tarbiya fakulteti talabalari bilan o‘quv mashg‘uloti va ko‘p kunlik piyoda yurish sayohatlarini Nurota tizma tog‘lari (Uchma, Osmonsoy) va Baxmal tog‘larida o‘tkazish bo‘yicha ancha tajribalarga ega. Samarqand shahridagi o‘quvchi-yoshlar va talabalarning sayohatlari Cho‘ponota (Zarafshon sohili), Ohalik, Omonqo‘ton, Urgut, Mironko‘l kabi tog‘li o‘rmonlarda tashkil etiladi. Viloyatning Bulung‘ur, Jomboy, Toyloq, Urgut, Samarqand, Qo‘shrabot, Pastdarg‘om kabi tumanlaridagi tog‘li joylarda sayohatbop maskanlar juda ko‘p. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining deyarli ko‘pchilik hududlari (Kitob, Shahrisabz, Denov, Sariosiyo, Jarqo‘rg‘on va hokazo) Bobotog‘ hamda Pomir tog‘larining etaklari bilan tutash bo‘lib, sayohatlarni maqsadli o‘tkazish uchun juda qulay hisoblanadi. U yerlardagi o‘quvchilarning yozgi dam olish oromgohlari, ayniqsa, Amir Temur g‘ori atroflaridagi sayyohlar maskanidan ko‘p kunlik sayohatlarda foydalanish mumkin. Yuqorida bayon etilgan sayohatlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun rasmiy ruxsatnomalardan foydalanish hamda quyidagilarga rioya qilish tavsiya etiladi:

1. O‘quv yurti rahbarining buyrug‘ini rasmiylashtirish;

2. Moddiy-texnik va moliyaviy xarajatlarni hal etish;

3. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilaridan tanlab olib, ularning turizm qoidalari bo‘yicha malakasini oshirish (tayyorlash);

4. O‘quvchi-yoshlar va talabalar o‘rtasida turizmning mohiyatini targ‘ibot qilish;

5. “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarining talablarini bajarishga da’vat etish (tushuntirish);

6. Imkoniyat darajasida turistlar klubini yoki seksiya (to‘garak) tashkil qilish;

8. Sayohatchilar muzeyini tashkil etish. Bunda o‘lkashunoslik va tabiatni muhofaza qilishga keng o‘rin berish.

Bir kunlik va ko‘p kunlik sayohatlarni tashkil qilish va o‘tkazish yaqin o‘tmishda O‘zbekistonning tog‘li hududlarida yozgi dam olish va ta’til paytlarida o‘quvchi-yoshlar, talabalar hamda mehnatkashlarning turli xil sayohatlari ancha ommalashgan edi. O‘sha davrlardagi tajribalar asosida o‘quvchi-yoshlar, talabalar va aholining piyoda yurish va bir kunlik hamda ko‘p kunlik (kamida 7–8 va undan ortiq kunlar) sayohatlarini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir [3]. Chunki, sayohatlar insonning salomatligini yaxshilashga, jismonan chiniqishga, ruhiy dam olishga, ma’naviy hordiq chiqarishga va bizni qurshab olgan sir-sinoatlarga boy atrof-muhitni o‘rganishning muhim jihatlaridan biridir. Sayohatlarni piyoda va xavfsiz tashkil etishda manzilli dasturlar ishlab chiqish, har bir hududning xavfsizligini hisobga olish dolzarbdir. Yoshlar ishtirokida bir kunlik va ko‘p kunlik sayohatlarni tashkil qilish va o‘tkazish uchun, sayohat rahbarlari barcha qatnashchilarni yurish yo‘llari (marshrut) va asosiy bekatlar, sayohat manzillari bilan tanishtirishi zarur bo‘ladi. Bu birinchidan, sayohatga qiziqishni uyg‘otsa, ikkinchidan, tayyorgarlik faoliyatlarini mustaqil ravishda bajarishga da’vat etadi; uchinchidan, piyoda yurish inson tanasi uchun foydali jismoniy mashq vazifasini ham bajaradi.

Inson qancha ko‘p piyoda yursa, tashqi olamda bo‘layotgan jarayonlarda ko‘proq ishtirok etsa, uning ham ruhiy, ham ma’naviy olami sog‘lomlashadi. Shu boisdan xavfsiz turizmning ham rivojlanishida piyodalar sayohatini tashkil etish bevosita barcha yoshdagi fuqarolarning jismonan sog‘lomligi, ruhan tetikligi va ma’naviy yetukligi uchun xizmat qiladi. Jamiyatimizda kundan-kunga yangilanib borayotgan turizmning zamonaviy jihatlari o‘ziga xos falsafiy maydon sifatida sayyohlarning ong-u tafakkuri yuksalishiga, axloqiy-estetik ideallarining boyishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda sayyohlarning piyoda yurishlarida xavfsizlikni ta’minlash borasida davlat tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ayniqsa, zamonaviy milliy turizm infrastrukturasining falsafiy jihatlari muhim sanaladi. Turizmda piyodalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar bugungi kunda davlat siyosati darjasida bo‘lib, kelajakda barcha hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks rivojlantirishda xavfsizlikni birinchi yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan. Yurtimizda turizm sohasining dolzarb ijtimoiy-falsafiy vazifalarini aniqlash, zamonaviy turistik obyektlar va ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta’minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini

oshirish davlatning xalqaro imijini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda turizm sohasida piyodalarga yaratilayotgan imkoniyatlar yangi turizm obyektlarining ko‘payishiga, zamonaviy sayyohlik yo‘nalishlari kengayishiga, jamiyat hayotida iqtisodiy taraqqiyotga, ijtimoiy sohani rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Turizmni jadal rivojlantirish, mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish, an’anaviy, madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda ziyorat turizmi, ekologik xavfsizlikka ega sayohatlarni tashkil etish, etnografik, gastronomik, davolash-sog‘lomlashtirish kabi turizm turlarini rivojlantirish, muhim ahamiyatga ega sanaladi. Turizmda piyodalarning xavfsiz sayohatlarini tashkil etishda bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmini rivojlantirish, hududlarda oilaviy yangi turizm yo‘nalishlari va obyektlarini ko‘paytriish jamiyatning talab va ehtiyojiga aylanib ulgurdi.

Jamiyatda piyodalarning sayohatlari xavfsiz bo‘lishi bevosita turizm infrastrukturasini takomillashtirish jarayonlari bilan bog‘liq. Har bir geografik hudud bo‘yicha turistik oqimlar yo‘nalishida transport va piyodalar harakati bilan bog‘liq xavfsizlik qoidalariga amal qilish dolzarb hisoblanadi. Turistik obyektlar infratuzilmasi orqali xavfsizlik me’yorlariga sayyohlarning doimiy ravishda amal qilishini ta’minlashda joylardagi turizm politsiyalarining ham o‘rni katta. Ular turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari bo‘lgan mehmonxona, transport, oziq-ovqat, dam olish, davolash va boshqa ko‘ngilochar xizmatlarni tashkil etish, o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonda avvalo xavfsizlik masalalariga e’tibor qaratishlari lozim. Chunki, turistlarga xizmat ko‘rsatishda milliy brendlar sanaladigan hunarmandchilik, folklor, sport o‘yinlari, milliy qadriyatlarning xavfsizligi muhimdir.

Globallashuv va axborotlashuv davri milliy turizmning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi jihatlarga egadir. O‘zbekistonda milliy turizm rivojida har bir turistning xavfsizligi, ayniqsa piyodalarning xavfsizligini ta’minlagan holda yangi sayyohlik yo‘nalishlarini tashkil etish soha rivojiga xizmat qiladi. “O‘zbekistonda davlat muzeylari, galereyalar, madaniy meros yodgorliklari, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar, ziyoratgohlar va boshqa turizm obyektlaridan milliy turizmni rivojlantirishda foydalanilmoqda. “Sharq taronalari”, “Maqom san’ati”, “Xalqaro baxshichilik san’ati”, “Xalqaro hunarmandchilik”, “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivali kabi festivallar, “Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida ziyorat turizmining renessansi” kabi xalqaro anjumanlar, Xalqaro turizm forumi kabi tadbirlar o‘tkazilmoqda” [4]. Bularning barchasi insonni qadrlash, uning turmushini yaxshilash, ertangi kunga ishonch tuyg‘usini yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Umaman olganda, sayohatlarda xavfsizlikni ta’minlash, piyodalarning ichki turizm rivojlanishida jamiyatga qo‘shayotgan hissalari muhim ahamiyatga egadir. Chunki, piyoda yuruvchi sayyohlar turizm tarixi va joylarning nomlari bilan yanada chuqurroq tanishishi, yoshlarning sayohatlarga qiziqishini uyg‘otishga xizmat qila oladi. Bunda har bir fuqaro e’tiborli bo‘lishi, yurtimizning barcha hududlaridagi turizm taraqqiyotida faol shaxsga aylanishi yangi marralar sari xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O’zbekiston, 2021. –Б. 172.
2. Туризм в школе. Москва: Фис, 1983. -С. 55.
3. Норчаев А.Н. Халқаро туризм ривожланишининг иқтисодий ўсишга таъсири: Тошкент: Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2004. –Б. 44.
4. Хошимов Ш.Ж. Ўзбекистонда миллий туризм ривожланишининг ижтимоий-фалсафий масалалари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2022. –Б. 16.

UDK:37.035.6.1:28(093)

MILLIY YUKSALISH JARAYONIDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH PARADIGMALARI

Xurriyat XUDAYBERDIYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasi tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada vatanparvarlik tarbiyasi maqsadlariga erishishda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'tmishning bugungi kun bilan uzviyligi va davomiyligini ta'minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qilish, bu orqali har bir xalq o'zining ma'naviy, etnik psixologiyasi, an'analari, urf-odatlari va an'analriga ega bo`lishi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, madaniyat, axloq, millat, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhi, ta'lim, tarbiya, yoshlar.

Annotation: This article describes the reforms to Mali in the spiritual and educational spheres in achieving the goals of patriotic education, ensuring continuity and continuity of the past with the present to serve the preservation of national and universal values through which each nation has its own spiritual, ethnic psychology, traditions, traditions and traditions.

Key words: spirituality, culture, ethics, nationality, national values, spirit of patriotism, education, upbringing, youth.

Аннотация: В данной статье изложены идеи о проводимых реформах в духовно-просветительской сфере в достижении целей патриотического воспитания, обеспечении преемственности прошлого с сегодняшним днем, сохранении национальных и общечеловеческих ценностей, посредством которых каждый народ имеет свою духовную, этническую психологию, обычаи и традиции.

Ключевые слова: духовность, культура, нравственность, нация, национальные ценности, патриотический дух, образование, воспитание, молодежь.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Hozirgi davrda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug‘vor maqsadlar bilan yashamoqda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi.

O‘z navbatida, ushbu maqsadga yetish borasidagi serqirra faoliyatning tizimli va samarali tashkil etilishi, ishlarimizning samaradorligiga erishish islohotlarimizning mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi.

Keyingi yillarda qabul qilingan konsepsiya va harakat dasturlarida belgilangan ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlarning samarasini oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi”[2].

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O‘z-bekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga eri-shish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azm-u shijoatli yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash hamda uning tadrijiy rivojlanishiga vatanparvar shaxs sifatida hissa qo‘shish barcha vatandoshlarimizning ezgu orzu umidlaridan biriga aylanmog‘i kerak. Darhaqiqat, “Yangi O‘zbekiston – barchamizning ezgu orzuimiz, mehnatkash, tinchiliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda. Uzoq o‘tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g‘oya va amaliy harakatlarda o‘z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda yangi O‘zbekiston tushunchasiga jamuljam bo‘ldi.

Demokratik jamiyatni barpo etish, teng huquqli bo‘lgan kishilik jamiyatini yuzaga keltirish har bir davrning dolzarb masalasi bo‘lib kelgan. Har bir shaxsning maqomi belgilab berilgan davlatning qudrati ham, kuchi ham uning xalqining vatanparvarligidir. Jamiyatni demokratlashtirishga qaratilgan bunday jarayonlarning xarakterini, avvalo, ularning ma’naviy-axloqiy mazmuni belgilab, quyidagi tendensiyalarni namoyon qilmoqda, ya’ni: “birinchisi – jamiyatdagi ma’lum taqdirini belgilaydigan davlat va jamiyatni boshqarishning ijtimoiylashuvi; ikkinchisi – har bir shaxs, millat, davlat manfaatlarining umummillat va jamiyat manfaatlaridan nisbatan mustaqil individuallashuvida namoyon bo‘lmoqda”[3]. Mamlakatimizda demokratik jarayonlarning rivojlanib borishi bilan, davlatning ayrim boshqarish funksiyalarini bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyati institutlariga o‘tkazish siyosiy hokimiyat va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi yangi munosabat strukturasini vujudga keltirmoqda. Albatta, bu yangi O‘zbekistonni jahon bilan yuzlashishiga zamin hozirlamoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan istiqbolli rejalar va tub demokratik islohotlar vatanparvarlik tarbiyasini yangicha paradigmalar, qarashlar va yondashuvlar asosida olib borishni taqozo etmoqda. Vatanparvarlikni tarbiyalash borasidagi falsafiy paradigmalar deb vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi g‘oyalar, qarashlar va tushunchalarning yetakchi tizimini belgilash uchun ishlatiladigan dastlabki konseptual sxemalar, muammolarni qo‘yish va ularni hal qilish modellari, tadqiqot usullari, ularni amalga oshirishning taktikasi va strategiyasi haqidagi postulatlar va standartlar tizimiga aytiladi. Bu borada yaratilgan falsafiy paradigmalarni, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkuri va qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularni shakllantirish amaliyotini “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessasans sari”, “Armiya va xalq – bir tan-u bir jondir”, “Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy”, “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy”, “Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona”, “Jaholatga qarshi ma’rifat, g‘oyaga qarshi – g‘oya bilan

kurashish", "Biz g'ururi, oriyati, ma'naviyati baland xalqmiz", "Yangi O'zbekiston – ma'rifatparvar davlat", "Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi", "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik", "Millatning dardiga darmon bo'lmoq – chin vazifangizdir" , "Inson qadri uchun" tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushintirishdan boshlab, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini takomillashtirishga ko'proq e'tibor qaratmog'imiz lozim. Bugungi kunda yoshlarni ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim va asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Darhaqiqat, yoshlarning tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarini hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uchun bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma'naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolalarda tayanch fazilatlarni shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajada ko'tarish darkor. Shundan kelib chiqqan holda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

- davlatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar yuqori samaradorlik ko'rsatishida kishilarning ongini boyitish, ma'naviy-axloqiy qiyofasini zamonaviylashtirgan holda milliylik an'analarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda liberalizm, neokonservatizm, va albatta, demokratizm muhitining uyg'unligini ta'minlash ushbu jamiyatning barqaror rivojlanishining asosi bo'lib xizmlat qiladi;

- O'zbekistonda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar yoshlardagi vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'usini yangi bosqichga ko'tarishni obyektiv ehtiyojga aylantirdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasi, milliy ruhni yuksaltirish hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda;

- yoshlarni zamon talablari darajasida ta'lim–tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, shu aziz vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Vatan ravnaqi g'oyasi vatanga daxldorlik hissi, insonlarni o'z manfaatlarini vatan manfaatlari bilan integratsiyalashtiruvchi, uni vatan rivoji yo'lida xizmat qilishga undovchi konstruktiv g'oyadir. U milliy istiqlolning oliy maqsadi – O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi va boshqa qonunlari yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha davlat dasturlari, vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyalari qabul qilingan, yoshlarning vatanparvarlik borasidagi tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi va davlat tomonidan moliyaviy ko'mak beriluvchi ko'plab jamoatchilik asosidagi faxriylar va jamoatchilik tashkilotlari tashkil etilgan.

Vatanparvarlik – shaxs ma'naviyatining ajralmas qismidir. Yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning qay darajada vatanparvar ekanliklariga bog'liq. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga yagona ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqish kam sonli olimlar guruhining emas, balki butun boshli siyosiy-tadqiqot va fuqarolik jamiyati institutlarining ham muhim vazifasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda tinchlikni yoshlarda shakllangan millatparvarlikda, bag'rikenglikda ko'rish mumkin. Bularning yuksalishi ko'p millatli O'zbekistonning milliy-ma'naviy taraqqiyotining asosi, desak adashmaymiz. Yoshlarning millatparvarligi milliy-ma'naviy taraqqiyotni belgilab, ijtimoiy taraqqiyotga katta hissa qo'shadi. Bu sabab va oqibat zanjirida quyidagicha namoyon bo'ladi:

- birinchidan, O‘zbekiston uchun o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan tarixiy-madaniy yutuqlarni, tajribalarni, boyliklarni asrash, saqlash va uni rivojlantirish ishlarida;

- ikkinchidan, o‘zbek millati o‘z oykumeniyasini chuqur anglaganligi, millatlararo, etnoslararo tarixiy-madaniy aloqalarni saqlab kelayotganligi, milliy-madaniy integratsiyani yanada chuqurlashtirishga bo‘lgan intilishlarida;

- uchinchidan, xalqimiz o‘tmishdan meros bo‘lgan qorishiq madaniy-ma’naviy, etnomadaniy boyliklarni o‘rganish va uni keng targ‘ib etishda;

- to‘rtinchidan, millatparvarlikni yaqqol namoyon bo‘lishi millatimiz va o‘zga millat vakillarini buyuk ajdodlarining ulug‘ nomini tiklash, ular bilan bog‘liq joylarni (xususan, tinchlik, do‘stlik ramzi bo‘lgan qahramonlar, xalq yozuvchilarini) obodonlashtirish ishlarida;

- beshinchidan, xalq an’analari, amaliy san’ati, marosimlari, urf-odatlari va bayramlariga yangi ijtimoiy-madaniy mohiyat berish, ularni etnoturizm obyekti sifatida tiklanishda;

- oltinchidan, jamiyatda barcha millatlarni birlashuviga sabab bo‘ladigan diniy qadriyatlarni qayta tiklash, munosib shart-sharoitlar yaratish, o‘ziga xos qonunchilik ishlab chiqishda;

- yettinchidan, milliy davlatchilik an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish, sharqona axloq, odob, ma’naviyat an’analarini yangi avlod tarbiyasiga tatbiq qilish;

- sakkizinchidan, milliy teatr, qo‘shiqchilik, raqs, baxshichilik an’analarini rivojlantirib, boshqa tillarda ularni targ‘ib qilish va folklor maktablarini qo‘llab-quvvatlash kabilarda.

Vatanni asrash, uning qudratini oshirish jamiyatdagi barcha ijtimoiy-tarbiyaviy institutlarning sa’y-harakatlari orqali ro‘yobga chiqadi. Biroq, hamma ham yuksak vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lavermaydi. Shu ma’noda, vatanparvarlik moddiy ta’minlanganlikda emas, balki shaxsning ichki ruhiy-ma’naviy olamida subyektiv xislatlardir. Yoshlar orasidagi vatanparvarlik har qanday sharoitda ham ulug‘vorligini, kelajakka ishonchni yo‘qotmaydigan, inson qalbida doimiy yashaydigan tuyg‘u bo‘lishini talab qiladi. Mamlakatimizdagi yangi rivojlanish bosqichi yoshlarning shaxsiy fazilatlari taraqqiyotiga yo‘l ochib berish funksiyasini bajaradi. Bunday tarixiy davr yoshlar umrining bir qismi, bir bosqichi hisoblanadi. Vatanparvarlik – inson umrining doimiy hamrohi bo‘lganligi uchun ham har bir davr unga ehtiyoj sezib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekistion, 2021. –B. 6.
3. Mamashokirov S. Tog‘aev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari. –T.: Ma’naviyat, 2007. –B. 49-50.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
5. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2001.

UDK: 364.3(575.1)

ISLOM DINI VA TA'LIMOTIDA SAXOVAT TUSHUNCHASIGA BERILGAN TA'RIFLAR

Irodaxon BADALBAYEVA,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining "Gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada islom ta'limotida saxovat tushunchasiga berilgan ta'riflar va insoniyatning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda uning ahamiyati, mehribonlik, saxiylik, rostgo'ylik, halollik, samimiylik, sodiqlik, sabr, sabr-toqatli bo'lish, kamtarlik, nomusli bo'lish va ularning mohiyati to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *saxovat, mehribonlik, saxiylik, rostgo'ylik, halollik, samimiylik, sodiqlik, sabr, sabr-toqatli bo'lish, kamtarlik, nomus, rahm-shafqat, ilg'or fikr, ixlos, g'amxo'rlik, himmat, global inqiroz, pandemiya, ko'mak.*

Аннотация: *В данной статье размышляется об определениях, данных понятию щедрость в исламском учении, и его значении в формировании нравственных качеств человечества, о доброте, щедрости, честности, непорочности, искренности, верности, терпении, терпеливости, смирении их сущности.*

Ключевые слова: *честь, доброта, здоровье, правдивость, честность, искренность, верность, терпение, быть терпеливым, смирение, честь, сострадание, прогрессивная мысль, преданность, забота, сострадание, глобальный кризис, пандемия, поддержка.*

Annotation: *This article reflects on the definitions given to the concept of generosity in islamic teaching and its importance in the formation of moral qualities of mankind, about kindness, generosity, honesty, honesty, sincerity, loyalty, patience, patience, being patient, humility, being inappropriate and their essence.*

Key words*: honor, kindness, health, truthfulness, honesty, sincerity, loyalty, patience, being patient, humility, honor, compassion, progressive thought, devotion, care, compassion, global crisis, pandemic, support.*

Mehribonlik va saxiylik, rahm-shafqat insonni ziynatlaydigan, uning buyukligi va olijanobligini ta'kidlaydigan, uni nafrat va ma'naviy qullikdan qutqaradigan ajoyib fazilatlardir. Odamlarga tekinga yaxshilik qilish, ularning xatolarini kechira olish insondan yuksak ma'naviyat, mustahkam iroda, qat'iy ishonchni talab etadi.

Islom kambag'allarga rahm-shafqat va muhtojlarga yordam berishga, zaiflarni himoya qilishga va adolatni saqlashga chaqiradi. Musulmonlar saxovatli xayr-ehsonlar bilan boylik qashshoqlashmasligiga ishonadilar va shuning uchun ular ko'pincha sadaqa beradilar, boyliklarning bir qismini xayriya maqsadlariga beradilar, xayrli ishlar uchun kuch va vaqtlarini ayamaydilar. Mo'minlarni ixlosli va saxovatli, gunohkorlarni esa yolg'onchi va baxil deb qaraydilar.

Asmo raziyallohu anho: "Nabiy sallollohu alayhi va sallam menga: "Saxovat yo'lini berkitmagil, Olloh taolo ham sening uchun saxovat yo'lini berkitmag'aydir" deb aytganlar",- deydilar. Usmon ibn Abu Shayba: "Kimga ne berganingni sanamag'il, Olloh taolo ham senga sanab rizq bermag'aydir", - deydilar [1].

Bugun tarixiy davrning yangi bosqichi – xalqimiz o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yib, o'z kuch va imkoniyatlariga tayangan holda, og'ir va sinovli kunlarda ham hamjihatlik ila taraqqiyot sari odimlab borayotgan pallada yashayapmiz.

Bugungi sinovli kunlarni xalqimizga xos va munosib tarzda yengib o'tishda Prezidentimiz-ning har tomonlama qo'llab-quvvatlashlari, xalqimiz o'rtasidagi mehr-oqibat, oliyhimmatlik muhiti muhim omil bo'lmoqda. Qalbida imon-e'tiqodi mustahkam xalqimizga Yaratganning o'zi madadkor bo'layotir.

Xayr va saxovat insonni ulug'lab, har ikki dunyoda ham ajr-u savobga sazovor etishi haqida allomalarimiz ta'kidlab o'tgan. Islom dinida ham mo'minning eng ulug' sifatlaridan biri xayr va saxovat ekaniga ishora qilinadi. "Saxovatli kishi sadaqa bermog'i bilanoq jubbasi kengayib, hatto yuz qo'lidagi temir izlari yo'qolgaydir, ammo baxil odam sadaqa qilmoqchi bo'lishi birlanoq jubbasining har bir halqasi badanini tobora siqa boshlag'aylar, baxil har qancha chiranmasin, jubba kengaymag'aydir", deydi hadisi sharifda. [1]

Islom dini mohiyatida mujassam bo'lgan barcha fazilatlar asrlar osha bashariyatni hidoyatga chorlab kelmoqda. Ayniqsa, muborak dinimizning ezgulik, xayr-u saxovat, mehr-oqibat, muruvvat kabi olijanob g'oyalari jamiyatda insonparvarlik, bag'rikenglik muhiti mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Butun dunyoga katta tashvish va muammo bo'lgan koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash bo'yicha davlatimiz rahbarining bevosita boshchiligida tizimli ishlar amalga oshirildi. Hukumatimiz tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rildi. O'z navbatida, yurtimiz aholisi tomonidan ham ushbu xastalikni insoniyat boshidan aritish yo'lida birdamlik, ahil-inoqlik namunalari ko'rsatildi. Shuningdek, mana shunday sinovlarni tez orada insoniyat boshidan aritish borasida Qur'oni karim, hadisi shariflarda ma'lum amallarni bajarish va duo-yu tazarrular o'qish ham davom etmoqda.

Ta'kidlash joizki, mo'tabar manbalarda doimiy ravishda Alloh taolodan xalq farovonligi, yurt ravnaqi uchun xayr-u baraka tilash, tinchlik-ofiyat so'rash va ezgu duolar qilish lozimligi haqida ko'p bayon etilgan. Shu bois, O'zbekiston musulmonlari idorasi tashabbusi bilan diyorimizning eng tabarruk joylarida ilg'or fikrli, fazilatli ulamolar, tajribali imom-xatiblar yetakchiligida Qur'oni karim xatmlari va mehr-muruvvat tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jonliqlar so'yilib kam ta'minlangan oilalar, yordamga muhtoj kishilarga tarqatilmoqda hamda oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat hadyalar mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga ulashilmoqda. Bunday insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, ko'ngillarini ko'tarish ham eng maqbul amallardandir.

Shunday saxovat tadbirlari bugun har qachongidan ham ko'payayotganining hikmati shuki, Alloh taolo Qur'oni karimda: "Alloh yo'lida mollarini ehson qiluvchilar (savobining) misoli go'yo bir donga o'xshaydiki, u har bir boshog'ida yuztadan doni bo'lgan yettita boshoqni undirib chiqaradi. Alloh xohlagan kishilarga (savobini) yanada ko'paytirib beradi. Alloh

(karami) keng va bilimdon zotdir”, deb marhamat qilgan. Alloh taolo bu misol bilan bitta xayrli ish uchun bitta emas, to700 va undan ortiq savob ato etishi mumkinligini bildirmoqda[2].

Alloh taolo qiyinchilik kunlarida sabr qilgan, ibodatlarda qoim bo‘lgan, muhtojlarga yordam bergan va chiroyli xulqlarini saqlab qolganlarga oxirat saodatini va’da qiladi: “Parvardigorlarining roziligini istab, (turli mashaqqatlarga) sabr qilib, namozlarini barkamol ado etgan va Biz rizq qilib bergan narsalardan xufyona va oshkora ehson qilgan hamda yomonlikka yaxshilik qaytaradigan zotlar, aynan o‘shalar uchun dunyo oqibati (jannat) bordir”[3].

Yetim-yesir, beva-bechora, nogironlar, musofirlarga muruvvat ko‘rsatish, sidqidildan beg‘araz yordam berish kabi fazilatlar qon-qonimizga singib ketgan. Ulamolar aytganidek, aqlning qadri odob bilan oshadi, boylik qadri – saxovat bilan. Saxiylik ezgulikni yuksaltiruvchi, demakki do‘stlarning ko‘payishiga imkon yaratuvchi xususiyat bo‘lib, inson uchun saxovatdan yaxshiroq va azizroq yoqimli sifat yo‘q.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Global inqiroz va pandemiya sharoitida mamlakatimiz aholisi bandligi masalalari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi avvalida koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash doirasida amalga oshirilayotgan ishlarga yana bir bor to‘xtala turib, xalqimiz boshiga tushgan og‘ir kunlarda barchamizni yanada bahamjihat, ahil va birdam bo‘lishga chaqirdi.

E’tiborimni tortgan muhim jihatlardan biri shu bo‘ldiki, muhtaram Prezidentimiz o‘z nutqida: *“...el boshiga ish tushgan qiyin damlarda bir-biriga yelkadosh bo‘lish, bir-biriga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi eng olijanob fazilatlar xalqimizning yuragida, qalbida azaldan mujassam bo‘lganini, bugun ushbu intilishlar yanada kuchliroq jo‘sh urayotganini namoyon etadi”,*- deya takidlab o‘tdi.

Shu bois Prezidentimiz xalqimizning tarixiy va ma’naviy qadriyatlarini, mehr-saxovat, oqibat va himmat kabi yuksak fazilatlarini inobatga olgan holda, “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakatini yo‘lga qo‘yish tashabbusini ilgari surdi.

Bu tashabbusni xalqimiz ko‘tarinki ruhda, qizg‘in kutib oldi. Binobarin, mana shunday sinovli kunlarda bir-birimizga g‘amxo‘r, mehr-oqibatli, ahil-inoq va tirgak bo‘lishimiz insoniylikning eng oliy namunasi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bunday ezgu qadriyatlar milliy-diniy ta’limotlarimizda ham o‘z ifodasini topgan. Tarixda ham mana shunday musibatli kunlarda xalq dardi va koriga kamarbasta bo‘lish borasida ibratli voqealar bo‘lib o‘tgan. Jumladan, *Rasululloh sollallohu alayhi va sallam davrlarida Madinada qurg‘oqchilik bo‘ldi. Usmon roziyallohu anhu Shomga tijorat ishlari bilan ketgan edilar. Qurg‘oqchilik xabari Usmon roziyallohu anhuga yetganida bor tijoratlariga oziq-ovqat sotib olib qaytdilar. Bu xabar Madinaga yetgach Madina tojirlari (tijoratchilar) shahardan tashqariga chiqib, Usmon roziyallohu anhuning karvonlarini kutib turishdi. Karvon yetib kelganida ular Usmon roziyallohu anhuga katta foydalarni va’da qilishdi u zot esa ko‘nmadilar. Shunda Madina tojirlari: “Nima, bundan-da ko‘proq foyda ko‘zladingmi?”, deb so‘raganlarida, u zot: “Ha”, deb javob qildilar. Ular hayron bo‘lib: “Kimga, qancha foydaga?”, deb yana so‘rashdi. Usmon roziyallohu anhu: “Bu karvondagi barcha oziq-ovqatlarni Alloh va Uning Rasulini roziligi uchun Madina ahliga ehson qildim”,- degan ekanlar.*

Darhaqiqat, muqaddas Islom dinida har bir mo‘min kishi o‘zi yashayotgan jamiyatdagi barchaga naf keltirishga, ularga zarar yetkazmaslikka undaydi. Chunki, insonlarga yaxshilik qilish ikki dunyo saodatiga olib boruvchi yo‘llardin biridir. Alloh taolo marhamat qilib aytadi:

لَنْتَنَالُوا الْبِرَّ حَتَّىٰ تُنْفِقُوا مِمَّا تُحِبُّونَ وَمَا تُنْفِقُوا مِنْ شَيْءٍ فَإِنَّ اللَّهَ بِهِ عَلِيمٌ

(سورة آلعمران/92)

ya’ni: *“Suygan narsalaringizdan ehson qilmaguningizgacha sira yaxshilikka (jannatga) erisha olmaysizlar. Nimaniki ehson qilsangiz, albatta, Alloh uni biluvchidir”.* Abu Muso roziyallohu anhudan rivoyat qilingan bir hadisda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) marhamat qilib aytdilar [4]:

"عَلَىٰ كُلِّ مُسْلِمٍ صَدَقَةٌ قَالُوا يَا رَسُولَ اللهِ، أَرَأَيْتَ إِنْ لَمْ يَجِدْ؟ قَالَ: يَعْمَلُ بِيَدِيهِ فَيَنْفَعُ نَفْسَهُ وَيَتَصَدَّقُ قَالُوا: يُعِينُ ذَا الْحَاجَةِ الْمَلْهُوفَ قَالُوا: يَا رَسُولَ اللهِ، أَرَأَيْتَ إِنْ لَمْ يَسْتَطِعْ؟ قَالَ: يَأْمُرُ بِالْمَعْرُوفِ أَوْ بِالْخَيْرِ قَالُوا: أَرَأَيْتَ إِنْ لَمْ يَفْعَلْ؟ قَالَ: يُمْسِكُ عَنِ الشَّرِّ فَإِنَّهَا لَهُ صَدَقَةٌ: أَرَأَيْتَ إِنْ لَمْ يَفْعَلْ؟ قَالَ" (متفقعليه)

ya'ni: *"Har bir musulmon xayr-ehson qilmog'i darkor. Sahobalar so'radilar: Ey Allohning Rasuli! Agar biror kimsa sadaqa qilishga qodir bo'lmasa nima qiladi? Payg'ambarimiz (s.a.v.) javob berdilar: halol mehnat qiladi, shunda o'ziga ham foyda keltiradi, boshqalarga ham nafi tegadi. Ular yana so'radilar: Ey Allohning Rasuli! Agar bunga ham qodir bo'lmasa, ne qilmog' darkor? Buyuk zoti sharif javob berdilar: "Birovning qalbiga ozor bermaydi, o'zini yomonlikdan tiygani undan sadaqa bo'ladi"*[1].

Yaxshilikning chegarasi bo'lmaydi. Mehr-muruvvatga mushtoq ko'ngillardan xabar olish ham - bir yaxshilik. Muqaddas hadislarning birida "Ulardan avval bu diyorda va iymonda qaror topganlar o'zlariga hijrat qilib kelganlarni sevarlar va ularga berilgan narsalarga qalblarida hasad qilmaslar. Va gar o'zlarining hojatlari bo'lsa ham, (ularni) o'zlaridan ustun qo'yarlar. Kim o'z nafsining ziqnaligidan saqlansa, ana o'shalar zafar topuvchilardir" [5].

Ibn Abbos roziyallohu anhu rivoyatida: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odamlarning eng saxovatlisi edilar. U zotning saxovatlari Ramazon oyida – har kecha Jabroil alayhissalom u zotga Qur'onni ta'lim berish uchun huzurlariga tashrif buyuradigan paytlarda, ayniqsa cho'qqisiga chiqardi. Darhaqiqat, Allohning Rasuli odamlarga yaxshilik bilan muruvvat ko'rsatishda shiddat bilan esayotgan shamoldan-da uchqurroq edilar" (Imom Buxoriy va Abu Muslim rivoyatidan) [1].

Ul zotga yer yuzining barcha xazinalari, mamlakat eshiklarining kalitlari topshirilgan va barcha g'animat narsalar halol qilib berilgan edi. Iroqning bir qismi, Shom, Yaman, Hijoz, Arabiston yarim oroli fath etilgach, ko'plab xiroj, zakot mollariga ega bo'ladi, uzoq-yaqindagi podshohlar behisob sovg'a-salomlar ulashgan edi. Ammo ul zot biror narsani o'ziniki qilib o'zlashtirmadi. Birortasini o'z ehtiyoji yo'lida sarf etmadi. Ulug' xayr-saxovatning chinakam egasi

bo'lganlar. "Batahqiq, sizlar uchun – Allohdan va oxirat kunidan umidvor bo'lganlar uchun va Allohni ko'p zikr qilganlar uchun Rasulullohda go'zal o'rnak bor edi" [6].

Inson xayr-ehson qilar ekan, infoq-ehsoni zohirdan mol-davlatini kamaytirayotgandek bo'lib ko'rinadi. Aksincha, u mol-davlatga baraka kiritadi. Sarflangan xayr-ehson o'rnini Alloh taolo ortig'i bilan to'ldiradi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Bandalar tong ottiradigan biron-bir kun yo'qki, magar ikki farishta osmondan yerga tushadi. Ulardan birisi: "Allohim, infoqgo'y bandangning sarflagan moliga evaz ber",- deydi. Ikkinchisi esa: "Allohim, mum-sik (baxil) bandangning moliga ofat yubor", deydi",- dedilar. *(Muttafaqun alayh)*

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rosululloh sollallohu alayhi vassallam: "Sadaqa berish bilan mol dunyo kamayib qolmaydi. Alloh taolo ehson qilgan bandasining izzat sharafini ziyoda qiladi"[7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. "Al-Jome As-Sahih" asari. "Qomuslar Bosh tahririyati". Toshkent, Movorounnahr-2018.
2. Qur'oni Karim. Baqara surasi.
3. Qur'oni Karim. Ra'd surasi.
4. Qur'oni Karim. Oli Imron surasi.
5. Qur'oni Karim. Hashr surasi.
6. Qur'oni Karim Ahzob surasi.
7. Nubuvvat marvaridlari. Hadis 568.
8. Alimov U. Xayr-ehson fazilatlari. T., Movorounnahr, 2011 yil.

UDK:004.7.29.30

AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNI IJTIMOIY MUHITDA BARTARAF ETISH OMILLARI

Abrorxon OCHILOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada «internet» tushunchasining mohiyati, axborot xurujlarining manbalari, ularning ijtimoiy muhitda amalga oshish usullari va ularga qarshi kurashish yo‘llari haqida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *internet, internet xuruji, siyosiy usul, harbiy usul, iqtisodiy usul.*

Аннотация: *В статье описаны сущность понятий «информация», «информационная атака», источники информационных атак, способы их реализации в социальной среде и способы борьбы с ними.*

Ключевые слова: *информация, информационная атака, психологический метод, политический метод, военный метод, экономический метод.*

Annotation: *This article describes the essence of the concepts of «information», «information attack», the sources of information attacks, ways to implement them in the social environment and ways to combat them.*

Key words: *information, information attack, psychological method, political method, military method, economic method.*

Kirish

Axborot bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri bo‘lib xizmat qilinadi. Internet ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotning muhim omilidir. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyati kundan-kunga ortib, ma’lumotlar bilan ishlash usullari o‘zgarishi va yangi axborot texnologiyalarni qo‘llash sohalarining kenga-yishi kuzatilmoqda.

Axborot hajmining borgan sari ko‘payishi XX asrning ikkinchi yarmidan yaqqol namoyon bo‘la bordi. O‘tgan asrning 70-yillarida axborot hajmi har 5-7 yilda ikki barobarga ortgan bo‘lsa, 80-yillarda bunday o‘sish

har 20 oyda, 90-yillarda esa har yili kuzatilgan [1]. Axborot hajmining bu qadar ortib ketishi insonning axborotni butunligicha qabul qilish imkonini cheklab qo‘yayotganini ta’kidlash lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Amerikalik muhandis, matematik va birinchilardan bo‘lib axborot nazariyasini yaratgan olim Shennon K. axborotni «oydinlashtirilgan mavhumlik», - deya ta’riflagan. Buning ma’nosi shundan iboratki, axborotni qabul qilib inson yangi bilimlar bilan tanishadi, ilgari mavhum bo‘lgan narsalarni anglaydi, qo‘ygan savollariga javob topadi. Bu tugamas va doimiy jarayondir.

O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq axborot axborotlashtirish jarayonida qo‘llanuvchi axborot resursi [2] sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi

« Axborot», «xuruj» va «axborot xuruji» tushunchalarining ta’rifini berish va ularni o‘zaro bog‘lash orqali qo‘yilgan muammoni yanada chuqurroq tushunish, axborot xavfsizligini ta’minlash masalasining dolzarb ekanligini anglash mumkin.

Axborot so‘zining kelib chiqish tarixiga nazar solsak, u arabcha «axbor», ya’ni xabar so‘zidan olingan. Informatsiya esa lotincha “informatio” so‘zidan olingan bo‘lib, «tushuntirish, xabar qilish, talqin etish» ma’nolarini anglatadi va namoyon bo‘lish shakllaridan qat’iy nazar biror narsa haqidagi ma’lum otni o‘zida namoyon etadi. Bugungi kunda axborot va informatsiya so‘zlari ko‘p hollarda yagona mazmunda ishlatilmoqda.

Tahlil va natijalar

Axborot xuruj deyilganida, biror tizimga nisbatan disfunksional yoki uning tartibini buzishga intiluvchi turli kuchlar va omillar mavjud bo‘lgan holat tushuniladi. Xurujlarning asosiy maqsadi tizimning faoliyatini tartibsizlik holatini keltirish orqali buzishdan iborat. Ular kelib chiqish manbasiga, amalga oshiruvchi kuchlariga va qaysi obyektlarga ta’sir ko‘rsatishiga, shuningdek, ta’sir xavfi hamda rivojlanish darajasiga ko‘ra farqlanadi [3]. Aniqroq qilib aytganda, vaqt omili hisobidan xurujning xavfi va tizimga nisbatan ta’siridan kelib chiqib uni buzish ehtimoli nazarda tutiladi.

«Axborot xuruji» deyilganida muayyan kuchlarning o‘z siyosiy maqsad va muddaolarini amalga oshirish yo‘lida eng avvalo mafkuraviy omillar, shuningdek, moddiy va ma’naviy ta’sir o‘tkazish orqali kishilar ongi, qalbiga yot g‘oyalarni singdirishni, ularning hissiyotlari, e’tiqodi, tuyg‘ulariga ta’sir etishni, turmush tarzi, mentalitetidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishni ko‘zlovchi xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Davlatning o‘z jamiyati xavfsizligini ta’minlashi vazifasi nuqtai nazaridan olganda, axborot xurujlari axborot xavfsizligini buzish xavfini solgan sharoit va ijtimoiy omillar yig‘indisidir [4].

Bugun axborot xurujlari orqali o‘z g‘oyalarini singdirish va jamiyat a’zolarini, ayniqsa, yoshlarni o‘z izmiga solish ko‘p kuzatilayotgan holat bo‘lib qolmoqda. Internet xurujlari bugungi kunda globallashuv jarayoniga qo‘shilgan har bir davlat va jamiyat uchun potensial yoki real darajada xavf tug‘diradi. Chunki axborot orqali o‘sha mamlakat yoshlari ongini manipulyatsiya qilish, o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga shu yo‘l bilan erishmoqchi bo‘layotgan kuchlar mavjudligi sir emas. Axborot xurujlarini bugungi kunda davlatlar (jumladan chet el davlatlari), turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tashkilotlar, rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar, alohida shaxslar uyushtirishi mumkin [5]. Shuning uchun axborot urushlari, axborot-psixologik xavfsizlik kabi mavzularda butun dunyo olimlari keng bahs va mushohadalar olib borishmoqda. Internet oqimining ortishi, internet urushlari va axborot terrorizmi kabi masalalarning ko‘tarilishi, jamiyatda ommaviy axborot vositalari o‘rnining ortishi, mehnat faoliyatini texnik axborotlashtirish usullarining keng qo‘llanilishi tufayli ko‘plab ilmiy va ilmiy-amaliy adabiyotlarda axborot xurujlarining amalga oshish usullari o‘rganilmoqda. Internet ta’sirlari kimga ta’sir ko‘rsatish kerakligi va axborot xurujining maqsadidan kelib chiqqan holda tegishli usullar orqali amalga oshiriladi. Bularga psixologik usullar (o‘z fikrini singdirish, rag‘bat, majburlash, jazolash, namuna ko‘rsatish), harbiy usullar (jismoniy zarar yetkazish orqali o‘z fikrini singdirish), iqtisodiy usullar (potensial raqibning iqtisodiy holatini yomonlovchi savdo yoki moliyaviy sanksiyalar yaratish), siyosiy usullar (turli siyosiy o‘yinlar) kiradi. Mazkur usullarni

mukammal bilgan holatdagina axborot xurujlariga qarshi kurash yo‘llarini ishlab chiqish mumkin. Globallashuv sharotida dunyoning mafkuraviy manzarasi hozirda juda murakkablashib ketdi. Unda ta’sir kuchiga ega bo‘lishning eng maqbul yo‘li sifatida, mablag‘ qancha ketishidan qat’iy nazar yirik axborot tarqatuvchilik mavqeini egallash ekanligi hozirda sir bo‘lmay qoldi. Jahonda informatsion urush ketayotganini hatto oddiy insonlar ham sezishlari mumkin. Misol uchun biron mamlakat hududida ma’lum turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi risolalar, san’at asarlari, kinofilmlar, axborotlar va hokazolar tarqatilmoqda. Bunday informatsiyalar jamiyatda ma’lum ijtimoiy fikrning shakllanishiga ta’sir etmay qolmaydi. Shu munosabat bilan birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning yoshlarni ochiq axborot olish davrida hukm suradigan umumbashariy axloqiy inqirozdan asrash muammosiga alohida e’tibor qaratgani diqqatga sazovor: “Keyingi yillarda ko‘plab namoyish etilayotgan jangarilik filmlarini olaylik, - deydi u. - Bu filmlarni ko‘pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko‘radi, chunki odamzot tabiatan mana shunday to‘polonlarni tomosha qilishga moyil... Afsus bilan ta’kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko‘ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya’ni xatti-harakatlarini qo‘zg‘atib yuborish osonroq. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko‘pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o‘rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag‘irlik, zo‘ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o‘zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki ular bunday uydirma talqinlar ta’sirida qo‘l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydi.”[1]

Xulosa

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda axborot xurujlarini bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashishning asosiy yo‘llari sifatida jamiyatdagi quyidagi omillarni ko‘rsatish mumkin:

- kuchli siyosiy boshqaruv va nazorat tizimining mavjudligi (siyosiy omil);
- fuqarolar huquqlarining kafolati (huquqiy omil);
- barqaror va farovon turmush (ijtimoiy-iqtisodiy omil);
- ma’naviy yetuklikni ta’minlovchi ijtimoiy institutlarning shakllantirilishi (ma’naviy omil).

Umuman olganda, axborot xurujlari istalgan jamiyatda kuzatilishi mumkin, ammo jamiyat hayotining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy sohalarida biror salbiy jarayonlar mavjud bo‘lganida ular o‘ta faollashadi, o‘z ta’sir doirasini kengaytiradi, ularning ta’sir darajasi ortadi. Shuning uchun ushbu muammoni keng ko‘lamli sotsiologik tadqiqotlar asosida o‘rganish orqali kerakli bo‘lgan vaziyatni yaxshilovchi hamda mo‘tadillashtiruvchi yechimlarni aniqlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-jild, - Toshkent: O‘zbekiston, 2001. - B. 74-75.
2. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: состояние и возможности психологической защиты/М.: Изд-во РАГС, 1998 - С. 25.
3. Технологии информационного воздействия в социальных системах. Статья. www.evartist.narod.ru/text 24/0028.
4. http://ru.wikipedia.org/wiki
5.http://www.fvn2009.narod.ru/Manuscripts/information /information1.htm

UDK: 364.3(575.1)

TOJ MAHAL BUNYOD ETILISHINING TARIXIY, IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ajdodlarimizning ko'p asrlik bunyodkorlik tarixiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan ma'rifatparvar ayol Mumtozbegim tuyg'ulari, tafakkuri va ijod falsafasi bilan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti va jamiyat rivojida tutgan o'rni to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Toj Mahal, dunyoning sakkizinchi mo'jizasi" Saroyning ko'rki", "Mumtoz Mahal", falak Zuhrosi, jasorat sohibasi, sadoqat, ibo-hayo, vafodorlik timsoli, sof ishq va qalb xotirasi, nafosat egasi, xayr-saxovat, ma'naviy libos.*

Аннотация: *В этой статье просвещенная женщина Мумтазбегим, внесшая большой вклад в многовековую творческую историю наших предков, о той роли, которую она сыграла в общественно-политической жизни страны и развитии общества своими мужественными чувствами, мышления и творческой философии.*

Ключевые слова: *Тадж-Махал, восьмое чудо света, вид дворца, Мумтаз-Махал, небесная Венера, обладатель мужества, верность, молитва, символ верности, чистая любовь и память сердца, обладатель утонченности, прощай - щедрость, одухотворенное платье.*

Annotation: *In this article, about the role of enlightened women Mumtazbegim, who made a great contribution to the centuries-old creative history of our ancestors, in the socio-political life of the country and the development of society with her feelings of courage, thinking, and creative philosophy. considered.*

Key words: *Taj Mahal, the eighth wonder of the world, the sight of the palace, Mumtaz Mahal, the Venus of the sky, the owner of courage, loyalty, prayer, the symbol of loyalty, pure love and memory of the heart, the owner of sophistication, goodbye - generosity, spiritual dress.*

Shoiraxon ISHANCHAYEVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi

Ajdodlarimizning ko‘p asrlik bunyodkorlik tarixiga ulkan hissa qo‘shgan ma’rifatparvar ayol Mumtozbegim o‘zining mardlik tuyg‘ulari, tafakkuri va ijod falsafasi bilan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti va jamiyat rivojida doimo alohida mavqega ega bo‘lganini ko‘ramiz. Ayollari pok, dono va oqila millatni aslo o‘zligidan judo qilib bo‘lmaydi. Millatni ayol tarbiyalaydi va kamolotga yetaklaydi. Mana shunday buyuk jasorat sohibalaridan Arjumand bonu (Mumtoz Mahal begim)dir. Hindistonning mashhur davlat arbobi Javoharla’l Neru “Dunyoning o‘tmishini, erkaklar bilan birga buyuk ayollar amalga oshirgan ulug‘ ishlar to‘g‘risida fikrlash maroqlidir” - deb, bekorga aytmaganlar.

Dunyo yaralibdiki, xalqimiz Ona timsolini, Ayol zotini Yaratganning ulug‘ mo‘jizasi, tengsiz ne’mati deb biladi, uni har doim asrab-avaylab yashaydi. Bizning yurtimizda buyuk podsholarga ulug‘vor saltanatini boshqarishda maslakdosh bo‘lib, yelkama-yelka turib idora etgani, o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini timsoli sifatida qad ko‘targan tabarruk “Bibixonim”, “Qizbibi”, “Modarixon”, “Qirqqiz” majmuasi kabi me’moriy yodgorliklar ana shu e’tibordan dalolat beradi.

Bundan tashqari tarix guvohki, podsholar shahzodalar tarbiyasini iymon-insofli, dono ayollarga topshirganlar. Farzandlar ularning pand-nasihatlari va saboqlaridan ibrat olib komil bo‘lib ulg‘aygan. O‘zbeklarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining bosh mezoni sifatida ayol millat ma’naviyati ko‘zgusi bo‘lgan. Bizgacha To‘maris sabr-matonatni, Saroymulkxonim aql-zakovatni, Nodirabegim va Zulfiyaxonim sadoqat va oilaparvarlikni meros qoldirgan o‘zbek ayollarining salohiyati bizning qanday millat vakilasi ekanligimizni har qadamda namoyon qilmoqda.

“Ayni paytda biz insoniyat taraqqiyotiga unutilmas va beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug‘vor ishlarga ruhlantirib, kamarbasta bo‘lgan fozila ayollarimiz bilan albatta faxrlanamiz.

Ibratli ayol, sadoqatli umr yo‘ldosh, aql-u farosatda va ma’rifatda benazir bo‘lgan, o‘zining falsafiy qarashlari bilan mamlakat siyosiy hayotida ustun bo‘lgan ma’rifatparvar Arjumandbonudir.

Ayol - bu borliq timsoli emas, borliqning o‘zidir! Ayol fitratan bir tomondan nazokat timsoli bo‘lsa, ikkinchi tomondan jamiyatga eng ta’sirli qudratdir. Ayol erkaklarning ma’naviy libosidir. Oiladagi muhit, farzandlar tarbiyasi va erkak kishining matonati oiladagi ayolning olib borayotgan siyosatiga bog‘liq. Tarixda To‘maris, Bibixonim va Mumtoz Mahal begim kabi buyuk ayol siymolari borki, ularning biri buyuk davlat hukmdori va qo‘mondon bo‘lsa, boshqasi Temurni Temur qilgan Saroy mulkxonimdir, yana biri muhabbat va sadoqat, ibo-hayo, vafodorlik timsoli bo‘lgan.

Asli ismi onasidan tug‘ilganda Xurram bo‘lgan boburiy taxt vorisi nafaqat Hindiston, balki butun xalqlarning ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ta’sir etgan hukmronlardan biri sanaladi. Aynan u sultonlik qilgan davrlarda butun hind zaminida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rivojlanib, turli madaniy va tarixiy inshootlar qurildi, xususan, muhtasham qasrlar, qal’alar, saroylar, bog‘lar va istehkomlar hozirgi kunga qadar o‘z ziyosini taratib kelmoqda. Dunyoning sakkizinchi mo‘jizasi deya ta’riflangan Toj Mahal qasri mana shu ma’naviy olamning qudratli ko‘rinishidir.

Xurramshoh 1612-yilda boburiy avlodlarining vakilasi Nurjahonning jiyani Arjumand Bonuga uylanadi. Nurjahon o‘z davrida taniqli shoira bo‘lib, saroyda o‘z o‘rniga ega obro‘li inson edi. Bu oilaga kuyov bo‘lish Xurram uchun saltanat osmonida quyoshdek porlab turishida katta imkon berar edi. Hurram 1628-yilda bobomeros taxtga o‘tiradi, sohibqiron Amir Temur vasiyati bo‘yicha adolat tarozusi ila mamlakatni idora qila boshladi. Odatda yosh shahzodalar taxtga o‘tirganda ularni yangicha nom bilan chaqirish Sharq mamlakatlarida urfga aylangan. Bu safar ham shunday bo‘lib – Xurram “Shoh Jahon” degan nom bilan atala boshlandi. Suyukli rafiqasi Arjumand Bonu esa – Mumtoz Mahal “Saroyning ko‘rki” degan nomga sazovor bo‘ladi. Chunki, malika husn-u jamolda tengsiz edi. Xullas, ham husnda, tavajjuhda, aql-u farosatda va ma’rifatda benazir bo‘lgan Arjumand Bonu va Xurram chinakam ilohiy ishq sohiblari edilar. Ular o‘n to‘rt farzandni dunyoga keltiradilar. Oxirgi farzandni kutar chog‘ida to‘lg‘oq azobi og‘ir kechadi, sohibjamol dunyodan ko‘z yumishiga sabab bo‘ladi. Arjumand Bonu bu

vaqtda-da ayni bahor gullari kabi ochilgan, o‘ttiz sakkiz bahorni qarshilagan ayol edi. Shoh Jahon Olloh bergan muhabbatining egasi bo‘lgan Arjumand Bonuga bo‘lgan samimiy hurmat ila, jon berar chog‘ida nima tilaging bor, deb so‘raydi. Malika ikki tilak aytadi, biri uning muhabbatini omonat saqlab boshqaga uylanmaslik, ikkinchisi uning sof ishq va qalb xotirasi uchun dunyoda tengsiz bo‘lgan qasr barpo etishni so‘raydi. Shoh Jahon har ikki vasiyatni ham mardlarcha ado qiladi – boshqa hech uylanmaydi va Toj Mahal qasrini tiklaydi. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy. Nega qasr aynan “Toj Mahal” deya atalgan? Yuqorida Arjumand Bonuni “Mumtoz Mahal” deyishlarini keltirib o‘tgan edik. Lug‘aviy ma’noda bu “saroyning mumtoz vakili”ni anglatadi yoki Mumtoz Mahalning boshidagi tojidir. Toj Mahal deganda, avvalo yodgorlik ko‘z o‘ngimizda gavdalansa, yana, mangu uyquga ketgan 38 yoshlik chin qalb timsoli malika siymosi gavdalanadi.

Toj Mahalni 20 yil mobaynida 22 mingdan ortiq usta bunyod etadi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Toj Mahal qasri uchun Hindistonning o‘zidan juda kam narsa ishlatilgan ekan. Unga ko‘ra, qurilish ashyolari turli mamlakatlardan: sarg‘ish marmar O‘rta Hindistondan, oq marmar Rajastxaning Markana degan joyidan, billur Xitoydan, yoqut-la’l Badaxshondan, lojuvard Shri-Lankadan, yashil toshlar Panjobdan, aqiq Erondan, marjon va durlar Hind ummonidan va boshqalardan keltirilgan.

O’z vaqtida, hatto Shoh Jahonning o‘zi ham Toj Mahal go‘zalligiga tan berib: “Yer yuzidagi odam bolasi buni bunyod etishga qodir emas, buning shakli-shamoyili osmondan tushirilgandir”, deydi. Ingliz arbobi Edvard Lir esa ahli dunyo odamlarini ikkiga bo‘ladi: “birinchi Toj Mahalni qurganlar, ikkinchisi qurmaganlar”.

Xo‘sh, bu muhabbat ramzining qurilish bosh me’mori kim? Bu borada tarixchi olimlar tomonidan tasdiqlanmagan ma’lumotda, asli Samarqandda tug‘ilgan, keyin Turkiyada yashagan usta me’mor Ibrohim Is’hoq ushbu qasrning bosh me’mori deyiladi. Inshootning Samarqand uslubida barpo etilishi ham shu sababdan bo‘lsa ne ajab!

Shoh Jahon o‘z hukmronligi davomida Hindistonning yaxlitligini mustahkamlash uchun ko‘p harakatlar qildi, janubiy muzofotlarni o‘z saltanatiga qo‘shib, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy qudratini oshirdi. 1648-yilda poytaxtni Agradan Dehliga ko‘chirib, Shohjahonobod degan yangi shahar barpo etdi. Shoh Jahon va Mumtoz Mahal begim haqida qimmatli ma’lumotlar o‘sha davrning ikki muallifi asarlarida ishonarli ifodalangan. Biri, Inoyatullo Kanbuning “Tarixi dilkusho” asari, ikkinchisi Shoh Jahonning Fransiyadan keltirilgan shaxsiy tabibi Fransua Bernyening “Boburiylarning so‘nggi avlodlari tarixi” esdalik kitobidir.

Buyuk davlat arbobi va yozuvchi Rabindranat Tagor har yili bir vaqtda Agraga kelib, tuni bilan Katta darvoza oldida o‘tirib, Toj Mahaldan zavqlanib tomosha qilar ekan. Chunki aynan o‘sha tunda oq marmar qasr taxtalariga sochilgan oy nuri Katta darvozada bir nuqtaga jam bo‘lib, qasr osmonga ko‘tarilib ketayotgan to‘lin oy kabi namoyon bo‘lar ekan. Bu atigi bir necha soat davom etib, so‘ngra yana holiga qaytar ekan. Shu voqeani ko‘rib u Toj Mahal haqida: “Muhabbat ko‘zlaridan tomgan bir qatra yosh bo‘lib, tushgan yerida qotib qolgan”, – deya ta’rif beradi. Falsafiy koshonaga falsafiy ta’rif!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amir Fayzulla. Shoh Jahon. Jahon adabiyoti, 2013 yil.
2. Shamsutdinov R., Is’hoqov A. Andijon tarixidan lavhalar. T:, Sharq, -2013-yil.
3. Ansoriddin Ibrohimov. Boburiylar merosi.
4. Fayziyev T. Temuriy malikalar,T., 1994.//Temuriylar shajarasi, T.,1995-y.
5. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn: II Jild. 2-3 qismlar: 1429-1470 yil voqyealari / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi A.O’rinboyev. Geografik nomlar izohli ko‘rsatkichi O.Bo‘riyev. Tarixiy shaxs, voqea va atamalarga izohlar muallifi G’.Karimov va E.Mirkomilov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
6. Василев Н. История Востока. 1-2 том. М., 2004 y.

ҚАДИМ ШАҲАРЛАРИ ГУЛЛАГАН БЎСТОН

Анвармирзо ҚУДРАТОВ,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат иқтисодиёт университети масъул ходими

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН

Туркий элнинг бирдир ноёб махзани,
Ҳайратлидир қорақалпоқ маскани,
Элликқалъа – ЮНЕСКОнинг гавҳари.
Қадим шаҳарлари гуллаган бўстон,
Тамаддун манзили Қорақалпоғистон.

Илм-у тафаккури азалдан пайдо,
Аждодлар аҳдидан сочилар зиё,
Уч минг йилдан садо берар «Авесто»,
Қадим шаҳарлари гуллаган бўстон,
Буюк ипак йўли – Қорақалпоғистон.

Тупроққалъа – достон, тарихи зарҳал,
Бердақдан ўқийсан бир инжа ғазал.
Сирга бой Ақчакўл кўллардан афзал,
Қадим шаҳарлари гуллаган бўстон,
Жайҳун шамол эсган Қорақалпоғистон.

Аёлга эҳтиром Қирққиз қалъаси,
Муҳаббат ёдгорин асрар даласи,
Мозийдан сўйлайдир саҳро дунёси,
Қадим шаҳарлари гуллаган бўстон,
Саҳроси садоли Қорақалпоғистон.

Ҳар ёнга таралар дўстлик куйлари,
Тўй, байрам, шодликка тўлиб уйлари,
От изин босади гижинг тойлари,
Қадим шаҳарлари гуллаган бўстон,
Дунёга юз тутган Қорақалпоғистон.

Қардошлар қўшиғи сочади жаранг,
Илдизи пайваста, куйи ҳамоҳанг,
Меҳмонларни лол этар Аёзқалъанг,
Қадим шаҳарлари гуллаган бўстон,
Дўстларга меҳрибон Қорақалпоғистон.

Шарафдир сўз айтмоқ менга шу палла,
Чанқовуз жўр бўлур айтилса ялла.
Ободдир қишлоқлар, обод маҳалла,
Қадим шаҳарлари гуллаган бўстон,
Азалдан меҳмондўст Қорақалпоғистон.



UDK: 9(575.1)

SHAYBONIY HUKMDORLARINING MOVAROUNNAHRDA SIYOSIY HOKIMIYATNI EGALLASHI

Annotatsiya: *Maqolada XV asrning so'nggi choragida temuriylar saltanatidagi inqirozdan foydalanib, XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonga Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar kirib kelishi va temuriy shahzodalar hukmronligiga barham berilib, bu ulkan hududda o'zlarining markazlashgan davlatiga asos solganlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, Muhammad Shayboniyxon va undan so'ng taxtga kelgan sulola vakillariga oid mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-u taxt uchun o'zaro kurashlar, Dashti Qipchoq, Movarounnahr, Xuroson, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayboniylar sulolasi, Abulxayrxon, Muhammad Shayboniyxon, o'zbek davlatchiligi, Ko'chkinchixon, Abu Said, Ubaydullaxon.*

Аннотация: *В статье показано, что воспользовавшись кризисом в Тимуридском государстве в последней четверти XV в., кочевые узбеки во главе с Мухаммедом Шейбани-ханом в начале XVI в. завоевали Мавераннахр и Хорасан и положили конец правлению тимуридских царевичей и основали на этой огромной территории собственное централизованное государство. Кроме того, представлены комментарии о Мухаммеде Шейбани-хане и представителях династии, вступивших на престол после него.*

Ключевые слова: *борьба за трон между тимуридскими царевичами, Дешт-и-Кипчак, Мавераннахр, Хорасан, Захираддин Мухаммад Бабур, династия шейбанидов, Абулхайр-хан, Мухаммед Шейбани-хан, узбекская государственность, Кучкунджи-хан, Абу Саид, Убайдулла-хан.*

Annotation: *The article shows that, taking advantage of the crisis in the Timurid state in the last quarter of the 15th century, nomadic Uzbeks led by Muhammad Sheibani Khan at the beginning of the 16th century. conquered Maverannahr and Khorasan and put an end to the rule of the Timurid princes and founded their own centralized state on this vast territory. In addition, comments are presented about Muhammad Sheibani Khan and the representatives of the dynasty who ascended the throne after him.*

Key words: *the struggle for the throne between the Timurid princes, Desht-i-Kipchak, Maverannahr, Khorasan, Zahir ad-din Muhammad Babur, the Sheibanid dynasty, Abulkhair Khan, Muhammad Sheibani Khan, Uzbek statehood, Kuchkunji Khan, Abu Said, Ubaydullah Khan I.*

Kozimbek TUXTABEKOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

XV asrning so‘nggi choragiga kelib temuriy shahzodalar o‘rtasidagi toj-u taxt uchun o‘zaro kurashlar natujasida bir vaqtlar Amir Temur tomonidan asos solingan markazlashgan davlatning parchalanishiga olib keldi. Bu paytda ko‘pgina mulk va viloyatlar, jumladan, Farg‘ona, Hisor, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm hududlari o‘zlarini mustaqil hisoblab, ko‘p hollarda bir-birlari bilan kurash olib borar edilar. Shuning uchun ham Movarounnahr-dagi Temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo‘linib ketgan edi [1]. Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbeklar bu vaziyatdan unimli foydalanib XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonni egallab, temuriy shahzodalar hukmronligiga barham berdilar va bu ulkan hududda o‘zlarining markazlashgan davlatiga asos soldilar. XIV asr mobaynida hokimiyatni o‘z qo‘llarida saqlab kelgan Shay-boniylar sulolasi hukmronligi o‘zbek davlatchiligi tarixida katta ahamiyatga ega bo‘lib, xuddi shu davrda o‘zbek xalqining etnik shakllanishidagi uchinchi davr boshlandi. Dashti Qipchoqlik o‘zbeklar Movarounnahr va Xurosondagi mahal-liy turkiy xalq – o‘zining azaliy qon-qondoshlari bilan qo‘shilib ketdi va ularga ham o‘zining nomini berdi [2].

Balxash ko‘li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan ulkan hudud XI asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb atala boshlandi. Qipchoqlar va boshqa turkiy qabilalar hukmronligi ostida bo‘lgan bu hududni 1236-yilda Botuxon o‘zining turk-mo‘g‘ul qo‘shinlari bilan egalladi va tarixga Oltin O‘rda nomi bilan kirgan davlatga asos soldi. XIV asr boshlarida ikki qismga bo‘linib ketgan Oltin O‘rda davlatining sharqiy qismida tashkil topgan davlat – Oq O‘rda tarixiy manbalarda “O‘zbeklar mamlakati” deb ham yuritilgan [3].

XV asr o‘rtalarida bu hududda Jo‘chixonning beshinchi o‘g‘li, Shaybon uru-g‘idan bo‘lgan Abulxayrxon (1412–1468) ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatiga asos soldi. Bu davrda Oltin O‘rda (Ko‘k O‘rda)da, Mo‘g‘ulistonda va temuriylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahrda o‘zaro feodal urushlar nihoyatda kuchayib ketdi. Bundan foydalangan Abulxayrxon Sirdaryoning o‘rta oqimidagi bir qancha shaharlarni, Xorazmning bir qismini bosib olib, temuriylar davlatining yon qo‘shnisi bo‘lib qoldi. 1468-yil Abulxayrxon vafotidan so‘ng inqirozga uchragan mazkur davlat, XV asrning 80-yillarida nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) tomonidan qayta tiklandi. Shayboniyxonning hokimiyat tepasiga kelishida Movarounnahr amirlaridan olingan yordam ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Hozirgi Qozog‘istonning katta qismi, janubi-g‘arbiy Sibir va Xorazmning janubi-g‘arbiy qismini o‘z ichiga olgan bu davlat bilan temuriylar davlati o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy va siyosiy aloqalar o‘rnatilgan edi. Tarixiy manbalarda toj-u taxt uchun o‘zaro ku-rashda Temuriy shahzodalarning ko‘pchiligi ko‘chmanchi o‘zbeklardan moddiy va harbiy yordam olib turgani qayd etilgan [4].

Aslini olganda bitta xalqqa mansub bo‘lgan har ikki davlatning hukmron tabaqalari bir-birlari bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalardan manfaatdor bo‘lib, uni quda- andachilik rishtalari asosida mustahkamlashga intilganlar. Xususan, ko‘pgina temuriy shahzodalar Dashti Qipchoqdan kelin olgan bo‘lsalar, ba’zi temuriy malikalar u yerga kelin bo‘lib tushganlar. Jumladan, Abulxayrxon Mirzo Ulug‘bekning qizi Robiya sultonga uylangan. XV asrning 20-yillarida Oq O‘rdada nizolar kuchaygan davrda ham har ikki o‘rtada savdo-sotiq aloqalari davom etgan. O‘rta Osiyolik savdogarlar Dashti Qipchoqqa borib savdo-sotiq qilib o‘z yurtlariga qaytishgan [5]. XV asrning 80-yillarida Shayboniyxon va qozoq xonlari (Burunduqxon, Qosim sulton va boshqalar) o‘rtasida O‘zbek ulusida siyosiy hokimiyat uchun kuchli kurashlar bo‘lib turishiga qaramay, samarqandlik va buxorolik savdogarlarning karvonlari Dashti Qipchoqqa uzluksiz qatnab turgan [6].

Shayboniylar davlatining asoschisi Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon (1451–1510) yetuk davlat arbobi, iste’dodli shoir va zamonasining o‘qimishli, bilimdon kishilaridan biri edi. U ulkan davlat barpo etgan sohibqironlarning oxirgisi bo‘ldi [7]. Shayboniyxon hokimiyatga kelishidan avval, Buxoroda bir necha muddat yashadi va bu yerdagi madrasada ta’lim oladi, diniy va dunyoviy ilmlarni o‘rganadi. Mashhur ilohiyot olimi Muhammad Xitoiy uning ustozi bo‘lganligi, mashhur shayx va olim – xoja Muhammad Porsoning izdoshlaridan

Hofiz Husayn Busiriy va uning xalifasi xoja Mahmud hamda Buxoroyi sharifning boshqa ko‘pgina ulamo-yu shuarolari ham Shayboniyxon bilan yaqin munosabatda bo‘lganlar [8].

Ko‘chmanchi o‘zbeklar xoni sifatida hokimiyatni qo‘lga olgan Shayboniyxon tez orada tajribali davlat rahbari va harbiy sarkarda ekanligini namoyish qildi. XV asrning 90-yillaridayoq Movarounnahrning markaziy viloyatlariga – o‘zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan temuriylar davlati hududlariga hujumlar uyushtira boshladi. Qayd etib o‘tilganidek bu davrda Movarounnahrdagi temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo‘linib ketgan edi. Ayniqsa, 1494-yilda Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzo vafotidan so‘ng temuriy shahzodalarning o‘zaro nizolari yanada kuchayib, mamlakatda parokandalik va boshboshdoqlik, ko‘p hokimiyatchilik avj oldi. O‘zi uchun qulay bo‘lgan bu vaziyatdan Shayboniyxon foydalanib 1497-yilda Movarounnahrga dastlabki hujumini amalga oshiradi. U katta kuch bilan Samarqandga yurish qildi, lekin shaharni egallashni uddalay olmay, Qarshi va Shahrisabzga hujum qilib, katta o‘lja bilan ortga qaytdi [9].

Samarqand taxti uchun Temuriy shahzodalar, Boysunqur Mirzo va Sulton Alilar o‘rtasidagi bo‘lgan urushlar sababidan Andijon hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur 1497-yilda temuriylar poytaxti Samarqand shahrini egallaydi. Ammo, Bobur qisqa vaqt (100 kun) hukmronlikdan so‘ng yana Andijonga qaytib ketishga majbur bo‘ldi. Samarqand taxtiga temuriy shahzoda, Qarshi hokimi Sulton Ali o‘tkazildi. Temuriylarning bu nizolarini diqqat bilan kuzatib borgan Shayboniyxon 1499-yilda katta kuch bilan yana Samarqandni qamal qiladi. Buxoro hokimi Boqi Tarxonning o‘n ming kishilik qo‘shin bilan samarqandliklarga yordamga kelayotganligidan xabar topgan Shayboniyxon qamalni to‘xtatib buxoroliklarga qarshi chiqadi [10]. Samarqand va Buxoro oralig‘ida joylashgan Dobusiya qal’asini mudofaa qilib turgan Boqi Tarxon qo‘shinlari bilan bo‘lgan qisqa jangdan so‘ng, Shayboniyxon qo‘shini himoyasiz qolgan Buxoroga yurish qilib, shaharni jangsiz egallaydilar. Boqi Tarxon Samarqand va Buxoroliklarning birlashgan qo‘-shiniga bosh bo‘lib Buxoroga qaytadi. Biroq, Shayboniyxonning ukasi Sulton Mahmud boshchiligidagi saralangan o‘zbek qo‘shinlari bilan Buxoro ostonasida bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchrab, Qarshi shahriga chekinadi [11].

Temuriy hukmdorlar uchun jiddiy xavf paydo bo‘lganligini anglagan Bobur Mirzo 1500-yilda o‘z qo‘shini bilan yana bir bora Samarqandga yurish qiladi, ammo Shayboniyxon undan oldinroq harakat qilib Samarqandni qamal qildi. Shahar hokimi Sulton Ali o‘zining ba’zi amaldorlari tomonidan taxtni Bobur Mirzoga topshirish uchun yashirin harakatlar olib borayotganligidan xabar topib, Shayboniyxon bilan muzokaralar olib boradi. Ular orasidagi kelishuvga binoan Shayboniyxon Sulton Alining onasiga uylanadi va Samarqand shahrini ham jangsiz qo‘lga kiritadi. Tez orada Qarshi va Xuzor (G‘uzor) shaharlari ham shayboniylar tomonidan egallandi [12].

Movarounnahrning ikki yirik shaharlari – Buxoro va Samarqandning jangsiz Shayboniyxon tomonidan egallanishi, uning nafaqat tajribali sarkarda, balki yetuk davlat arbobi va aqlli siyosatchi ham ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shayboniyxonning bu xislatlari “Musaxxir al-bilod” asarida batafsil tasvirlangan [13]. Shayboniyxon 1501-yilda asosiy qo‘shini bilan Toshkent hokimi Mahmudxon va Farg‘ona hokimi Ahmadxonlarga qarshi yurish qilib Toshkent viloyatidagi Shohruxiyani va boshqa qal’alarni egalladi.

Xuddi shu paytda Bobur Mirzo Samarqanddagi o‘ziga xayrixoh kishilar yordamida shaharni ikkinchi marta qo‘lga kiritishga erishdi. Qarshi va G‘uzorda ham shayboniylarga qarshi g‘alayon ko‘tarildi. Movarounnahrda Shayboniylar uchun tahlikali vaziyat yuzaga keldi. O‘zining Movarounnahrdagi asosiy raqibi Bobur Mirzo ekanligini anglagan Shayboniyxon katta kuch bilan Samarqandga qaytadi va shahar yaqinidagi jangda Bobur Mirzo qo‘shinlariga qattiq zarba beradi[14]. Shaharga qaytib, mudofaaga o‘tishga majbur bo‘lgan Bobur Mirzo boshqa temuriy hukmdorlardan yordam ololmaganidan so‘ng, uzoq qamalga bardosh berolmay, Shayboniyxon bilan kelishuvga ko‘ra Samarqandni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi [15]. Zarafshon va Qashqadaryo vohalari yana Shayboniyxon qo‘liga o‘tadi.

Shayboniyxon bu g‘alabadan so‘ng Movarounnahr va Xurosonning turli viloyatlarini qo‘lga

kiritish uchun bir necha yo‘nalishda janglar olib bordi. Bu vazifani bajarishda tajribali sarkardalar Sulton Mahmud Bahodir, Ubaydulla Sulton, Hamza Sulton, Ko‘chkunchixon, Suyunchxo‘jaxonlar katta rol o‘ynadilar. 1501-1502-yillarda Sulton Mahmud boshchiligidagi qo‘shinlar Dizzaq (Jizzax), O‘ratepa, Shosh, Shohruxiya, Sayram kabi shahar va qal’alarni egallaydi.

Shayboniyxon 1503-yilning oxirida Sulton Mahmud boshchiligida qo‘shinlarini Xorazmni egallash uchun yuboradi. Bu birinchi harbiy yurish davomida Xorazmning bir qismi, xususan, Kat qal’asi egallandi. Lekin Shayboniyxon Hisor viloyatiga yurish qilish uchun barcha kuchlarini yig‘ayotganligi sababli, Sulton Mahmud katta o‘lja bilan Buxoroga qaytdi. Xorazmni butunlay egallash uchun Shayboniyxon 1504-yilda ikkinchi marta harbiy yurish qildi. 1505-yilning yozida Urganch shahri egallangach Xorazm to‘la bosib olindi [16].

Shayboniyxon 1504-yilda Hisor viloyatini bosib oladi. Hisor hokimi Xusravshoh katta harbiy kuchga ega bo‘lsa-da, Shayboniyxonga jiddiy qarshilik ko‘rsata olmadi. Qunduz, Tolqon, Badaxshon va Balx ishg‘ol etildi. Bu harbiy yurishlarda qatnashgan lashkarboshi Sulton Mahmud 1505-yil Qunduzda kasallikdan vafot etadi. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib dafn etiladi [17]. 1504-yilda Balx shahrini qamal qilib turgan Shayboniyxon qozoq sultonlarining Movarounnahrga hujum qilganligini eshitib, orqaga qaytadi va Dashti Qipchoqqa yurish qiladi.

Qozoq sultonlari chekingan bo‘lsalar-da, 1506-yilda Shayboniyxonning Xurosondaligidan foydanalib yana Movarounnahrni talon-taroj qiladi. Shayboniyxon ularni yana Dashti Qipchoqning ichkarisigacha quvib kiradi. Biroq, qozoq sultonlari hujumi 1508-yilda ham takrorlandi. Bu vaqtda Shayboniyxon Qandahor va Zamindovur viloyatlarini ishg‘ol qilib, Qobulda turgan Bobur bilan jangga kuch to‘playotgan edi. Qozoq sultonlari Ahmad va Jonish Sultonlar Buxoro va Samarqandni talab, katta o‘lja bilan qaytib ketdilar [18].

Shayboniyxon 1509-yilda Dashti Qipchoqqa yurish qiladi va Joniy Sultonning yurti Qora Abdalni egallaydi. Burunduqxon va Qosim sulton Dashti Qipchoqning ichkarisiga chekinadi, Shayboniyxon ularni butunlay tor-mor qila olmadi. Sig‘noq, Yassi, Savron shaharlari qayta qo‘lga kiritildi.

Movarounnahrning markazida mustahkam o‘rnashib olgan Shayboniyxon Xurosonni zabt etishga kirishdi. Sulton Husayn Boyqaro 1506-yilda vafot etgach, Hirot taxtiga ikki shahzoda Muzaffar va Badiuzzamon o‘tkazildi. Temuriy shahzodalarning kelishib harakat qila olmaganligi va harbiy jihatdan uquvsizligidan foydalangan Shayboniyxon Balx shahrini egalladi. 1507-yilda Hirot shahri ham qo‘lga olinganidan keyin butun Xuroson Shayboniylar davlatiga qo‘shib olindi [19].

Movarounnahr va Xuroson egallangandan so‘ng Shayboniyxon 1509-yilning aprel oyida Qarshidan Eronga qarab yo‘lga tushadi. Biroq, yo‘lda o‘zbek sultonlarini o‘z uluslariga qaytarib yuboradi. 1510-yilda Erondan Marv, Mashhad, Tus shaharlarini egallab qaytayotgan Shayboniyxon orqadan kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shinlari bilan Marv yaqinida bo‘lgan jangda halok bo‘ldi [20].

Taxtga Shayboniyxonning amakisi Ko‘chkinchixon (1510–1529) ko‘tarildi. O‘zbek sultonlari orasida boshlangan kelishmovchiliklar tufayli shayboniylar mag‘lubiyatga uchray boshladi. Xuroson va Xorazm qo‘ldan boy berildi. Bobur 1511-yilda Eron qo‘shinlari yordamida Samarqandni bosib oldi. Eronliklar 1512-yilda Qarshi shahrini qo‘lga kiritdilar. Hal qiluvchi jang G‘ijduvon yaqinida bo‘lib o‘tdi. 1512-yilning noyabr oyida Buxoroga yurish qilgan Bobur va eronliklarning birlashgan qo‘shinini Ubaydulla Sulton tor-mor qildi. Bobur Mirzo Movarounnahr taxtidan umidini uzib, yana Qobulga qaytib ketdi. Shayboniylar Samarqand taxtini qo‘lga kiritdilar va Ko‘chkunchixon hukmronligi qayta tiklandi [21]. Ko‘chkunchixon so‘ng hokimiyatga kelgan Abu Said (1530–1533)ning qisqa hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar o‘rtasidagi nizolar yanada kuchaydi. Bu paytda Xorazm mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqdi va Movarounnahr yerlari parchalana boshladi.

Ubaydullaxon I (1533–1540) hokimiyatga kelishi bilan davlat boshqaruvining markazlashuvi kuchaydi. Uning davrida Eron tazyiqiga barham berilib, davlat hududlari kengaytirildi. Poytaxti Samarqand bo‘lgan Shayboniylar davlati 1533-yil

Ubaydullaxon I davrida Buxoroga ko‘chiriladi [22]. Aynan shu davrdan boshlab bu davlat Buxoro xonligi deb ham atala boshladi.

Shayboniylar davrida tashkil topgan Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ijobiy siljishlar yuz berdi. So‘nggi temuriy hukmdorlar davrida kichik-kichik mustaqil boshqariladigan viloyatlarga bo‘linib ketgan Movarounnahr yana yagona davlatga birlashtirildi. Ilm-fanda, madaniyatda temuriylar davri an’analari davom ettirildi va yanada boyitildi. Shaharsozlik, me’morchilik, hunarmandchilikda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi, tashqi va ichki savdo yuksak rivojlandi. Bularning barchasi Shayboniylar hukmronligi o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega davlatlardan biri ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. II китоб (XIV аср ўрталаридан – XIX аср иккинчи ярмигача). – Т.:, 2020. 136-бет.
2. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент, Шарқ, 2001. 25-бет.
3. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1994. 77-бет.
4. Аҳмедов Б.А. Ўзбек улуси. – Тошкент, Мерос, 1992. 15-бет.
5. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ус-садайн ва мажмуаъ ул-бахрайн. – Тошкент, Фан, 1969. 43-бет.
6. Ғуломов Х.Ғ. Ўрта Осиё ва Россия. – Т.: 2007. 8-9-бетлар.
7. Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Иккинчи жилд. – Тошкент, 2019. 69-бет
8. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 35-бет.
9. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. 137-138 бетлар.
10. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989. 56-71-бетлар.
11. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. Ўша асар. 77-82-бетлар.
12. Бобур. Бобурнома. Ўша нашр, 71-73 бетлар.
13. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. Ўша асар. 119-бет.
14. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома (Шарифномайи шоҳий). 1-китоб. – Т.: Шарқ, 1999. 56-57-бетлар.
15. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. 305-308-бетлар.
16. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: 2001. 310-330-бетлар.
17. Товорихи гузидан нусратнома. – Т.: Фан, 1967. 27-бет.
18. Фазлуллоҳ ибн Рўзбеҳон Исфаҳоний. Меҳмонномайи Бухоро. – М.: 1976. 16-бет.
19. Муҳаммад Ҳайдар мирза. Ўша асар. 313-бет.
20. Восифий, Зайниддин Маҳмуд. Бадоеъ ул-воқоеъ. – Т.: 1979. 30-бет.
21. Ҳасанхожа Нисорий. Музокиири аҳбоб. – Т.: 1993. 23-бет.
22. Zamonov A.Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent, Bayoz. 2021. 96-bet.

UDK: 94(575.171)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA QATAG‘ONLIK SIYOSATI

Sherali ALLABERGANOV,
Urganch davlat universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i, PhD, dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyatida sovet hokimiyatining qatag‘onlik siyosati tahlil qilingan. Maqolada qatag‘on qilingan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *katta terror, qatag‘on, partiya, dehqon, millat, qamoqxona, urush, mafkura, kolxoz.*

Аннотация: *В данной статье анализируется репрессивная политика советских властей в Хорезмской области в годы Второй мировой войны. В статье содержится информация о репрессированных.*

Ключевые слова: *большой террор, репрессия, партия, крестьянин, нация, тюрьма, война, идеология, колхоз.*

Annotation: *This article analyzes the repressive policy of the Soviet authorities in the Khorezm region during the Second World War. The article contains information about the repressed persons.*

Key words: *Great terror, repressions, party, peasant, nation, prison, war, ideology, collective farm.*

Hozirgi davrda dunyo olimlari va siyosatshunoslari tomonidan 1937-38-yillardagi qatag‘on siyosatiga nisbatan “Katta terror” atamasi qo‘llaniladi. Ya’ni, 1937-yil 30-iyulda NKVD xalq komissari N.Yejovning “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa aksilsovet unsurlarni repressiya qilish bo‘yicha operatsiya to‘g‘risida”gi 00447-sonli mutlaqo maxfiy operativ buyrug‘i jamiyatda “xalq dushman”larini izlash va ularni jazolash uchun asos bo‘ldi. Unga ko‘ra, 1937-yil 5-avgustidan boshlab barcha respublikalar, o‘lkalar va viloyatlarda sobiq quloqlar, faol aksilsovet unsurlar va jinoyatchilarni qatag‘on qilish operatsiyasi o‘tkazilishi boshlab yuborildi. “Temir narkom” nomini olgan Nikolay Yejov tomonidan chiqarilgan 00447-sonli mutlaqo maxfiy operativ buyruqqa muvofiq, 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha bo‘lgan vaqtda O‘zbekiston bo‘yicha jami 10700 kishi qamoqqa olinib, ulardan 3613 kishi 1-toifa bo‘yicha otuvga, 7087 kishi 2-toifa bo‘yicha 8–10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Bu qatag‘on qilinganlarning o‘zlarigagina emas, yaqin qarindoshlariga “xalq dushmani”ning o‘g‘li, qizi, ahli ayoli, akasi, ukasi, qarindoshi, do‘sti, gumashtasi, dumi kabi tamg‘alar qo‘yilgan holda, har

jihatdan kamsitilgan va huquqlari toptalgan, ma'naviy xo'rlangan.

Natijada, ichki ishlar xalq komissarligining operativ ishlashi va jazolashni tezkorlik bilan olib borishi sabab, "1937–1939-yillarda O'zbekistonda 41 ming nafardan ko'proq kishi qamaldi. Ularning 37 ming nafardan ko'prog'i sudlandi, 6 ming 920 kishi otib tashlandi. Qatag'on qilinganlar orasida partiya, sovet, xo'jalik xodimlari, harbiylar, ziyolilar va kolxozchilar juda ko'p edi".

Bu jarayon ikkinchi jahon urushi davrida ham to'xtamadi. Tabiiyki, mamalakat, O'zSSR bo'yicha olib borilayotgan qatag'onlik siyosati xorazmliklarni ham chetlab o'tmadi. Hattoki, ikkinchi jahon urushi davrida ham turli to'qima ayblar bilan qamalgan va otuvga hukm qilingan xorazmliklar qaytadan qatag'on qilindi. Achinarlisi, ularning aksariyati, oldingi quloqlashtirish va "Katta terror" davrida ham ayblanib, turli muddatlarga qamalgan holda, muddatni o'tab o'z yurtlariga qaytib kelishgandi. Manbalarga ko'ra, quyidagi shaxslar ikkinchi jahon urushi davrida turlicha nohaq ayblar bilan jazoga tortilgan:

O'rozmetov Yaubasar, 1914-yil Yangi Urganchda tug'ilgan. Ma'lumoti – boshlang'ich.1942-yil 9-oktyabrda NKVD maxsus bo'limi tomonidan qamoqqa olingan. 1942-yil 9-oktyabrda 60-armiya Harbiy tribunali RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-1 b-moddasi bo'yicha 10 yil qamoq jazosiga hukm qilgan. Qozog'iston Respublikasi Bosh harbiy prokuraturasi 1999-yil 23-sentyabrda reablitatsiya qilgan; Jumaniyozov Pir, 1913-yil Xiva shahrida tug'ilgan. Ma'lumoti – boshlang'ich. 1942-yil 2-oktyabrda NKVD maxsus bo'limi tomonidan qamoqqa olingan. 1942-yil 4-noyabrda 61-armiya Harbiy tribunali RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-1b-moddasi bo'yicha oliy jazo – otuvga hukm qilgan. Qozog'iston Respublikasi Bosh harbiy prokuraturasi 1999-yil 27-oktyabrda reablitatsiya qilgan.

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin ham Shimoliy Qozog'istonda MTLda hukmni o'tayotganlar orasidan yana qaytadan turli to'qima ayblar bilan jazolanganlik holatlari davom etgan. Ular orasida Xorazmdan quyidagi shaxslar bor edi: Xudoynazarov Ro'zim, 1919-yilda Xorazmda tug'ilgan.1945-yil 20-dekabrda NKVD Oqto'ba oblasti boshqarmasi tomonidan qamoqqa olingan. Janubiy Ural harbiy okrugi Harbiy tribunali RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-1 b-moddasi bo'yicha 10 yil qamoq jazosiga hukm qilgan. Qozog'iston Respublikasi Bosh prokuraturasi 1998-yil 27-sentyabrda reablitatsiya qilgan; Abdullaev Otaboy, 1920-yil Xiva shahrida tug'ilgan. Ma'lumoti tugallanmagan oliy. 1947-yil 18-aprelda Turkiston harbiy okrugi tribunali RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-1b-moddasi bo'yicha 10 yil qamoq jazosiga hukm qilgan. Qozog'iston Respublikasi Bosh prokuraturasi 1995 - yil 2-fevralda reablitatsiya qilgan; Ro'zimetov Sobir, 1898-yil Xiva shahrida tug'ilgan. Qamoqqa olingunga qadar Qizil O'rda oblasti Kazalin rayoni Novo-Kazalin posyolkasida yashagan. 1950-yil Davlat xavfsizligi komiteti Qizil O'rda Boshqarmasi tomonidan qamoqqa olingan. Qizil O'rda oblast sudi 1950-yil 18-sentyabrda RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-14-moddasi bilan 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageri (MTL)ga hukm qilgan. 1996-yil 26-fevralda Qozog'iston Respublikasi Bosh prokuraturasi reablitatsiya qilgan.

Ana shu davrda yana qaytadan MTLga hukm qilinganlardan biri Rahmat Majidiy (1906-1983) edi. Majidiy Rahmat 1906-yil Xiva shahrida tug'ilgan. Xorazmdagi "Inqilob quyoshi", Samarqanddagi "Lenin yo'li" gazetalarining muharriri, 1934-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining birinchi raisi bo'lgan. R.Majidiy 1941-yil qamoqqa olingan va 1943-yil 17-iyulda O'zSSR JKning 66,67-moddalari bilan 8 yil MTLga hukm qilingandi. Tagil LAG va Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi MTLda 1949-yil 18-dekabrgacha muddatni o'tagan R.Majidiy ozod bo'lgach, Urganch rayoniga kelib, kolxozda tabelchi bo'lib ishlaydi. 1950-yil 2-iyunda u yana qamoqqa olinadi. 1950-yil 23-sentyabrda davlat xavfsizligi vazirligi qoshidagi yig'in uni Krasnoyarsk o'lkasiga ko'chirma qilishga qaror qiladi. Bu gal nafaqat jinoyatlarning isboti, hatto jazoning muddati ham ko'rsatilmagan edi. Shu tariqa, R.Majidiy Krasnoyarsk MTLda ikkinchi bora muddatsiz hukmni o'taydi va 1954-yil 22-martda Ittifoq Bosh prokuroriga o'zining nohaqdan qamoqqa olingani haqida ariza yozadi. Biroq, shunda ham uning arizasi ikki yillik sarsongarchilikdan keyingina ko'rib chiqilgan va 1956-yil

13-apreldagi O‘zSSR Oliy sudi R.Majidiyni oqlaydi.

1941-yilda quyida nomlari ko‘rsatilgan 35 nafar kishi turli xil ayblar bilan qamoqqa olinadi: Bekchonov Mamut, 1912-yil Mang‘itning Qorako‘l qishlog‘ida tug‘ilgan. 1941-yil 21-iyulda hibsga olinib, 1990-yil 21-sentyabrda oqlangan; Burlakov Aleksandr Ivanovich, 1913-yil tug‘ilgan. Tartibga soluvchi bo‘lib ishlagan. 1941-yil 16-avgustda hibsga olinib, 1991-yil 5-aprelda oqlangan; Bogomolov Aleksandr Fyodorovich, 1899-yil tug‘ilgan, millati rus. Xonqadagi MTSda ishchi bo‘lgan. 1941-yil 27-avgustda qamalgan, 1991-yil 25-fevralda oqlangan; Andmol-Mulkixina Yedorisinnaya Pokolovna, 1898-yil tug‘ilgan. Ishsiz. 1941-yil 21-oktyabrda hibsga olingan; Andryoxin Aleksandr Vladimirovich, 1896-yil tug‘ilgan. Hisobchi bo‘lib ishlagan. 1941-yil 3-oktyabr kuni qamoqqa olingan; Vlasova Anna, 1911-yil tug‘ilgan. Ishsiz bo‘lgan, 1941-yil 25-oktyabrda qamalib, 1991-yil 22-martda oqlangan; Grebenshikova Yekatmolmulkina Grigoryevna, 1907-yil tug‘ilgan. Millati rus, ishchi bo‘lgan. 1941-yil 20-oktyabrda qamalib, 1991-yilda oqlangan; Gusakovskiy Yevgeniy Nikolayevich, 1923-yil tug‘ilgan. Texnik buxgalter bo‘lib ishlagan. 1941-yil 20-oktyabrda qamalib, 1991-yil 22-martda oqlangan; Davutova Xadicha, 1902-yil tug‘ilgan. 1941-yil 22-iyulda hibsga olinib, 1990-yil 5-sentyabrda oqlangan; Dukin Ivan Giorgiyevich, 1912-yil tug‘ilgan, ishsiz bo‘lgan. 1941-yil 21-sentyabrda hibsga olinib, 1991-yilda oqlangan; Ishniyazov Rahmatulla, 58 yosh. Hazoraspning Ulli Qangli qishlog‘ida tug‘ilgan. Qizil askar kolxoz a’zosi bo‘lgan. 1941-yil 22-sentyabrda hibsga olinib, 1990-yil 18-fevralda oqlangan; Kislova Vera Ivanova, 1902-yil tug‘ilgan, millati osetin. 1941-yil 1-dekabrda hibsga olinib, 1991-yilda oqlangan; Kroll Ilza, 1914-yil tug‘ilgan, millati nemis. Ambulatoriyada ishlagan. 1941-yil 29-oktyabrda hibsga olinib, 1990-yil 16-noyabrda oqlangan; BURSKIN Ivan Yulmanovich, 1902-yil tug‘ilgan. Viloyat boshlig‘i bo‘lgan. 1941-yil 19-oktyabrda hibsga olinib, 1991-yilda oqlangan; Luxanskaya Olga Yusefovna, 1918-yil tug‘ilgan. 1941-yilda hibsga olinib, 1991-yil 15-martda oqlangan; Manapov Raxim Sattorivich, 1910-yil tug‘ilgan, millati tatar. Maktab o‘qituvchisi bo‘lgan. 1941-yil 12-noyabrda hibsga olinib, 1991-yil 4-aprelda oqlangan; Matvafoyev Egamberdi, 1921-yil Urganch tumani G‘oybu qishlog‘ida tug‘ilgan. “Stalin” kolxozi a’zosi. 1941-yil 9-oktyabr kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 5-aprel kuni oqlangan. Nalipov Matvey Stepanovich, 1905-yil tug‘ilgan. Duradgor bo‘lgan. 1941-yil 8-avgustda hibsga olingan, 1991-yil 5-aprelda oqlangan; Niyozmetov Bobojon, 1888-yilda tug‘ilgan. Ishsiz. 1941-yil 19-sentyabr kuni qamoqqa olingan. 1990-yil 17-aprel kuni oqlangan; Nikolayev Ivan Fyodorovich, 1896-yil tug‘ilgan. Texnik bo‘lib ishlagan. 1941-yil 21-avgustda hibsga olinib, 1991-yil 18-yanvarda oqlangan; Nikolayeva Yevdokiya Petrovna, 1912-yil tug‘ilgan. Millati rus. Telegraf ekspeditori bo‘lib ishlagan. 1941-yil 28-avgust kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 5-aprel kuni oqlangan; Otajonov Avaz, 1886-yil Xivada tug‘ilgan. Paxtakor bo‘lgan. 1941-yil 19-sentyabrda hibsga olinib, 1990-yil 17-aprelda oqlangan; Pavlov Ivan Stepanovich, 1906-yil tug‘ilgan. Kutubxonachi bo‘lib ishlagan. 1941-yil 21-oktyabrda hibsga olinib, 1991-yil 19-aprelda oqlangan; Plexanov Ivan Vasilyevich, 1899-yil tug‘ilgan. Elektr ustasi bo‘lgan. 1941-yil 20-dekabrda hibsga olinib, 1992-yilda oqlangan; Rajabov Yusup, 1909-yil tug‘ilgan. 1941-yil 21-iyulda hibsga olinib,1990-yil 21-sentyabrda oqlangan; Ro‘zmetov Abdulla, 1908-yil Hazorasp tumani Pichoqchi qishlog‘ida tug‘ilgan. “Ittifoq” kolxozi a’zosi. 1941-yil 13-noyabr kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 30-oktyabr kuni oqlangan; Salayev Iso, 1916-yil Yangiariqning Kalinin qishlog‘ida tug‘ilgan. Kalinin kolxozi brigadiri. 1941-yilda hibsga olinib,1989-yilda oqlangan; Sultonov Jumaniyoz, 1908-yil Ko‘shko‘pir tumanida tug‘ilgan. Stalin kolxozi a’zosi bo‘lgan. 1941-yil 13-avgustda hibsga olinib, 1991-yil 5-aprelda oqlangan; Surayeva Klavdiya Karlovna, 1916-yil tug‘ilgan. Kir yuvuvchi bo‘lib ishlagan. 1941-yil 30-dekabrda hibsga olinib, 1991-yil 5-aprelda oqlangan; Tufeld Ida Yaqubovna, 1907-yil tug‘ilgan, millati yevrey. Hamshira bo‘lib ishlagan. 1941-yil 14-yanvarda hibsga olinib, 1991-yil 15-fevralda oqlangan; Xodosyuk Ivan Timofeyevich, 1883-yil tug‘ilgan, uchuvchi. 1941-yilda hibsga olinib,

1990-yilda oqlangan; Xolodov Ivan Logvinovich, 1920-yil tug‘ilgan. 1941-yilda hibsga olinib, 1991-yil 5-aprelda oqlangan; Sharonov Mixail Alekseyevich, 1903-yil tug‘ilgan. Oshxonada ishlagan.1941-yil 21-oktyabrda hibsga olingan; Yusupova Ziyoda, 1910-yilda Yangiariqning Frunze qishlog‘ida tug‘ilgan. Kirov kolxozi a’zosi, 1941-yilda hibsga olinib,1991-yil 4-aprelda oqlangan.

1942-yilga kelib ham quyida nomlari ko‘rsatilgan 31 nafar kishi turli xil ayblar bilan qamoqqa olinadi: Aliyev Isxaq, 1890-yil tug‘ilgan. Ish joyi noma’lum. 1942-yilda hibsga olinib, 1990-yil 26-sentyabrda oqlangan; Boltayev Jumanazar, 1912-yil Xivaning Shix Mavlon qishlog‘ida tug‘ilgan, millati o‘zbek. 1942-yil 4-iyunda hibsga olingan, 1990-yil 11-noyabrda oqlangan; Basqaqov Qosimxon Yusupovich, 1910-yil tug‘ilgan, millati tatar. Buxgalter bo‘lib ishlagan. 1942-yil 8-avgustda hibsga olinib, 1990-yil 5-sentyabrda oqlangan; Ataniyozov Pyotr Petrovich, 1894-yil tug‘ilgan. Ish joyi noma’lum, millati ukrain. 1942-yil 20-oktyabrda hibsga olinib, 1991-yil 1-aprelda oqlangan; Berejanskaya Mariya Mixaylovna, 1892-yil tug‘ilgan, ishsiz bo‘lgan. 1942-yil 6-noyabrda hibsga olinib, 1991-yil 25-aprelda oqlangan; Vasilkov Mixail Ivanovich, 1911-yil tug‘ilgan. Qishloq raisi bo‘lgan. 1942-yil 30-aprelda qamalgan, 1991-yil 22-fevralda oqlangan; Vologen Leonid Yefimovich, 1920-yil tug‘ilgan, millati yevrey. Payvandlovchi usta. 1942-yil 26-noyabrda qamoqqa olingan. Deynixovich Sudik Shimon, 1884-yil tug‘ilgan. Soqchilik qilgan. 1942-yil 11-iyunda qamalgan, 1989-yilda oqlangan; Dorosevich Mariya Yaqubovna, 1904-yil tug‘ilgan, millati ukrain. Tikuvchi bo‘lgan. 1942-yilda qamalib, 1991-yil 18-martda oqlangan; Do‘schonov Jumanazar, 1919-yil Yangiariq tumani Stalin qishlog‘ida tug‘ilgan. Rais bo‘lib ishlagan. 1942-yil 5-may kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 25-aprel kuni oqlangan;Jumaniyozov Jumanazar, 1903-yil Hazoraspning Shixyop qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, Kommunist kolxozida ishlagan. 1942-yil 21-yanvarda qamalgan, 1991-yil 15-martda oqlangan; Ivanova Polina Sergeyevna, 189-yil tug‘ilgan. Oshpaz bo‘lib ishlagan. 1942-yil 9-aprelda hibsga olinib, 1991-yilda oqlangan; Ivanovskiy Tomas Yuzefovich, 1899-yil tug‘ilgan. Millati rus, tug‘ilgan mol-mulkida yashagan. 1942-yil 2-aprelda qamalgan, 1991-yil 7-martda oqlangan; Korneyev Pavel Ivanovich, 1904-yil tug‘ilgan, millati rus. MTSda ishchi bo‘lgan. 1942-yil 20-yanvarda hibsga olinib, 1990-yil 11-noyabrda oqlangan; Lebedev Vasiliy Petrovich, 1916-yil tug‘ilgan. Millati rus, bosh agronom bo‘lgan. 1942-yil 19-noyabrda qamalib, 1990-yil 19-oktyabrda oqlangan; Linnik Arxip Kuzmich, 1898-yil tug‘ilgan, millati ukrain. 1942-yil 29-noyabrda hibsga olinib, 1990-yil 19-noyabrda oqlangan; Morozenskaya Brita Atramovna, 1912-yili tug‘ilgan. Millati yahudiy. Ishsiz. 1942-yili 5-oktyabr kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 5-iyul kuni oqlangan; Murzina Nadejda Gavrilovna, 1924-yil tug‘ilgan, millati ukrain. Orjenikidze kolxozida kotiba bo‘lib ishlagan. 1942-yil 20-avgustda qamalgan, 1991-yil 21-fevralda oqlangan; Myulendorf Aleksandr Ernitail, millati rus, injener-quruvchi. 1942-yilda hibsga olinib, 1982-yilda oqlangan; Nachanov Fedor Makarovich, 1902-yil tug‘ilgan. Prorab bo‘lib ishlagan. 1942-yil 30-avgustda hibsga olinib, 1991-yil 5-aprelda oqlangan; Ozinbleyn Grigoriy Borisovich, 1916-yil tug‘ilgan. Yevrey. Iqtisodchi raymestor bo‘lib ishlagan. 1942-yil 26-yanvar kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 4-aprel kuni oqlangan; Otajonov Sapo, 1910-yil Ko‘shko‘pirning Asrband qishlog‘ida tug‘ilgan. Aravakash bo‘lib ishlagan. 1942-yil 15-oktyabrda hibsga olinib, 1991-yil 24-mayda oqlangan; Putes Aleksandr Ivanovich, 1901-yil tug‘ilgan. Millati ukrain. Chilangar bo‘lib ishlagan. 1942-yil 13-yanvarda hibsga olinib, 1991-yil 4-aprelda oqlangan; Sapayev Jumanazar, 1915-yil Yangiariqning Pravda qishlog‘ida tug‘ilgan. 1942-yil fevralda hibsga olinib, 1990-yil 21-sentyabrda oqlangan; Saparov Ismoil, 1903-yil Xivada tug‘ilgan. Punktda o‘rinbosar bo‘lib ishlagan. 1942-yilda hibsga olinib, 1991-yil 5-aprelda oqlangan; Solovkov Aleksandr Petrovich, 1902-yil tug‘ilgan, rassom bo‘lgan. 1942-yilda hibsga olinib, 1991-yil 18-martda oqlangan; Shermatov Abdulla, 1900-yil Yangiariq tumani Oxunboboyev qishlog‘ida tug‘ilgan. Kirov kolxozi a’zosi bo‘lgan. 1942-yil 3-iyul kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 22-mart kuni oqlangan; Shoyf Iosif Yakolevno, 1903-yil tug‘ilgan. Millati yevrey. Temirchilik bilan

shug‘ullangan. 1942-yil 18-avgust kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 1-aprel kuni oqlangan; Shomurodov Jumamurod, 1919-yil Mang‘it tumani Xo‘jaqal’a qishlog‘ida tug‘ilgan. 1942-yil 3-dekabr kuni qamoqqa olingan. 1991-yil 1-aprel kuni oqlangan; Eshchonov Yo‘ldosh, 1943-yil Shovotda tug‘ilgan. Millati o‘zbek, Qizil O‘zbekiston kolxozi a’zosi. 1942-yilda qamalib, 1991-yilda oqlangan; Yaqubov Polvon, 1902-yil Xivada tug‘ilgan. Oshxona boshlig‘i bo‘lgan. 1942-yil 22-iyunda hibsga olingan. 1991-yil 19-aprelda oqlangan.

1943-yilda quyida nomlari ko‘rsatilgan 3 nafar kishi turli xil ayblar bilan qamoqqa olinadi: Augarten Lelya Yuzefovna, 1902-yil tug‘ilgan. Kombinatda kir yuvuvchi bo‘lib ishlagan. 1943-yil 28-fevralda hibsga olinib, 1991-yil 1-aprelda oqlangan; Bolitskiy Roumold Ioximovich, 1895-yil tug‘ilgan, millati belorus. Duradgor, 1943-yil 8-iyunda qamoqqa olingan; Karelo Mixail Petrovich, 1887-yil tug‘ilgan, millati polyak. Hamshira bo‘lib ishlagan. 1943-yil 7-iyunda hibsga olinib, 1991-yil 12-iyunda oqlangan.

1944-yilda quyida nomi ko‘rsatilgan 1 nafar kishi turli xil ayblar bilan qamoqqa olinadi: Qalandarov Samandar, 1890-yil Hazoraspning Karvak qishlog‘ida tug‘ilgan. Kolxoz a’zosi, 1944-yilda hibsga olinib, 1990-yilda oqlangan.

20-asrdagi eng fojiali va mudhish davr bo‘lgan ikkinchi jahon urushi davrida ham qatag‘on siyosati davom etdirilib, jamiyatdagi shaxslardan “xalq dushmani” izlanishi, sovet mafkuraviy siyosatining naqadar noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Negaki, urush bo‘lib turgan vaziyatda oldin nohaq ayblar bilan qamalgan insonlarni qaytadan turli bahonalar bilan yana jazolash, jamiyatdan mafkuraviy ko‘rinishdagi “xalq dushman”larini izlash tarixning eng fojiali sahifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shamsuddinov R. Qatag‘on qurbonlari (1937-yil 10-avgust – 5-noyabr). Ikkinchi kitob. –B. 6, Sharq nashriyoti, Toshkent, 2007 -yil.
2. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 1991-yil 15-sentyabr.
3. Shamsutdinov R, Bekmuhammad U. Qatag‘on qurbonlari. Xotira. Xorazm viloyati. 2008-yil, “Yangi asr avlodi” nashriyoti.
4. N.Djurayeva. Sovet davri qatag‘onlik siyosatining xotin-qizlar taqdiriga salbiy ta’siri. O‘tmishga nazar. №10 (2022).
5. Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi. Xorazm viloyati. 1-kitob. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti.

UDK: 94(31/33):626.843(575.17)

QADIMGI XORAZM DAVLATI AHOLISI IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI VA DAVLAT SIVILIZATSIYASIDA SUN'IY SUG'ORISH TIZIMINING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: *Maqolada Qadimgi Xorazm davlati shaharlari va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti rivojlanishida sun'iy sug'orish tizimining ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar*: Tozabog'yob, "kair yerlari", "degish", sun'iy sug'orish tizimi, delta, Qadimgi Xorazm davlati, Burgutqal'a, Yakka Porson, Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, Dalvarzintepa, Baqtriya.*

Annotation: *The article analyzes the importance of the artificial irrigation system in the development of the socio-economic life of the cities and residents of the Ancient Khorezm state.*

Key words: *Tozabogyab, "Kair lands", "Degish", artificial irrigation system, delta, Ancient Khorezm state, Burgutkala, Yakka Porson, Bozorkala, Jonboskala, Tuprakkala, Dalvarzintepa, Bactria.*

Аннотация: *В статье анализируется значение системы искусственного орошения в развитии социально-экономической жизни городов и жителей Древнехорезмского государства.*

Ключевые слова: *Тозабогяб, «земли каир», «дегиш», система искусственного орошения, дельта, Древнехорезмское государство, Бургуткала, Якке Парсен, Бозоркала, Джонбоскала, Тупроккала, Дальварзинтепа, Бактрия.*

Zafar KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi IIVning Xorazm akademik litseyi o'qituvchisi, Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Kirish. Tarixdan ma'lumki, eng qadimgi sivilizatsiyalar suv bo'ylarida vujudga kelgan. Qadimgi xalqlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti sun'iy sug'orish tizimiga oid bilimlarni qay darajada egallab olganligiga bog'liq edi. Sun'iy sug'orish bu, ariqlar va kanallar yordamida ekinlarni sug'orishdir. Sun'iy sug'orish tizimi nafaqat Qadimgi Xorazm, balki butun Sharq dehqonchilik madaniyatining asosi bo'lib xizmat qilgan. Qadimda Xorazm vohasida ham bir qancha

shaharlarning vujudga kelishiga mazkur hududdagi eng qadimgi aholining aholi yashaydigan makon va manzilgohlarida o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirishishi sabab bo‘lgan. Ba’zi holatlar bundan mustasno. Bunga Qadimgi Xorazmning Tozabog‘yob makonlarini misol keltirib o‘tish mumkin: Tozabog‘yob makonlari atroflarida sug‘orish inshootlari izlarining yo‘qligi bu davrda dehqonchilik sun’iy sug‘orishga asoslanmagan, balki, “kair yerlari”dan, ya’ni daryo odog‘idagi yer osti suvlari yuza bo‘lgani sababli tuproqda dehqonchilik ekinlarining o‘sishi uchun nam yetarli bo‘lgan joylardan foydalanilgan, degan xulosa chiqarishga imkon beradi [1]. Lekin, baribir ham butun tarixdan boshlab to hozirgi kungacha agrar sivilizatsiya rivojida sun’iy sug‘orish tizimining o‘rni katta bo‘lgan.

Tadqiqot metodlari:

- tarixiy tahlil;
- qiyoslash;
- asoslab berish.

Natijalar:

Qadimdan Amudaryoning quyi oqimi va Orol dengizi bo‘ylarida yashagan xalq va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar, bu o‘zgarishlar zamirida yotgan bir qancha omillar keltirib o‘tildi. Shuningdek, insoniyat hayotida suv manbalarining o‘rni muhimligi va shu asosda insonlar tomonidan sun’iy sug‘orish tizimi takomillashtirilishi, shaharlar, qal’alar, turarjoylarning qurilishi, o‘ziga xos madaniyat shakllanishi izohlangan.

Asosiy qism. Bronza davriga kelib (miloddan avvalgi II ming yillik) ibtidoiy ajdodlarimiz hayotida tub ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlarning ildizi miloddan avvalgi III ming yillikning so‘nggi choragida har ikki, ya’ni qadimgi dehqon va ovchi-baliqchi qabilalar jamoalarida bir vaqtda yuz beradi. Kaltaminor madaniyatining so‘ngida, aniqrog‘i Orolbo‘yi eneolit davri yodgorliklari (Saksovul bekati)da chorvachilik madaniyati tarkib topa boshlaydi. Anov madaniyatining Namozgoh-5 bosqichida esa, ilk shaharlar qad ko‘tara boshlaydi. Qadimgi dehqonchilik qabilalari jamoalarida iqtisodiy-xo‘jalik sohasidagi yuksalishlar ijtimoiy tabaqalanishga yuz tutib, qadimgi sharq tamaddunining yangi mahalliy markazlari paydo bo‘la boshlaydi [2].

Qadimgi Xorazm vohasining asosiy suv manbasi bo‘lgan Amudaryo shaharsozlik sivilizatsiyasining vujudga kelishida muhim o‘rin tutgan. Shu yerda Qadimgi Xorazm davlati hududiga to‘xtalib o‘tsak. Qadimgi Xorazm davlati – Amudaryoning quyi oqimidagi ancha aniq belgilangan hududidir. Hududiy jihatdan hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati, Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz viloyatiga va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri keladi. Amudaryo sug‘orish tarmog‘ining beqarorligi tufayli, sug‘oriladigan yerlarning chegaralari turlicha davrlarda o‘zgarib turgan, ya’ni ayrim davrlarda sug‘oriladigan maydonlar kengayib, ayrim davrlarda bu maydonlar qisqarib turgan. Amudaryo suvining asta-sekin o‘z qirg‘oqlarini yuvib turishi “degish” deb nomlangan. Aynan “degish” Amudaryo o‘zanlarining har tomonga o‘zgarib, oqib turishiga sabab bo‘lgan. Amudaryo o‘zanlarining o‘zgarib turishiga bir qancha sabablarni keltirib o‘tish mumkin: birinchidan, daryo o‘zanlarining o‘zgarib turishiga olib kelgan tabiiy va geologik omil; ikkinchidan, inson omili, ya’ni ko‘pchilik xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar, siyosiy janjallar, qadimgi davlatlar hukmdorlari uchun suv manbasi ma’lum bir xalq, qabila, urug‘larni boshqarish va bo‘ysundirishda vosita rolini bajarishi. Ya’ni, ma’lum bir hududni bo‘ysundirish yoki qo‘zg‘olonlarni bostirish uchun suv yo‘llarini to‘sib, ularni suv manbasidan ajratib tashlaganlar. Bunga misol qilib, Saljuqiylar sultoni Sulton Sanjarning Amudaryoni to‘sib, suvini Qoraqum sahrosiga burib yuborishi; Chingizxonning Amudaryoni Xorazmshohlar davlati poytaxti Ko‘hna Urganch tomon yo‘naltirib, shaharni suvga bostirishi; Buxoro amiri Amir Haydarning Sultonband to‘g‘onini buzdirib tashlab, Marv vohasini suvsiz qoldirganini keltirib o‘tish joiz.

Lekin, ko‘pgina Sharq davlatlari, jumladan, Qadimgi Xorazm davlati hukmdorlari va hukumatlari ham sun’iy sug‘orish haqida bilimlarni rivojlantirishga harakat qilishgan. Chunki, bu soha bilimlarisiz dehqonchilik madaniyatini rivojlantirish, shu orqali davlat xazinasiga tushadigan soliqni ko‘paytirib bo‘lmasligini juda yaxshi tushunishgan. Bu jarayonda, albatta, iqtisodiy omil

asosiy o‘rinda turgan. Shu orqali davlatning ommaviy ishlarga xalqni safarbar qilish vazifasi ishga tushgan. Aynan sun’iy sug‘orish tizimini rivojlantirish masalasi, ariqlar, kanallar qazish, suv toshqini vaqtini aniqlash ehtiyoji Qadimgi Xorazmda matematika, geometriya, geologiya va astronomiya hamda irrigatsiya fanlarining yuqori darajada rivojlanishiga olib kelgan. O‘rta asrlarda bu sohalarda Abu Rayhon Beruniy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy kabi olimlar yetishib chiqdi va hukmdorlar ham bunday olimlarni rag‘batlantirish siyosatini olib bordilar.

Xorazm vohasining asosiy suv tomirlari bo‘lgan Amudaryo o‘zanlarining o‘zgarib turishiga geologik o‘zgarishlarning bir qismi bo‘lgan daryolar sohilidagi tuproqning daryo suvi ta’sirida yemirilishini va daryo suvi tarkibidagi loyqalarning cho‘kishi natijasida vujudga kelgan jarayonlar sabab bo‘lgan.



1-rasm. Qadimgi Xorazm hududi

Shu narsani qayd qilib o‘tish muhimki, Amudaryo tarixining hozirgi zamondagi ilmiy konsepsiyasi o‘zining asosiy xususiyatlari bilan xorazmlik ulug‘ ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniyning geodeziyaga oid risolasida ta’riflab berilgan sxematik, ammo juda ajoyib konsepsiyaga mos tushadi. Beruniy cho‘llardagi ulug‘ daryolar oqimining tez-tez o‘zgarib turishining sababi o‘zanlarda daryo cho‘kindilarining to‘planib qolishidadir, deb uqtirish bilan bu hodisa sabablarini to‘g‘ri ko‘rsatib berdi. Daryolar va ularning ko‘pdan-ko‘p irmoqlari tog‘dan oqib tushar ekan, yo‘l-yo‘lakay uning o‘zani bo‘ylab uyum-uyum bo‘lib qatlamlanib boradi, quyi oqimda esa, atrofdagi tekislikdan ham baland bo‘lgan do‘ng deltalar hosil bo‘ladi. Buning oqibatida daryo tez orada o‘zining yon-veridagi pastroq joylarga urib ketib, yangi o‘zan hamda delta hosil qiladi. Bu xususiyat Amudaryoga ham xos bo‘lib, u yuqori to‘rtlamchi davr boshida o‘z oqimi yo‘nalishini keskin o‘zgartirib borib, shimolga, Orol dengiziga tomon oqa boshladi [3].

O‘rta Osiyoda cho‘llarning irrigatorlar tomonidan o‘zlashtirishi natijasida bog‘lar va dalalar gullab-yashnagan. Xorazmda suv odatda yirik daryolardan olinadi. Bu yerda hududning qiyaligi ahamiyatsiz. Shuning uchun, O‘rta Osiyoda kanallar yoki ariqlar uzoq, aniq rejalashtirish asosida qurilishi kerak. Dalani sug‘orish uchun unga boradigan ariqni ancha balandroq qazish kerak, bu yerda daryo sathining balandligi sug‘oriladigan maydonning balandligidan yuqori bo‘lishi kerak, shunda suv dalalarga tortishish kuchi tufayli osonlikcha yetib boradi. Davlat tashkilotisiz bunday uzun kanallar paydo bo‘lishi ham, saqlab qolishi ham mumkin emas edi. Shunday tarixiy sharoitda miloddan avvalgi VII asrda Qadimgi Xorazm davlati vujudga keldi [4].

Qadimgi Xorazm deyarli hamma tomondan sahrolar bilan o‘ralgan. Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda cho‘lda o‘z qarorgohlarining izlarini qoldirgan eng qadimgi aholi bu yerga joylashdi. Miloddan avvalgi I ming yillikda birinchi davlat tashkil topdi va milodiy III asrda Rim imperatorlari saroyida Xorazm elchilari paydo bo‘ldi. X-XIII asrlarda qudratli xorazmshohlarning boy davlati mavjud edi. Bularning barchasiga yirik shaharlarning ko‘plab qoldiqlari, qal’a devorlari va minoralar xarobalari, shuningdek, keng kanallar tarmog‘ining izlari dalolat beradi. Ularning o‘lik, qumli kanallarini hali ham cho‘lning jonsiz kengliklarida ko‘rish mumkin. Bu yerda ming yillar davomida hayot davom etgan, o‘rta asr qal’alarining xarobalari, Qadimgi Xorazm davlati shaharlari kabi turli madaniyatlar rivojlangan va tosh davrining eng qadimiy yodgorliklari bu haqda gapiradi [5]. XX asrning 50-yillarida Qadimgi Xorazm hududi o‘rnida ekspeditsiya tashkil etishning o‘zi juda samarali bo‘lib, yodgorliklarni qazish ishlari butun vohalarning sug‘orilishi va topografiyasini o‘rganish fonida olib borildi. Bunda aerofotografiya va uni dekodlashning zamonaviy usullaridan foydalanilgan. Ushbu texnika yordamida ekspeditsiyaning maxsus arxeologik va topografik guruhi B.V.Adrianova turli davrlarga oid yodgorliklar bilan Xorazmni sug‘orishning

batafsil xaritasini tuzdi. Bu ish jarayonida ilk o‘rta asrlarning ilgari noma’lum bo‘lgan ko‘plab yodgorliklari topildi, o‘sha davr vohalarining rejalari aniqandi [6]. 1953-1954-yillarda Burgutqal’a va Yakka Porson vohalarida tadqiqotlar davom ettirildi va bu vohalarda o‘ndan ortiq mulk va qal’alar, jumladan, eng yiriklari – Burgutqal’a va Yakka Porsonda qazishma ishlari olib borildi [7].

Xorazmning aholi yashaydigan ko‘p punktlari doira yoki to‘rtburchak shaklida turlicha istehkom usulida qurilgan. Bunday shahar xarobalari tipiga bir qator yodgorliklarni, masalan, Bozorqal’a vohasidagi Qo‘yqirilganqal’ani, Qo‘ziqirilganqal’ani, Jonbosqal’ani; Chirmon-yopda Qavatqal’a yonidagi Oqtepani, Ko‘nar-liqal’ani kiritish mumkin. Qo‘yqirilgan qal’a daydib oqadigan toshqin suvlarini shu joyning o‘zida boshqarish asosida vujudga kelgan bo‘lib, istehkomlangan doira shaklidagi aholi yashash punkti bo‘lgan. U ancha qalin, aylana devor bilan o‘ralgan bo‘lib, hozir bu devor yemirilish natijasida pastgina ko‘tarmaga o‘xshab qolgan. Devor bo‘ylab, qachonlardir, bir-biridan 18-20 metr masofada (doira bo‘ylab) to‘qqizta burj qad ko‘tarib turgan; o‘rtada qal’aning doira shaklida solingan markaziy binosi bo‘lgan. Tashqi halqa devori bilan ark o‘rtasidagi masofa 15 metr. Arkning devorlari qisman va kuchli yemirilgan bo‘lsa-da, har holda ancha yaxshi saqlanib qolgan, bularga qarab bu binoning dastlabki ko‘rinishini to‘la aniqlash mumkin [8].

Qadimgi Xorazmda shaharlar o‘ziga xoslik xususiyatlariga, muntazam, tartibli istehkom tizimiga ega bo‘lgan. Xarakterli jihati – darvozadan kiraverish joyida darvoza labirintining mavjudligi, qo‘shimcha mudofaa borligidir. Katta shaharlarda saroy va ibodatxona majmualari alohida ajralib turadi, aholi yashash joylarining ichki jihatdan rivojlanishi ham o‘ziga xos xarakter kasb etadi. Biroq, umumiy rejalashtirishning to‘g‘riligi barcha shaharlarga xos emas edi. Miloddan avvalgi I asrda Xorazmda taqvim joriy etilgan bo‘lib, uning joriy etilgan vaqti tangalarda, hujjatlarda qayd qilib o‘tilgan. Bu jihatlar Qadimgi Xorazm davlat birlashmasining mustahkamligidan dalolat beradi.

Xorazmning yirik shaharlaridan biri Tuproqqal’a shahri (maydoni 17 gektar) milodiy IV asrga qadar poytaxt, diniy va ma’muriy markaz vazifasini bajarib kelgan. Shaharda ikkita ulkan saroy ansambli, uch minorali xorazmshohlar qasri, bir necha ibodatxonalar, alohida xonadonlardagi turarjoy binolari mavjud edi. Qadimgi manzilgoh o‘rnida olib borilgan qazishmalarda Xorazm san’ati yorqin va o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ldi. Turli loydan yasalgan haykallar, jumladan, ko‘pgina inshoot devorlarida Xorazm hukmdorlari va ularning qarindoshlari surati topilgan. Xususan, shahardagi uylar – oilalalar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan hujjatlar arxivini topish juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, Tuproqqal’ada sanoat-hunarmandchilik (bronza quyish, kamonsozlik) izlari ham topilgan.

Antik davr shaharlariga Bozorqal’a, Jonbosqal’a (shahar xususiyatiga ega qal’a), Guldursunqal’alar ham kiradi. Ayniqsa, Tuproqqal’a qazishmalar natijasida to‘liq o‘rganilgan va u yerdan aylana shaklli, mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan. Ibodatxona atroflarida aholi yashash va xo‘jalik binolari joylashgan [9].

Tuproqqal’adagi qayd qilingan katta zallar dizayni, boshqa zallardan farq qiladi: muhim rejalashtirish elementi yo‘q, katta supa mavjud. Qal’adagi uylarning o‘zaro bog‘liqligi boshqacha edi, konfiguratsiyaning tartibsizligi, Baqtriyadagi Dalvarzintepa oddiy fuqarolarining turarjoylarini eslatuvchi biron bir kompozitsion markazning yo‘qligi edi [10].

2-rasm. Ko‘hna Tuproqqal’a shahri xarobalari

Yuqoridagi tarixiy ma’lumotlarni inobatga olib aytish mumkinki, Markaziy Osiyo hududida Qadimgi Xorazm, Qadimgi Baqtriya kabi qadimiy davlatlar vujudga kelgan. Zero, uzoq o‘tmish zamonlarda dunyo xaritasida tarixiy-madaniy ravnaqning ana shunday yuqori bosqichida turgan o‘lkalar soni barmoq bilan sanoqli bo‘lgan. Xuddi

shu davrda bir necha o‘n kilometr, eni bir necha o‘n metrni tashkil etgan kanallar qazilgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlardayoq Xorazmda ulkan sun’iy sug‘orish tizimlarining bu darajada e’tiborli bo‘lganligi ajdodlarimiz hayotida dehqonchilikning tutgan o‘rnidan guvohlik beradi. Haqiqatan ham, o‘sha vaqtlarda don, moy beruvchi o‘simliklar yetishtirish, polizchilik, bog‘dorchilik kabi sohalar rivojlanganligini olimlar isbotlab berishgan. O‘z davri uchun “bahaybat” kanallar qurilishi, yaratilgan sun’iy sug‘orish tizimini idora qilish, davlatchilik tartiblari yo‘lga qo‘yilgan qudratli, shundoqqina yonginada joylashgan saltanat (Midiya) bilan tengma-teng munosabatda bo‘lish ma’lum bir siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy asoslarda uyushmagan makonda yuz berishi mumkinmi? Albatta, yo‘q. Xullas, miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida, aniqrog‘i, VII asrlardayoq mamlakatimizda davlatchilik asoslari uzil-kesil tarkib topgan, deyishga haqlimiz. Mazkur davlatchilik asoslari ko‘hna Xorazmda qaror topgan edi [11].

Ibtidoiy davrlardan boshlab to dastlabki davlatlar vujudga kelguniga qadar ham qadimgi xalqlar daryolar va buloqlar bo‘ylarida dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan shug‘ullanib, xo‘jalik yuritib kelishgan. Albatta, Sharq dehqonchiligi sun’iy sug‘orish kabi murakkab jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu jarayon oddiy xalq gardaniga og‘ir yuk bo‘lib tushgan. Shunday murakkab sharoitlarda ham mehnatkash xalq bu qiyinchilikni yengib o‘tib, o‘z madaniyatlarini, shaharlarini, davlatlarini tuzishga va jahon sivilizatsiyasi rivojlanishida o‘z hissalarini qo‘shishga muvaffaq bo‘lishgan. Xullas, insoniyat sivilizatsiyasi suv bo‘yida vujudga keldi, rivojlandi va suv bilan bog‘liq holda davom etadi.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin:

- Amudaryo bo‘ylarida yashagan xalq va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti sun’iy sug‘orish tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq bo‘lgan;
- O‘zbekiston hududida tashkil topgan qadimgi davlatlar, jumladan, Qadimgi Xorazm davlati ham sun’iy sug‘orish tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan;
- Sun’iy sug‘orish tizimini rivojlantirish ehtiyoji geografiya, geologiya, astronomiya, matematika, geometriya fanlariga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab bo‘ldi;
- O‘zbekiston hududida qadimda kuchli davlatchilik yoki davlat uyushmalari bo‘lmaganida, daryolardan ariqlar, kanallar chiqarish, chig‘ir turlaridan foydalanish va daryo sathidan baland bo‘lgan yerlarga suv chiqarish imkonsiz bo‘lib qolgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948. –С. 50.
2. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: “Universitet”, 2007. –B. 104.
3.Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – М-Л: Наука, 1948. –Б. 353.
4.Арциховский А.В. Основы археологии. – Москва: ГИПЛ, 1955. –С. 170.
5.Струве В.В. История древнего Востока. – Москва: Учпедгиз, 1951. –С. 153.
6.Адрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – Москва: Наука, 1969. –С. 137-140.
7.Неразик Е.Е. Керамика Хорезма. – Москва: АН, 1959. –С. 96-129.
8.Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: АН, 1959. –Б. 82-83.
9.Лунина С.Б. Археология Средней Азии. – Ташкент: АН, 1986. –С. 35.
10.Пугаченкова Г.А, Ртвеладзе Е.В. Далварзинтепе. – Ташкент: АН, 1978. –С. 69.
11.Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. –Б. 25-27.

UDK:636.05(575.151)"18/19"(045)

SURXON VOHASIDA CHORVACHILIK XO‘JALIGI ETNOGRAF BILQIZ XALILOVNA KARMISHEVA TADQIQOTLARI MISOLIDA (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

Sherzod TO‘RAYEV,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada Surxon vohasida yetakchi xo‘jalik hisoblangan chorvachilik holati olima B.X.Karmisheva tadqiqotlari misolida tahlil qilingan. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi chorvachilik xo‘jaligining turlari va etnik guruhlar orasida keng tarqalganligi ochib berilgan. Shuningdek, olimaning voha hayotida chorvachilikning beqiyos o‘ringa ega ekanligi xususida fikrlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *chorvachilik, Surxon vohasi, qo‘ychilik, Karmisheva, yaylov, chig‘atoylar, tuya, tog‘.*

Аннотация: *В статье анализируется положение животноводства, которое считается главным хозяйством в Сурханском оазисе на основе исследований ученого Б.Х.Кармышевой. Выявлено, что виды животноводства в конце 19-начале 20 веков были широко распространены среди этносов. Также были даны мнения об уникальной роли ученого в жизни скотоводческого оазиса.*

Ключевые слова*: скотоводство, Сурханский оазис, овцеводство, Кармышева, чигатай, верблюды, гора.*

Annotation: *In the article, the situation of animal husbandry, which is considered the leading farm in the Surkhan oasis, is analyzed on the basis of the researches of scientist B.Kh. Karmisheva. It has been revealed that the types of livestock farming in the late 19th and early 20th centuries were widespread among ethnic groups. Also, opinions were given about the unique role of the scientist in the life of the cattle-breeding oasis.*

Key words: *cattle breeding, Surkhan oasis, sheep breeding, Karmisheva, chigatai, camels, mountain.*

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalalari bilan xo‘jalik madaniy tiplarni o‘rganish nihoyatda dolzarb masala bo‘lmoqda. O‘zbekistonning o‘ziga xos tarixiy-etnografik mintaqalaridan biri bo‘lgan Surxon-Sherobod vodiysida chorvachilik katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Yaylov chorvachiligiga asoslangan ko‘chmanchi chorvachilik va an’anaviy dehqonchilik bilan qo‘shib olib boradigan chorvachilik mavjud edi. Bu mintaqalardagi o‘tloqqa boy yaylovlar yil bo‘yi haydov-yaylov chorvachiligini rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan. Chorvachilik bilan avvalo ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi qabilalar, keyinchalik o‘troqlashgan etnik guruhlar shug‘ullanganlar.

Adabiyotlar tahlili. B. X. Karmishevaning Surxon aholisining etnik tarixi va xo‘jalik madaniyatlari borasida yaratgan maqola va monografiyalari biz tadqiq etayotgan mavzu bo‘yicha muhim ma’lumotlarni beradi. Olimaning “Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX века)” maqolasi va “Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана” nomli monografiyasida Surxon vohasi xalqlarining xo‘jaligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosli mulohazalar va fikrlar bildirilib, Surxon vohasi aholisi chorvachilik xo‘jaligi xususida batafsil to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, ushbu muallif tomonidan yana ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarida chorvachilikka alohida o‘rin berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Surxon vohasi chorvachilik xo‘jaligi etnograf B.X.Karmisheva asarlari asosida tahlil qilingan bo‘lib, bu ishni yoritishda qiyosiy-tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Surxondaryoning tabiiy sharoiti chorvachilik uchun juda qulay edi: mavsumiy yaylovlarning boyligi va issiq iqlimi ko‘pchilik hududlarda yil bo‘yi yaylovlarda chorva boqish imkonini bergan. Tog‘ va tog‘ yonbag‘rida haydov-yaylov chorvachiligining shartli sug‘orma dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan qo‘shib olib borilishi uchinchi mikro xo‘jalik-madaniy tipga kiradi. Bu tipga kiruvchi aholi ko‘proq chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi etnik guruhlar - qo‘ng‘irot, yuz, do‘rmon kabilar Sheroboddaryo oralig‘idagi dasht zonalarida, Bobotog‘ etaklarida, Qiziriq, Bandixon, Muzrobod, Xatrobod cho‘llarida chorvachilik bilan, adirliklarda esa lalmikor ziroatchilik bilan shug‘ullanganlar. Vohadagi chorvachilik uchun qulay bo‘lgan iqlim, tabiiy sharoit tog‘ yon adirlari va keng cho‘l zonalari bu yerda doimiy ravishda haydab boqiladigan chorvachilik turining saqlanib qolishiga olib keldi. Bu hududda yashovchi ayrim etnik guruhlarning to‘liq o‘troq turmush tarziga o‘tmaganligining sababi ham xo‘jaligida chorvachilik yetakchi o‘rinda turganligidir. Shu bois bo‘lsa kerak, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi o‘zining xo‘jalik, etnik-madaniy, antropologik va til xususiyatlarini XX asr boshlarigacha yaxshi saqlab qolgan edi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxondaryo hududi aholisi asosan qishloq xo‘jaligini chorvachilik, maishiy hunarmandchilik yoki dehqonchilik bilan bog‘lagan holda murakkab xo‘jalik bilan shug‘ullangan. Chorvachilik usullari ham har xil edi. Tadqiq etilgan materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Surxon vohasida chorvachilikning to‘rtta asosiy turini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) uzoq yaylov chorvachiligi 2) ko‘chmanchi chorvachilik 3) yaylov chorvachiligi 4) o‘tloq yaylov chorvachiligi.

Uzoq yaylov chorvachilik tipi yarim ko‘chmanchi o‘zbeklar, Hisor tizmasining janubiy yon bag‘irlarida, Boysun va Ko‘hitang tog‘larida yashovchi tojiklarning alohida guruhlari, shuningdek, turkmanlar, arablar va ba’zi eroniyzabonlar uchun xos bo‘lgan. Uzoq yaylov chorvachiligida asosan chorva mollari yil bo‘yi mavsumiy yaylovlarda boqilgan. Bunda aholi bir mavsumda ikki yoki uchta ko‘chish qilgan. Otlar qishloq xo‘jaligida asosan xirmonda va shudgorlashda, tuya va eshak kabilar tariq, don va somonni tashishda foydalanilgan.

Uzunning janubi-sharqida yashovchi qoratamg‘ali o‘zbeklarning kichik bir guruhi chorvachilik bilan shug‘ullanib, ular yil bo‘yi daryo bo‘yidagi to‘qaylarda chorvalarini boqqan. Laqay va Marqa urug‘lari xo‘jaligida yilqichilik yetakchi tarmoq edi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan voha chorvachiligi o‘rganilib, yaylovlarning tabiiy sharoiti va foydalanish imkoniyatiga qarab 3 turga bo‘lgan: tog‘ bag‘ri va

cho‘l yaylovlari, ya’ni pastki tog‘ oldi va cho‘l zonasi rayonlaridagi kuzgi, qishki, bahorgi yaylovlar; o‘rta tog‘ rayonlaridagi bahorgi, yozgi, kuzgi yaylovlar; yuqori tog‘ rayonlaridagi yozgi yaylovlar.

Surxon vohasida chorva mollarini qishlash va erta bahorda boqish uchun eng yaxshi yaylov cho‘l hisoblanadi. Ushbu hududda cho‘llar juda kam bo‘lgan. Faqat badavlat chorvadorlar cho‘ldagi yaylovlarga suruvlarini haydab, chorva mollari yollanma cho‘ponlar nazorati ostida boqilgan. Qo‘y va ot podalari boy chorvadorlar tomonidan boqilgan, ularning xo‘jaligi tijorat xarakteriga ega edi. Erta bahorda (qo‘zi tug‘ilgunga qadar) o‘zbeklar qishloqlarni tashlab, dashtga yoki eng yaqin adirlarga ko‘chib ketishgan.

Chorvachilikning ko‘chmanchi turi yarim cho‘l hududlarida ayniqsa, Sheroboddaryoning o‘rta oqimi havzasida yashovchi qo‘ng‘irotlarning bir qismi, orasida keng tarqalgan edi. Bu hududda chorvadorlar oilalari bilan mavsumiy yaylovlar bo‘ylab chorva ortidan yurgan, yaylovlar sababli o‘z lagerlarini tez-tez almashtirgan. Vohadagi yuz urug’lari dehqonchilik shuningdek chorvachilik bilan shug’ullanishgan.

Chorva mollari ekinlardan bo‘shagan yerlarda yollanma cho‘ponning nazorati ostida boqilib, har kuni quyosh botganda uylariga olib kelinardi. Bu vaqtda dehqonlar qishloqlardagi tor turar joylarini tashlab, sug‘oriladigan dalalarning bir qismiga tutashgan bog‘lar va uzumzorlarga ko‘chib o‘tishgan. Surxon vohasida chorvachilik bevosita dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan. May oyining oxirida g‘alla yig‘im- terimiga kirishilgan. O‘rim-yig‘im tugagandan so‘ng, chorva mollari somonda erkin o‘tlash uchun qo‘yib yuborildi.

Xulosa. Yuqorida bildirilgan ilmiy tahlillarga tayanib shuni xulosa qilamizki, yarim o‘troq aholi bilan bir qatorda o‘troq aholi ham chorvachilik bilan muntazam shug‘ullanib kelgan. Chunki o‘troq aholi ham tegirmon juvozlarini yurgizishda, yer haydashda, xirmon yanchishda, qolaversa, ulov (transport) vazifasini bajarishda chorva mollaridan: ot, ho‘kiz, tuya, eshakdan keng foydalanishgan. Shuningdek, uning sut, qatiq, go‘sht, jun terisidan ham unumli foydalanilgan. Vohada tadqiq etilayotgan davrda yirik shoxli mollar, qo‘ychilik, tuyachilik, yilqichilik keng rivojlangan. O‘troq aholida chorva boqishning qo‘ra yoki qo‘ra yaylov tizimi, ko‘chmanchi aholida esa yaylov tizimi ustun turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кармышева Б.Х. Узбеки // Расы и народы. Ежегодник «Современные этнические и расовые проблемы». М., 1984. Вып. 14. С. 219- 63.

2. Кармышева Б.Х. Кочевая степь Мавераннахра и ее население в конце XIX — начале XX в.: (По этнографич. данным) // Сов. Этнография. 1980, № 1. С. 46-55;

3. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: 1976. – 112, 224 с.

4. Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX века) //СЭ. 1969. № 3. С. 44 – 50.

5. Qayumov A. XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida etnik holat. – Adabiyot uchqunlari. T.: 2015. B- 125.

UDK:81'36 (045)

YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Xafiza ABDURASHIDOVA,
Termiz muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqola kommunikativ nutq faoliyatining produktiv turlaridan biri bo'lgan yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlarida autentik materiallardan biri bo'lgan podkastlar, gazeta va jurnallardan foydalanishning samaradorligiga bag'ishlangan. Bundan tashqari, gazeta, jurnal va podkastlarda ishlatilgan fikrlar, so'z va so'z birikmalarini gaplar tuzishda qo'llash va insho yozishda foydali bo'lgan grammatik strukturalarni ham o'rganib borish yozish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim hisoblanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolaning maqsadiga ko'ra, oliy ta'limda mutaxassis talabalarning yozuv kompetensiyasini autentik materiallar bilan birgalikda rivojlantirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *yozuv kompetensiyasi, podkast, insho, fikrlar, gazeta, jurnallar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются эффективности использования подкастов, газет и журналов как одного из аутентичных материалов учебной деятельности при развитии письменной компетенции, которая является одним из продуктивных видов коммуникативно-речевой деятельности. Кроме того, предостовляется информация о том, как использовать идеи, слова и фразы, используемые в газетах, журналах и подкастах, для формирования предложений и изучения грамматических структур, полезных при написании эссе, которые важны для развития навыков письма. Согласно цели статьи, она направлена на развитие письменной компетенции студентов вузов вместе с аутентичными материалами.*

Ключевые слова: *письменная компетенция, подкаст, эссе, идеи, газета и журналы.*

Annotation: *This article is devoted to the effectiveness of using podcasts, newspapers and magazines as one of the authentic materials in educational activities in developing writing competence, which is one of the productive types of communicative speech activity. In addition, students develop writing skills by using grammatical structures, ideas, words and phrases from podcasts, newspaper and magazines in their essays, letters and texts. The objective of this article is to develop writing competence of ESL students in higher education by using authentic materials together in English classes.*

Key words: *writing competence, podcast, essay, ideas, newspaper, magazines.*

Oliy o‘quv yurtlarida mutaxassis talabalarning yozuv kompe-tensiyasini rivojlantirib borish davomida turli xil mavzuga oid fikrga, so‘z boyligiga yetarli darajada ega bo‘lmasligi kabi muammolarga duch kelinadi. Mazkur muammolarning yechimini topishda autentik materiallar muhim o‘rin tutadi, shu jumladan, gazeta va jurnallar talabalar uchun adabiy til normalarga ega bo‘lgan lug‘at boyligini oshiruvchi, turli xil mavzularda fikrlash doirasini kengaytiruvchi, o‘z nutqini yozma bayon etuvchi, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini va motivatsiyasini oshiruvchi omil hisoblanadi.

Gazeta til o‘rganuvchilarning o‘qish ko‘nikmasini rivojalantirishdan, dunyo yangiliklari bilan xabardor qilishdan tashqari dars uchun ajoyib qo‘llanma ham hisoblanadi. Darsda foydalanish uchun turli xil sohalarga oid, ya’ni siyosat, iqtisod, oziq-ovqat, ta’lim, sport kabi mavzularni qamrab olgan gazeta va jurnallarni tanlash kerak. Buning birinchi sababi, gazeta va jurnallarni o‘qish davomida talabalarda zerikish hissi bo‘lmaydi. Ikkinchidan, talabalar ingliz tilida insho yozishda turli sohalarga oid yetarli fikrlarga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, rasmiy uslubda gap qurilmalarini, murakkab gaplarning tuzilishini, fikrni kengaytiradigan turli sohalardagi lug‘atlarni ham o‘rganib olishadi. Gazetadagi kerakli lug‘atlarni insho yozishda to‘g‘ri qo‘llash uchun yangi bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarni quyidagi bosqichlar asosida o‘rganish muhim:

1-bosqich: gazeta va jurnallardagi bir necha marta takrorlangan yangi so‘zlar va so‘z birikmalarini yozib olish;

2-bosqich: lug‘atdan shu so‘zning ma’nosini qidirish;

3-bosqich: so‘zning talaffuzini o‘rganish;

4-bosqich: shu so‘zning antonim va sinonimini ham yozish. (Insho yozish davomida sinonim so‘zlarni foydalanish samarali bo‘ladi, chunki sinonimlar bitta so‘zni qayta-qayta ishlatmasliklarini oldini olishga xizmat qiladi);

5-bosqich: Yozib olingan so‘zlar va so‘z birikmalarini qo‘llash orqali gaplar tuzish yoki bo‘lmasa insho yozish davomida qo‘llash.

O‘quv mashg‘ulot davomida qo‘llash uchun foydali bo‘lgan gazeta va jurnallar nomi quyidagi 1-rasmda keltirilgan:

1-rasm. O‘quv mashg‘ulotlar uchun tavsiya etiladigan gazeta va jurnallar

Yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi keyingi autentik materialllardan biri podkastlar hisoblanadi. Chunki podkastlar yozma nutqdagi fonetik, grammatik jumlalarni to‘g‘ri yoza olish, taqlidiy o‘zlashtirish yoki yod olish imkoniyatini beradi.

Avvalo, podkast so‘zini ta’rifiga nazar tashlasak, podkast - serverda internet orqali xohlagan vaqtingizda tinglanishi mumkin bo‘lgan tarzda joylashtiriladigan audio fayldir. Bundan tashqari, ko‘p hollarda, uni internetga ehtiyoj sezmasdan xohlagancha tinglashingiz uchun uni kompyuteringizga yuklab olish imkoniyati mavjud [10].

Podkastlar faqatgina listening ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qilmaydi, balki yozuv kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim

ahamiyatga ega. Podkast skriptlardagi gaplarni o‘qish, tahlil qilish, fikrlar, so‘z va so‘z birikmalarni yozma ravishda bayon etish va grammatik strukturalarni o‘rganib borish yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. O‘quv mashg‘ulotida quyidagi podkastlardan foydalanish tavsiya etiladi (2-rasmga qarang):



2-rasm. O‘quv mashg‘ulotlar uchun tavsiya etiladigan podkastlar

Podcast: Ecoturism by Linda Baxter

Imagine the scene. You are sitting in the hot sunshine beside the swimming pool of your international luxury hotel, drinking your imported gin and tonic. In front of you is the beach, reserved for hotel guests with motor boats for hire. Behind you is an 18-hole golf course, which was cleared from the native forest and is kept green by hundreds of water sprinklers. Around the hotel are familiar international restaurant chains and the same shops that you have at home. You have seen some local people-some of them sell local handicrafts outside the hotel. You bought a small wooden statue and after arguing for half an hour you only paid a quarter of what the man was asking. Really cheap. Is this your idea of heaven or would you prefer something different? Nowadays, many of us try to live in a way that will damage the environment as little as possible. We recycle our newspapers and bottles, we take public transport to get to work, we try to buy locally produced fruit and vegetables and we stopped using aerosol sprays years ago. And we want to take these attitudes on holiday with us, this is why alternative forms of tourism are becoming more popular all over the world. But what is ecoturism? There are lots of names for these new forms of tourism:responsible tourism, alternative tourism, adventure tourism, educational tourism and more. Ecotourism probably involves a little of all of them. Everyone has a different definition but most people agree that ecotourism must:

1. conserve the wildlife and culture of the area;
2. benefit the local people and involve the local community;
3. be suistainable, that is make a profit without destroying natural resources;
4. provide an experience that tourists want to pay for.

So for example, in a true ecoturism project, a nature reserve allows a small number of tourists to visit its rare animals and uses the money that is generated to continue with important conservation work. The local people have jobs in the nature reserve as guides and wardens, but also have a voice in how the project develops. Tourists stay in local houses with local people, not in specially built hotels. So they experience the local culture and do not take precious energy and water away from the local population. They travel on foot, by boat, bicycle or elephant so that there is no pollution. And they have a special experience that they will remember all of their lives. This type of tourism can only involve small numbers of people so it can be expensive. But you can apply the principles of ecotourism wherever you go for your holiday. Just remember these basic rules. Be prepared. Learn

about the place that you are going to visit. Find out about its culture and history. Learn a little of the native language, at least basics like “Please”, “Thank you”, and “Good morning”. Think of your holidays as an opportunity to learn something. Have respect for local culture. Wear clothes that will not offend people. Always ask permission before you take a photograph. Remember that you are a visitor. Don’t waste resources. If the area doesn’t have much water, don’t take two showers every day. Remember the phrase
“Leave nothing behind you except footprints and take nothing away except photographs”. Take as much care of your own home. Don’t buy souvenirs made from endangered animals and plants. Walk or use other non-polluting forms of transport whenever you can. Be flexible and keep a sense of humour when things go wrong. Stay in local hotels and eat in local restaurants. Buy local products whenever possible and pay a fair price for what you buy.

Choose your holiday carefully. Do not be afraid to ask the holiday company about what they do that is “eco”. Remember that “eco” is very fashionable today and a lot of holidays that are advertised as ecotourism are not much better than traditional tourism. But before you get too enthusiastic, think about how you are going to get to your dream “eco” paradise. Flying is one of the biggest man-made sources of carbon dioxide in the atmosphere. Friends of the Earth say that one return flight from London to Miami puts as much carbon dioxide into the atmosphere as the average British car driver produces in a year. So do not forget that you do not have to fly to exotic locations for your “eco” holiday. There are probably places of natural beauty and interest in your own country that you have never visited.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, auditoriyada ta’lim muhitini yaratishda autentik materiallar tanlash, autentik materiallar orqali tilni yanada ijodiy yondashuvlar asosida o‘rgatish muhim hisoblanadi. Autentik materiallarni qo‘llash orqali talabalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy metodlar orqali maxsus uslub va yondashuvlarni ishlab chiqish va o‘quv mashg‘ulotlar jarayonning muvaffaqiyali kechishida asosiy omillar sifatida xizmat qiladi.

Bu orqali talabalarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyani oshira olamiz. Bundan tashqari, talabalar o‘z ustida ishlash, til malakalarini mustaqil rivojlantirish kabi yuqori darajadagi motivatsiya yaratishda, ularning ta’lim jarayonidan zerikish holatining oldini olishda autentik materillarning o‘rni nihoyatda beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abersold, J. A., Field, M. L. From Reader to Reading Teacher. Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – 263 p.
2. Harmer, J . How to teach writing. Longman, 2004 - 162 p.
3. Harmer, J . The Practice of English Language Teaching . London and New York: Longman 2009.-448 p.
4. Isabela Anda Dragomir, Brandusa-Oana Niculescu. Different approaches to developing writing skills: Social-Behavioural Sciences Journal, 2020.-206 p.
5. Jalolov. J.J. Chet til o‘qitish metodikasi.-Toshkent, 2012. - 434 b.
6. Marianne Celce- Murcia, Donna. M.Brinton, Marguerite Ann Snow. Teaching English as Second or Foreign language. – USA, 2014.- 712 p.
7. Olshtain, E.(2001). Functional Tasks for Mastering the Mechanics of Writing and Going Just Beyond. In Celce-Murcia, M. (Ed.), Teaching English as a Second or Foreign Language (Third Edition). Boston, MA: Heinle and Heinle Publishers, 2001.-pp. 207-218.
8. Trim J.L.M.(Ed.). Common European Framework of Reference for languages: learning, teaching and assessment- Guide for Users, Language Policy Division, Council of Europe, Strasbourg, 2001.-278 p. Available online: http://www.coe.int/t/democracy/default_en.asp.
9. Walter, T. Teaching English Language Learners: The How-to Handbook (First Edition).
10. https://www.actualidadecommerce.com/uzpodkast.

UDK:811.512.133`36

TASHQI KO‘RINISHNI IFODALOVCHI SINONIMLARNI O‘RGANISHDA KONSEPTUAL – MANTIQIY VA KOGNITIV YONDASHUVLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tashqi ko‘rinishni ifodalovchi* sinonimlar*ning konseptual – mantiqiy va kognitiv yondashuvlari o‘rganilgan hamda leksik-semantik munosabatlar kabi masalalar tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *sinonimiya, leksik sinonimlar, sinonimik qator, graduonim leksemalar, absolyut sinonimlar.*

Аннотация: *В данной статье исследуются концептуально-логический и когнитивный подходы синонимов, репрезентирующих внешний вид, а также анализируются такие вопросы, как лексико-семантические отношения.*

Ключевые слова: *синонимия, лексические синонимы, синонимический ряд, градуонимичные лексемы, абсолютные синонимы.*

Annotation: *In this article, the conceptual logical and cognitive approaches of synonyms representing appearance are organized and issues such as lexical-semantic relations are analyzed.*

Key words: *synonymy, lexical synonyms, synonymous series, graduonymous lexemes, absolute synonyms.*

Navbahor BAZARBAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 4-kurs talabasi

Sinonimiyaning o‘zbek tilshunosligidagidagi tadqiqi tilshunos olimlar S.Usmonov, N.Rajabov, U.Tursunov, R.Yunusov, A.Doniyorov [3:18], S.Isamuhamedova [7:308], I.Qo‘chqortoyev, M.Asqarova, A.Xojiyev [6], S.Akbarov, A.Berdialiyev, Ya.Pinxasov, R.Jumaniyozov, B.Daniyarov [4] ishlarida ko‘rinadi. XX asrning 80-yillaridan boshlab sinonimlarni turli sath va har xil aspektda o‘rganish faollashdi. Jumladan, M.Asqarova, M.Qosimova, H.Jamolxonov kabi tilshunoslar leksik sinonimlarni uch tur: leksik, frazeologik va leksik-frazeologik ma’nodoshlikka ajratgan. Tadqiqotchilar tomonidan qayta ishlangan, to‘ldirilgan nashrlarda *ma’nodoshlik* termini *sinonim* terminiga almashtirilgan. O‘zbek tilshunosligida frazeologik sinonimlar Sh.Rahmatullaev tomonidan maxsus tadqiq qilingan.

Yuqoridagi olimlar bilan qatorda M.Odilov, M.O‘rinboyev, N.Mahkamovlar tilda sinonimlar mavjudligining pleonazmga ham ta’siri borligini ta’kidlashgan.

O‘zbek tilida sinonimlar bilan bog‘liq taqiqotlarni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: *birinchidan* sinonimlarning an’anaviy tilshunoslikda o‘rganilishi; *ikkinchi* sistem tilshunoslikda o‘rganilishi.

O‘zbek tilining an’anaviy tilshunoslik bosqichida sinonimlar bilan bog‘liq masalalarni Ya.D.Pinxasov, Z.Ma’rufov, S.Usmonov, F.Kamolov, A.Hojiyev, U.Rahmatullayev kabi tilshunos olimlar tadqiqotlarida uchratish mumkin bo‘lsa, sistem-struktur tilshunoslik nuqtai nazaridan Sh.Rahmatullaev, E.Begmatov, I.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, S.G‘iyosov, B.Jo‘rayev, R.Safarova, M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, Z.Yunusova, H.Saidova kabi olimlar sinonimlarni struktur-semantik jihatdan tahlil qilishgan. Bu davrda olib borilgan tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasiga munosabatning ma’lum darajada o‘zgarishiga olib keldi. Buning isboti sifatida tilshunoslikda sinonimlarning ta’rifi masalasini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, ularga berilgan ta’riflarda dastlab bir xillik , so‘ngra umumiylik [6], keyinchalik esa o‘xshash (aynan)lik tamoyiliga asoslanildi .

O‘zbek tilida tashqi ko‘rinishni ifodalovchi sinonim leksemalarning tahlilga bog‘liq sinonimiya hodisasi yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar xususida yangi avlod sinonimshunoslaridan G‘.Rahmonov ma’nodosh birliklarning ilk an’anaviy talqinlarida ularga yaxlit, bo‘linmas birlik sifatida qaralganligini ta’kidlaydi. Keyingi amalga oshirilgan sinonimiyaga doir tadqiqotlarda leksik ma’no qirralariga bo‘linishi va semantik tarkibiy qismlarga ajralishiga tayanildi. Demak, sinonimiya hodisasining milliy talqinidagi ilk ta’riflarga nutq birligi bo‘lgan so‘z, keyingi ta’riflarga esa lisoniy birlik hisoblangan leksema orqali yondashilgan. Hozir sinonimiya sememalar munosabatiga asoslangan semantik hodisa ekanligi aksiomaga aylanib ulgurdi. “Semasiologik asosda belgilanuvchi bu hodisa, ko‘pincha, stilistik – nutqiy maqsadlarga, qisman semantik – ideografik maqsadga xizmat qiladi. Zero, sinonimlar orasidagi farqlar uslubiy, shuningdek, ma’no qirrasida, xususan, ma’noni gavdalantiradigan obrazlarda mavjud bo‘ladi”.

XX asrning 90-yillaridan keyin sinonimiya hodisasi B.Yo‘ldoshev, H.Shamsitdinov tadqiqotlarida semantik-funktsional, O.Bazarov [1:270], Sh.Orifjonovalar tomonidan graduonimik aspektda o‘rganildi. XXI asr boshlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham sinonimiya hodisasi mohiyatiga chuqurlashuv, talqinlar qamrovining birmuncha kengayganligini ko‘rish mumkin. Xususan, tilshunoslar M.Mirtojiyev, S.Karimov, B.Mengliyev [11], Z.Yunusova va ular izdoshlarining sinonimiya hodisasi yuzasidan bayon etgan fikrlari o‘zbek tilshunosligida bajarilayotgan tadqiqotlarning hozirgi holatini ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosligida sinonimlarning lug‘atlarda aks etishi masalalariga doir dastlabki tadqiqotlar XI asrda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ko‘zga tashlanadi. Masalan, *o‘lo‘k* so‘ziga berilgan izohda *hissa; qismat; nasiba* kabi kontekstda teng qo‘llanuvchi sinonimlar; *o‘pum* so‘ziga berilgan izohda *yutum, qultum* kabi teng qo‘llanuvchi sinonimlar aniq ko‘rsatib berilgan.

Leksik sinonimlar va unga yondosh hodisalarning lug‘atlarda berilishi tilshunos A.Hojiyevning amaliy tadqiqotlaridan boshlanadi. Uning 1974-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” bu boradagi katta qadam, o‘zbek tili sinonimlarining chinakam tahlili bo‘ldi. Lug‘atda sinonimlarga yondosh hodisa variantdosh so‘zlar ham e’tibordan chetda qolmagan. Bundan tashqari, lug‘at o‘zbek tilidagi leksik sinonimlarni qamrab olishiga qaramasdan, lug‘at tarkibida grammatik omillar asosida yuzaga kelgan sinonim leksemalar ham sinonimik qatorda beriladi. Lug‘atda leksik sinonimlar qo‘llanish davri, doirasi va darajasi, ma’noviy gradatsiyasi, emotsional bo‘yoqdorligi, uslubiy xoslanishiga ko‘ra izohlangan. Lug‘atda leksik sinonimlar quyidagi tartib asosida tuzilgan: 1) sinonimik qator; 2) qatordagi so‘zlar uchun umumiy ma’no izohi; 3) sinonimik qatordagi so‘zga xos xususiyat tavsifi; 4) sinonimga berilgan izohni dalillovchi illyustrativ misollar [6:29].

XX asr 90-yillari va undan keyingi davrda leksik sinonimlarning leksikografik talqini yuzasidan o‘zbek tilshunosligida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borildi. Tilshunos olimlardan O.Bazarov, Sh.Orifjonova, Sh.Bobojonov,

G‘.Rahmonov, A.Eshmuminov, B.Daniyorovlar leksik sinonimlarning lug‘atlarda berilishi bilan bog‘liq izlanishlari ham leksikologiya, ham leksikografiya sohasida sezilarli yangiliklarni olib kirdi. XX asrning 90-yillaridan keyin so‘zlardagi ierarxik munosabat tufayli yuzaga kelgan giponimiya, partonimiya va graduonimiya kabi hodisalar fanda yangi burilishni hosil qildi. Leksik sinonimlarning ma’noviy tarkibida yaqqol sezilib turuvchi darajalanish (graduonimiya) hodisasini alohida sinonimlar bilan bog‘liq holda o‘rganish tilshunoslikda ko‘plab tadqiqotlarning yaratilishiga asos bo‘ldi.

So‘zlararo leksik-semantik munosabatlarining umumiy izohli lug‘atlarda berilishini semalar orqali izohlashga qaratilgan o‘z ilmiy qarashlari bilan tadqiqotchi Sh.Bobojonov yangicha yondashuvga asoslangan takliflari katta ahamiyatga ega. Leksik birlikning mohiyati uning ma’nodoshlik qatorida ma’lum bir tomondan ochiladi. Ma’lumki, ma’nodosh birliklar atash va vazifa semalari umumiyligi asosida bir mikrotizimga birlashsa, ifoda semalarining har bir leksema sememasida o‘ziga xosligi ularning mohiyatiga ta’sir qiladi yoxud undan dalolat beradi [2:54]. Ma’nodoshlarning (tadqiqotchi shunday nomlaydi) izohli lug‘atdagi holati yuzasidan berilgan taklifga ko‘ra, sinonimlarning ifodalanishi “leksemaning barcha ma’nodoshlari mavjud qator tiklanishi va darajasi asosida leksemaning qatordagi o‘rni muayyanlashtirilishi” lozimligi ta’kidlanadi; sinonimik qatorda mavjud leksemalar tarkibida polisemantik tabiatga ega so‘z bo‘lsa, ular alohida arab raqami bilan izohlanishi zarur, kabi xulosalarni beradi.

O‘zbek tilida sinonim va graduonim leksemalarni o‘zaro aloqadorlikda tekshirgan olim G‘.Rahmonov A.Hojievning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da berilgan “Sinonimik qatordagi so‘zlar tushunchaning belgisini turli darajada ifodalashi mumkin. Sinonimik qatordagi ba’zi so‘zlar belgini normal daraja bilan (neytral), ba’zilari kuchli darajasini ko‘rsatishi mumkin; ayrimlari belgini kuchsiz daraja bilan ifodalaydi”, ta’rifini amaliy isbotini o‘z tadqiqotida amalga oshirdi. Tadqiqotda statistik tahlil metodi orqali tekshirilgan quyidagi fikrlarni ko‘rishimiz mumkin: “O‘zbek tili sinonimlarning izohli lug‘ati”da nom ifodalovchi leksemalardagi sinonimik qatorlar soni 287 tani tashkil etadi. Ushbu sinonimik qatorlarni tahlil qilib chiqqanimizda, ularning 53 tasida graduonimiya hodisasi bilan munosabatga kirishish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Mazkur 53 ta sinonimik qatorlardagi leksemalarda atash (denotativ) semalari aynan bir xilligi, ifoda (konnotativ) semalari esa farqlilik holatida ekanligi kuzatildi”.

Leksik sinonimlarning izohli lug‘atdagi holati yuzasidan tadqiqot olib borgan olim A.Eshmuminov o‘zbek tili milliy korpusi uchun sinonimlar bazasini ishlab chiqdi. Tadqiqotda sinonimlarga berilgan izohlar quyidagicha ajratib berilgan. Izohli lug‘atlarda sinonimlar sharhidagi farqlarni ko‘rsatishda olim “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning 1981-yilda nashr qilingan ikki tomlik va 2006-2008-yillarda nashr qilingan 5 tomlik nashrlarini taqqoslab chiqqan va ikki nashrida ham sinonimlarga berilgan izohlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lgan:1) izohi va misollari aynan bo‘lgan sinonimlar; 2) izohi butunlay yangi, misollari aynan; 3) izoh qisman yangi, misollar aynan; 4) izoh qisman yangi, misollar qisman o‘zgargan; 5) izohlar aynan, misollar yangi; 6) izohlar ham, misollar ham yangi; 7) oldingisida yo‘q, yangisida bor; 8) sinonimiga ishora qilish asosida *ayn.* deb izohlash (oldingisida va keyingisida) [5:227] va bu kategoriyalar tadqiqotchi tomonidan misollar bilan isbotlangan.

O‘zbek tili sinonimlarining leksikografik talqini masalasiga doir ilmiy qarashlarni B.Daniyarovning tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. O‘zbek tili sinonimlarining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi holati va sinonim leksemalarning aynan lug‘atdagi izohlari yuzasidan olim kamchiliklarni aniqlaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning 2 tomli hamda 5 jildli nashrlarini taqqoslab, unda berilgan maqolalardagi sinonimlar izohida oldin berilgan, keyingi nashrda to‘ldirilgan yoki o‘zgartirilgan izohlarni aniqlaydi. Olimning izohli lug‘atdagi sinonimlar tahlili ko‘proq mutlaq sinonimlar orqali amalga oshirilganligining guvohi bo‘lish mumkin. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”dagi sinonimlarni tahlil qilishda olim lug‘atning ancha eskirganligini va sinonimlarning izohli lug‘ati yangilanishi zamon talabi ekanligiga bir qancha sabablar keltiradi.

- “hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlariga mos keladigan, o‘zbek mumtoz adabiyoti

namoyandalari asarlarida uchraydigan, lekin hozirgacha o‘z shakl va ma’nolarini saqlab qolgan so‘z va birikmalarni aniqlash, lug‘atga kiritish va izohlash; - respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi davrda iste’molga kirgan, turli fan sohalari va ijtimoiy hayotga oid asosiy so‘zlar va terminlarni, neologizmlarni aniqlash, lug‘atga kiritish va izohlash; - avvalgi sinonimlar lug‘atida “eskirgan”, “kitobiy” degan belgilar qo‘yilgan, lekin hozirgi kunda faol qo‘llanayotgan so‘z va iboralarni lug‘atda aks ettirish, ularni yangicha nuqtai nazardan izohlash; - adabiy til doirasidagi so‘zlar bilan bir qatorda shevaga, folklorga oid so‘z va iboralar, etnografizm, tarixiy so‘zlar (istorizmlar)ni lug‘atga kiritish, ularni hozirgi sharoit nuqtai nazaridan izohlash”. Lug‘atda olim sinonimik qatorlarni tahlil qilish jarayonida sinonimik qatorda berilmagan, ammo izohda mavjud sinonimlarni aniqlaydi. “Lug‘atda *faqat, yolg‘iz, birgina, tanho, xolos* kabi ayiruv-chegaralov yuklamalari izohlangan.

Lug‘atda *yakka* so‘zi sinonimik qatorda berilmagan, biroq qo‘llanish doirasi izohlangan, misol keltirilmagan. Sinonimik qatordagi birgina so‘z (*tanho* so‘zi) izohlangan, boshqalariga munosabat bildirilmagan.

Lug‘atda sinonimik qatordagi so‘zning o‘z vazifa va ma’nosidan tashqari lug‘aviy yoki grammatik ma’no (grammatikalizatsiya) kasb etgan shakli keltirilgan, biroq izoh berilmagan. Mas., *yolg‘iz, yakka, tanho, birgina* mustaqil so‘zlarining *faqat* yordamchi so‘zi o‘rnida qo‘llangani kabi” [4]. Olim o‘z tadqiqotida ushbu lug‘atni to‘liq tahlil qilishga va o‘zining amaliy tavsiyalarini berishga erisha olgan.

O‘zbek tilida sinonim leksemalarning leksikografik talqini masalasiga har bir olim alohida tahlil qilish usuli orqali yondashgan va bu jarayon davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 1997.
2. Бобожонов Ш.Х Семема, унинг нутқий воқеланиши ва изоҳли луғатдаги талқини: Фил.фан.номз...дисс. – Қарши, 2003.
3. Данияров А. Стилистические функции синонимов в современном узбек-ском языке. АКД. – Самарканд, 1967.
4. Данияров Б. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик талқини: Филол.фан. д-ри...дисс. – Самарқанд, 2020.
5. Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол.фан.б. фал.док. ...дисс. – Термиз, 2019.
6. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.

UDK: 81-44

“EMOTSIONAL KONSEPT”NING TILDAGI IJTIMOIY HODISASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada konsept haqida olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan umumiy fikrlar keltirilgan bo‘lib, emotsional konseptosferaning kelib chiqishi, emotsional konseptning madaniyatda aks etishi, konseptlarning shartlari keltirilb o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *konseptosfera, konsepsiya, emotsional konsept, yot, sub-etnos, emotsional elementlar.*

Аннотация*: В данной статье представлены общие взгляды ученых на рассматриваемый концепт, происхождение эмоциональной концептосферы, отражение эмоционального концепта в культуре и состояние концептов.* ***Ключевые слова****: концептосфера, концепт, эмоциональный концепт, чужой, субэтнос, эмоциональные элементы.*

Annotation: *This article presents the general views of scientists on the concept under consideration, the origin of the emotional concept sphere, the reflection of the emotional concept in culture, the state of concepts.*

Key words*: concept sphere, concept, emotional concept, alien, sub-ethnos, emotional elements.*

Boburjon ABDURAZOQOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti “Ingliz tili nazariy aspektlari” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Kirish. Har qanday konsept, ya’ni tushuncha aqliy in’ikos ob’ekti shaklida inson ongida taassurot mahsuli sifatidagina mavjud bo‘lishi mumkin. D.S. Lixachev o‘zining mazkur sohadagi ilk ilmiy nashrlaridayoq bunday konseptual xulosa yig‘indisiga *konseptosfera* deya izoh beradi [1]. Konseptosfera, yoki boshqacha qilib aytganda, emotsional konseptosfera – bu aslida leksik va frazeologik darajada lisoniy ifoda sifatida iste’molga kirib kelgan, o‘zaro murakkab tarkibiy, semantik va funksional munosabatlarda namoyon bo‘lgan va konseptual, ma’joziy va ruhiy kechmish yig‘indisi ko‘rinishida bir nechta komponentlarini o‘z ichiga olgan emotsional konsept (EK)lar to‘plamidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Lingvistlar ommasiga yaxshi tanish bo‘lgan qator ilmiy ishlardagi konseptlar mohiyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda, ayrim tilshunoslar o‘zlarinig ilmiy nashrlari orqali “emotsional konsept” tushunchasiga etnik, madaniy jihatdan aniqlangan, murakkab strukturaviy-semantik, aqliy, ma’lum bir tushuncha sifatida qaraydilar [2, 3]. Konseptual xossalarga asoslangan leksik yoki frazeologik muomalada bo‘lgan shakllanish qoidasi, ushbu konsepsiyaga qo‘shimcha ravishda voqe’lik haqidagi tasvir yoki tasavvurni, uni muayyan shaxsning yoki butun bir millatning ma’naviy dunyosida tutgan muayyan madaniy qiymatni o‘zida mujassamlashtiradi.

Bizningcha, insonlarning muloqot yoki munosabatlari jarayonida, shu bilan birga tashqi dunyoga nisbatan o‘zlarida refleks shakllantirish natijasida hosil bo‘ladigan emotsional hosila – emotsional konseptdir. Keyingi o‘rindagi tahlillarimizda sizning e’tiboringizga emotsional konsept (keyingi o‘rinlarda EK deya murojaat qilinadi)ga berilgan ta’rif mazmunini ko‘rib chiqamiz.

Boshqa har qanday hissiy tushuncha singari, u ham madaniy jihatdan shartlalarga bo‘ysunadi. U muayyan etnik qatlamda o‘z taraqqiyotining ma’lum bosqichida ma’lum ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda tug‘iladi. Ba’zan u konsepsiya sifatida tashqi omillar ta’sirida vujudga keladi, ya’ni boshqa madaniyat yoki hayot tarzidan ko‘chib tilga singadi. U dastlab “yot” ong tomonidan aks ettiriladi va keyinchalik to‘g‘ridan-to‘g‘ri murakkabroq hodisaga – mahalliy tushunchaga aylanadi. Uning paydo bo‘lishi va jamiyatdagi keyingi mavjudligi (so‘zning keng ma’nosida, ya’ni insoniyat jamiyatining (jamoasining deyarli har qanday qatlamida) u kirib kelgan avvalgi jamiyatdagi statusidan keskin farq qilishi mumkin. Emotsional konsept ushbu ishning ayrim qismlarida muayyan muhokama obyekti emas, butun bir tadqiqotning tub mohiyati sifatida batafsil muhokama mavzusidir.

Dastlab konseptual shaklda mavjud bo‘lgan tushunchalar, shu jumladan hissiy ifodalar, tug‘ilishining eng muhim birlamchi shartlarini muayyan tarixiy va etnografik asarlar asosida ko‘rib chiqilishi lozim, jumladan Batishev [4], H. Bauzinger fikricha “bu kabi birlamchi konseptlar odamlarning birgalikdagi jamoaviy faoliyati hosilasi ko‘rinishida vujudga keladi” deyiladi [5]. Nemis etnografi va tarixchisi X.Bauzingerning quyidagi so‘zlari ushbu yondashuvga yaqqol misol bo‘la oladi. Uning ta’kidlashicha: “Mehnat umuman hayot tarzini shakllantiradi va sayqallaydi <...> Bilim, ko‘nikmalarning jamoaviy mehnati orqali avloddan avlodga o‘tadi va rivojlanadi”. U o‘zining ilmiy nashrlarida bunday lisoniy evrilish birgalikdagi butun bir jamoat faoliyati mahsuli (*die gemeinsame Taetigkeit - jamoaviy faoliyat*), ya’ni umumiy til olamining shakllanishi natijasi sifatida (*die gemeinsame Sprachwelt*) *jamoaviy til olami* deya ta’riflaydi [5]. Biz yuqorida aytib o‘tgan omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan konseptlarning vujudga kelishining yana bir muhim sharti, shaxsning jamiyat bo‘g‘iniga aylanishi – insoniyat sivilizatsiyasi evolyutsiyasining keyingi bosqichida sodir bo‘ladigan jarayon deb hisoblanishi maqsadga muvofiqdir. Shaxs asosan ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli ijtimoiy qatlam ishtirokchisiga aylanadi. Ikkinchi omil esa bir boshqa etnik guruh, ya’ni sub-etnos mentalitetining o‘zgarishiga olib keladi. Insonning jamiyat bo‘g‘iniga aylanishining ahamiyati haqidagi shunga o‘xshash dalillar boshqa g‘arb madaniyatshunoslari va etnograflarining asarlarida ham mavjud. Ulardan ba’zilari bir vaqtning o‘zida olimlarning o‘tmish madaniyatini ilmiy tarixiy va etnografik tadqiqotlar bilan bog‘liq holda insonning sotsializatsiyasi muammosiga yetarlicha e’tibor bermaganligini ko‘rsatadi. Shu bois, xususan, ma’lum bir hududiy uyushgan odamlar guruhlarining aqliy, psixologik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini bilishning yagona yo‘lidir, ya’ni boshqacha qilib aytganda, umumiy xarakter va odatlar majmuidir hamda ular ushbu jamiyat vakillari tomonidan avloddan-avlodga o‘tib kelgan “meros”dir”,- deydi [6].

Natijalar va muhokama. Ko‘rib turganingizdek, tilga olingan g‘arb etnologlari madaniyat haqida so‘z yuritar ekanlar, albatta, ijtimoiy hodisa sifatida uning o‘rganilishi, tarjima qilinishi, u yoki bu etnik jamoaning keyingi avlodlari tomonidan o‘zlashtirilishi mumkinligiga ishora qiladilar.

EK madaniy tushunchalar bo‘lgani uchun va biz o‘z ishimizda “madaniyat” atamasi bilan qayta-qayta ishlaganimiz sababli, uning ta’rifiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Mashhur madaniyatshunoslar A.Kroyeber va K.Klaxonlar madaniyatga quyidagi ta’rifni beradilar: “Madaniyat mahsulotdir, ya’ni u –millat tarixi, milliy g‘oyalar, ijtimoiy qarashlar va qadriyatlar sifatida qaraladi va ular tanlab olinadi, o‘rganiladi, belgilarga asoslanadi; va xulq-atvordan mavhumlik va ularga xulq-atvor mahsuli sifatida yondashiladi” «*Culture is a product; is historical; includes ideas, patterns and values; is selective, is learned, is based upon symbols; and is*

an abstraction from behaviour and the product of behaviour» [7].

Bu bir qarashda ixchamlashtirilgan timsoliy ta'rif (menimcha, bu uning kamchiligi emas, aksincha, uning aniq afzalligini belgilab beradi) uning eng muhim tarkibiy qismlari – inson faoliyati (mahsuli) natijasini aniqlab beradi. Tarixiylik, zaruriy asosiy emotsional elementlar (g'oyalar, andozalar, qadriyatlar va xokazo)ni tanlab olish, uning avlodlari davomiyligi, o'rganish orqali interpretatsiya qilish, belgi (albatta og'zaki) (*is based upon symbols* - ramzlarga asoslangan), tabiat "ob'ektivlik" (xulq-atvordan abstraksiya) va shakllanish manbai (*the product of behaviour*, ya'ni xulq-atvor mahsuli) sifatida qaraladi.

Maxsus ilmiy adabiyotlar bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, madaniyatning eng muhim majburiy xususiyati uning o'rganilishi va irsiyligidir. "Til – madaniyat" muammosiga u yoki bu tarzda ta'sir etuvchi asarlarda uning ana shu xususiyati, albatta, qayd etilgan. Fikrimiz dalili sifatida, E. Gudenou shunday yozadi: "Menga ayon bo'lganidek, biron-bir jamiyatga tegishli madaniyat uning vakillari uchun dasturi amal sifatida e'tirof qilish uchun uni yaxshi bilishi va unga ishonishi kerak bo'lgan farzlardan iborat bo'lgan madaniyatdir. Odamlar o'rganishi kerak bo'lgan milliy e'tiqod unsiridir. Ularning biologik merosidan ajratib turadigan jihati – uning ta'lim va tarbiyaning oliy maqsadi hamda mazmunidan iborat bo'lgan sharti sifatida namoyon bo'lishidir. "*As I see it, a society's culture consists of whatever it is one has to known or believe in order to operate in a manner acceptable to its members... Culture, being what people have to learn as distinct from their biological heritage, must consist of the end-product of learning: knowledge, in a most general ... sense of the term*" [8].

Tushunchalarning madaniy shartliligi haqida gapirganda, so'nggi bir necha o'n yilliklarda jamiyatning tobora chuqurroq tabaqalanishini esga olish kerak, bu, shubhasiz, "milliy madaniyat" tushunchasining yanada xiralashishiga va aynan ana shuning uchun ham uni tahlil qilish qiyinchiliklariga olib keladi. Tashuvchilari turli konfessional, ijtimoiy, kasbiy va yosh guruhlari vakillari bo'lgan submadaniyatlarning (ya'ni, ma'lum bir umumiy madaniyat vakillari) shakllanishi ma'lum bir milliy, etnik madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini hozirgi sharoitda tushunishni ancha qiyinlashtiradi.

Shu o'rinda professor K.Bayerning mazkur fikriga e'tiboringizni qaratmoqchimiz: "Ko'pchilikning fikricha, biz bir-birimiz bilan muloqot jarayonida, biz o'zimizni aldash (*Selbsttaeuschung*, ya'ni o'z-o'zini aldash) kabi jihat bizga qisman genetik tarzda o'tgan yoki qisman madaniy jihatdan shakllangan bo'lishi mumkin. <...> Bizning evolyutsion o'tmishimiz haqida ma'lumot yig'uvchi vakillar, hatto 19-asr dehqonlari, Tirol qishlog'i aholisi ham, uzoq muddatli uyushgan hayot kechirgan va buning natijasida o'zaro bog'liq hayotning nisbatan sodda ko'rinishidagi tuzilishi tufayli nisbatan o'xshash tilda fikrlash xususiyatiga ega bo'lgan bo'lishlari mumkin. O'sha davrda madaniyat shakllaridagi farqlarning paydo bo'lishi ularning farqlanishi uchun hech qanday sabablar bo'lmagan.<...>Ammo o'shandan beri vaziyat keskin o'zgardi. Buning hal qiluvchi omili doimiy ravishda kuchayib borayotgan ijtimoiy parchalangan (*Aufsplitterung*, ya'ni *parchalanish*) submadaniyatlar (Teil-und Subkulturen = qisman va subkulturalar), ijtimoiy va mintaqaviy harakatchanlik (Mobilitayet), aholi migratsiyasi, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining axborot "*oqimi*" (Flut) deb qaraladi. Buni har kim o'zicha talqin qiladi" [9].

Etnograf U.Gannerz 20-asr oxiridagi madaniyat fenomenini o'rganar ekan, zamonaviy dunyoning madaniy makon sifatida "o'zaro bog'lanishi"(vernetzte Welt, ya'ni *uyg'unlashgan olam*)ga ishora qiladi. Bu uning rivojlanishi oldingi bosqichlaridan farqli o'laroq, faol, geografik to'siqlardan holi xalqlar, ayniqsa, bir-biridan uzoqdagi hududlarda yashovchi xalqlar o'rtasida intensiv muloqotlarda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ba'zi tushunchalarning, shu jumladan baholovchi, emotsional konseptlarning bir madaniyatdan boshqasiga o'tishiga misol sifatida Xannerz Lamuda so'nggi o'n yil ichida shakllangan ijtimoiy-madaniy vaziyatni misol tariqasida keltiradi. Lama shahrida yashovchi bir yosh yigitning kompyuterda o'tirgan fotosuratiga qarab, u o'ziga savol beradi: "Bugungi kunda Yevropadan ko'plab sayyohlar kirib kelmoqda. Shu jumladan, kirib kelgan hind filmlari o'z

an'analariga ega bo'lgan bu mamlakatning madaniyatiga qanday va qanchalik ta'sir o'tkazadi. Bu yerda yashovchi odamlar bu kabi omillar ta'siriga tushib qolishi mumkinmi?" [10].

Bugungi kunning texnik imkoniyatlari (matbuot, televideniye, boshqa ommaviy axborot vositalari, masalan, tobora kengayib borayotgan va eksponent ravishda mashhur bo'lgan Internet tizimi) obyektiv ravishda turli xalqlar madaniyatini birlashtiradi, bu kelajakda, ehtimol, bir nechta multikultural shakllanishlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu o'rinda Gachevning fikri alohida e'tiborga loyiq, u turli xalqlar madaniyati, ularning turmush tarzi (ularning barchasi shaxsiy avtoulov va televizorga ega) va tafakkurining birlashishi («internatsionalizm hamda fandagi matematizatsiya») haqiqatini tan oladi, lekin shu bilan birga, «har bir millat o'ziga xos iqlimi bo'lgunga qadar o'zini o'zi saqlab qoladi», deb hisoblaydi. Fasllar, landshaft, milliy taomlar, etnik o'ziga xoslik va til shular jumlasidandir. Ikkinchisi esa, taniqli lingvoyetnografning fikriga ko'ra, «milliy borliq tafakkur namunalarini doimiy ravishda oziqlantiradi va ko'paytiradi» - deydi [11]. Biz bu muammoga 3-bobda emotsional konseptning lingvokulturologik tahlili jarayonida yana qaytamiz.

Biz emotsional konsepsiyani nafaqat madaniy, balki etnik jihatdan muayyan shartlarga bo'ysunuvchi ruhiy kechinmalarning shakllanishi sifatida ham aniqladik. Ularning etnik jihatdan o'ziga xosligi (uning moddiy va ma'naviy mavjudligining bir turi) ma'lum bir odamlar jamoasining tarixiy rivojlanishi, shakllanishi davomida shakllangan an'analar, urf-odatlar, odatlar, turmush xususiyatlari, tafakkur stereotiplari, xatti-harakatlar modellari yoki namunalari va boshqalar kabi ijtimoiy-madaniy va psixologik xususiyatlari u yoki bu etnik guruh jamoalari bilan belgilanadi. Ularni hisobga olish, albatta, nafaqat etnografik va tarixiy tadqiqotlar, balki tilshunoslik va madaniyatshunoslik, xususan, turli tillarning konsepsiya sohalarini yetarli darajada o'rganish uchun ham muhimdir.

Xulosa. Bizning nazarimizda emotsional konsept, etnik, madaniy jihatdan belgilangan, murakkab tarkibiy va semantik integrativ, aqliy, qoida tariqasida, konseptual asosga asoslangan leksik yoki frazeologik og'zaki ifoda bo'lib, u tushunchaga qo'shimcha ravishda tasvir va baholashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, madaniy qadriyat va mentalitet ob'ektlarning o'ziga xos tartibini aks ettirish (so'zning chuqur ifodasi orqali) va aloqaga kirishish jarayonida, shaxsning tashqi dunyoga refleksiv funksional hamda insonning ularga nisbatan emotsional munosabatini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. М.: Academia, 1997. С. 280-287.

2. Красавский Н.А. Лингвистические методы исследования эмоциональной концептосферы // Лингвистические парадигмы: традиции и новации. Волгаград., Перемена, 2000. - С. 18-28

3. Карасик В.И. Культурные концепты: проблема ценностей // Языковая личность: культурные концепты. Волгаград., Перемена, 1996. - С. 3-16.

4. Батищев Г.С. Социальные связи человека в культуре // Культура, человек и картина мира. М.: Наука, 1987. С. 90-135.

5. Bausinger H. Identitaet // Grundzuege der Volkskunde. Dramstadt, Wissenschaftliche Buchgesellschaft, 1980. - P. 212-213

6. Poyatos F. Gesture Inventories: Fieldwork Methodology and Problems // Nonverbal communication, interaction, and gesture. Selections from Semiotica. The Hague-New York. Mouton Publishers. 1981. - B. 371-399.

7. Kroeber A. L., Kluckhohn C. Culture. A critical Review of concepts and definitions. 1963. - B. 11-56.

8. Hudson R. Subject-verb agreement in English. English Language and Linguistics 3: 1999. - P. 173-207.

9. Bayer, J. and J. Kornfilt. Against scrambling as an instance of movealpha". In Studies on Scrambling, H. van Riemsdijk and N. Corver (eds), 1994. - P. 17-60.

10. Hannerz U. Kultur in einer vernetzten Welt. Zur Revision eines ethnologischen Begriffes // Kulturen –Identitaeten – Diskurse. 1995, 70 bet.

11. Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Общие вопросы Русский. Болгарский. Киргизский. Грузинский. Армянский. М.: Сов.писатель, 1988.

UDK:811.512.133`36

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA AFFIKSATSIYA USULI YORDAMIDA YASALGAN TAOM NOMLARI

***Annotatsiya**: Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi taom nomlarining affiksatsiya usuli orqali yasalishiga bag‘ishlanadi. Shuningdek, ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi taom nomlari, so‘z yasovchi qo‘shimchalar va so‘z yasalish usullari haqida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** qovurdoq, qaynatma, dimlama, suzma, cho‘zma, abbreviatsiya, affiksatsiya va kompozitsiya.*

***Аннотация**: Данная статья посвящена образованию названий продуктов питания в английском и узбекском языках методом аффиксации. Также в этой статье представлена информация об английских и узбекских названиях блюд, словообразовательных суффиксах и способах словообразования.*

***Ключевые слова:** обжаривание, кипячение, окунание, плавание, вытяжка, аббревиатура, аффиксация, композиция.*

***Annotation:** This article is devoted to the formation of food names in English and Uzbek languages by the affixation method. Also, this article provides information about English and Uzbek food names, word-forming suffixes, and word-formation methods.*

***Key words:** frying, boiling, dipping, swimming, stretching, abbreviation, affixation and composition.*

Mahliyo NORBOYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti,
ingliz tili magistranti

***Oysuluv URALOVA**,*
Termiz davlat pedagogoka instituti,
Phd

Taomlarning nomlari milliy o'ziga xoslik belgisi sifatida odamlarni nima yeyayotgani bilan tavsiflanishi mumkin. Taomlar, nafaqat xalqimizning ulkan xazinasi va milliy faxri hamdir. Har bir taom nomining paydo bo’lishida o’zbek xalqining chuqur tarixi va kelib chiqishi yotadi.

Bu sohaning yuksalishiga xalqimizning eng taniqli olimlarning hissasi katta. Jumladan, filologiya fanlari nomzodi

Gulnoza Odilovaning “Dunyo adabiyotida “taom” va “tavovul” mavzusi ustida ishlagani taom nomlarining kelib chiqishiga katta hissa qo‘shgan. Qolaversa, Y.U.Nurovaning “Suyuq ovqat nomlari ishtirok etgan paremalarning etnolingvistik tadqiqi” asari ba’zi oziq-ovqat nomlari etimologiyasi bilan bog‘liq sohaning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

So‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lib, u yangi so‘z yasash, so‘z yasash usullari va vositalarini o‘rganadi. Tildagi so‘zlarning yasash tarkibini hamda ularning yasalish usullarini aniqlash bu bo‘limning asosiy vazifasidir.

So‘z yasash usullari. Qanday usul bilan bo‘lsa-da, yangi so‘z hosil qilishga so‘z yasalishi deyiladi. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasalishining turli usullari mavjud. Ular quyidagilar:

- Semantik usul;
- Fonetik usul;
- Abbreviatsiya usuli;
- Affiksatsiya usuli;
- Kopozitsiya usuli.

Ingliz va O‘zbek tillaridagi aksariyat taom nomlari affiksatsiya va kompozitsion usul orqali yasalgan. So‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yangi so‘z hosil qilinishiga affiksatsiya usulida so‘z yasalishi deyiladi. Yasovchi asosga affikslar qo‘shish bilan ot, sifat, fe`l, ravish turkumiga oid so‘zlar yasaladi. Bunday usul orqali yasalgan taom nomlariga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin, ammo ba’zi hollarda ular ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan taom nomlarining tarkibiy qismi ham bo‘lishi mumkin.

1. Qaynatma – qaynatish orqali tayyorlanadigan suyuq ovqat, shuningdek, sho‘rvaning bir turi hisoblanadi. “Qaynamoq” fe’liga “t” buyruq mayli qo‘shimchasi va “ma” ot yasovchi affiksi qo‘shilishi orqali yasalgan.
2. Dimlama - dimlab tayyorlanadigan taom. Go‘sht yoki baliq, turli sabzavot va ba’zi mevalardan pishiriladi. Dimlama taom nomi “dimlamoq” fe’liga “ma” ot yasovchi affiksi qo‘shilishi orqali yasalgan.
3. Qovurma – qovurish orqali tayyorlanadigan suyuq va quyuq taom turi hisoblanadi. Ushbu taom nomini sho‘rva yoki lag‘mon taom nomlari bilan birgalikda foydalanish odatiy holat hisoblanadi. Qovurma so‘zi “qovurmoq” fe’liga “ma” ot yasovchi affiksi qo‘shilishi orqali yasalgan.
4. Cho‘poncha – go‘shtni qovurish orqali tayyorlanadigan taom turi hisoblanadi. Bu taomning kelib chiqishi O‘zbek an’analariga borib taqaladi, ya’ni, ko‘plab hududlarda go‘sht mahsulotini ta’minlab beruvchi jonzotlar cho‘ponlar tomonidan parvarish qilinadi. Cho‘poncha taom nomi cho‘pon ot so‘z turkumidagi so‘zga “cha” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.
5. Qovurdoq - go‘sht, kartoshka, tuxum, guruch va boshqa mahsulotlarni qovurish orqali tayyorlanadigan taom hisoblanib, uning iste’mol qilinish usullari turlicha.

Qovurdoq taom nomi “qovurmoq” fe’liga “doq” ot yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.

6. Shilpildoq - xamirdan tayyorlanadigan taom turi hisoblanadi va asosan O‘zbekistonning ma’lum bir hududidagina tayyorlanadi. Ushbu taom nomi shilpillamoq fe’liga “doq” ot yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.
7. Varaqi - xamir, go‘sht va piyozdan tayyorlanadigan taom nomi, somsaning bir turi hisoblanadi. Varoq ot so‘z turkumidagi so‘zga “i” sifat yasovchi affiks qo‘shilishi natijasida yasalgan. Ammo, ushbu taom nomi sifat so‘z turkumi sifatida emas, balki ot so‘z turkumi sifatida foydalaniladi.
8. Cho‘zma – xamirni achitish usuli orqali tayyorlanadigan non mahsuloti hisoblanadi. Cho‘zma taom nomi “cho‘zmoq” fe’liga “ma” ot yasovchi affiksi qo‘shilishi orqali yasalgan.
9. Suzma - (boshqa nomi qatiq) qatiqdan suvini ajratib olish orqali olinadigan sut-qatiq mahsuloti. Suzma — sut mahsuloti. Asosan, O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda uy sharoitlarida tayyorlanadi. Ushbu taom nomi “suzmoq” fe’liga “ma” ot yasovchi affiksi qo‘shilishi orqali yasalgan.
10. Qatlama - oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan taom. Boshqa shu kabi pishiriqlardan qatlamligi bilan ajralib turadi. Qatlama so‘zi “qatlamoq” fe’liga “ma” ot yasovchi affiksi qo‘shilishi orqali yasalgan.

Affiksatsiya usuli orqali yasalgan taom nomlarini Ingliz tilida ham uchratsa bo‘ladi, biroq ushbu tildagi affikslar O‘zbek tilidagi affkslardan keskin farq qiladi.

1. Fried Pasta (qovurilgan makaron) – makaron va go‘sht mahsulotlarini qovurish orqali tayyorlanadigan taom hisoblanadi. Shuningdek, uning tarkibida pishloq ham ishtirok etadi.

Ushbu taom nomidagi fried so‘zi yasama va u fry fe’liga “ed” sifat yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.

2. Smoked Frog (dudlangan qurbaqa) – qurbaqa go‘shtini dimlab pishirish orqali tayyorlanadi. Ushbu taom nomidagi smoked so‘zi yasama va u smoke fe’liga “d” sifat yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.
3. Grilled Fennel (qo‘rada pishirilgan arpabodiyon) – arpabodionni maxsus pechda pishirish orqali tayyorlanadigan mashxur ingliz taomlaridan biri hisoblanadi.
   Ushbu taom nomidagi grilled so‘zi yasama va u grill fe’liga “ed” sifat yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.
4. Infused Fennel (damlangan arpabodiyon) – arpabodiyon giyohini qaynatilgan suvga damlash orqali tayyorlanadi. Ushbu taom nomidagi infused so‘zi yasama va u infuse fe’liga “d” sifat yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.
5. Coodled eggs (pishirilgan tuxumlar) – tuxumni mikroto‘lqinli pech vositasida yoki bug‘ yordamida pishirish orqali tayyorlanadigan taom turi hisoblanadi.
   Ushbu taom nomidagi coddled so‘zi yasama va u coddle fe’liga “d” sifat yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.
6. Barbecued Thyme (mangalda pishirilgan kekik) – o‘z nomi aytib turganidek kekikni mangal ya’ni qo‘ra yordamida pishirish orqali tayyorlanadigan taom turi hisoblanadi. Ushbu taom nomidagi barbecued so‘zi yasama va u barbecue fe’liga “d” sifat yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.
7. Steamed Pudding (bug‘da pishirilgan pudding) – pudding ya’ni inglizcha desertni bug‘da pishirish usuli orqali tayyorlanadigan taom turlaridan biri hisoblanadi.
   Ushbu taom nomidagi steamed so‘zi yasama va u steam fe’liga “ed” sifat yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. T., 2005.
2. B.Mengliyev, O‘.Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. T., 2007.
3. Qilichev E. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. Buxoro, 2001.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
5. Webster. (2019, March 30). Webster. Retrieved from Webster Dictionary: https://www.merriamwebster.com/dictionary/exotic
6. www.ziyo.uz
7. www.uzdenemtr.uz

МАЪНОЛАР МАҲЗАНИ

“ҚУТАДҒУ БИЛИГ” ҲИКМАТЛАРИ

- Одам ўз кунлари фароғатли бўлишини истаса, фароғат ва эминликни тўғриликдан изласин.
- Ўзинг бек бўлмоқни истасанг, тўғрилик билангина унга эришасан.
- Халқ устидан буюк бўлайин десанг, ўзинг учун тўғрилик йўлини танлаб ол.
- Фақат яхшилик қил, ёмон ишдан узоқ юр, сенга ҳам фақат эзгулик эваз бўлиб қайтади.
- Ярамас ишга яқинлашма, сенга зиён бериб қўяди, ёмонлик мисоли бир илондир, у сени чақади.
- Ичкилик ичма, нобакорларга аралашма, ўзинг эзгуликка эришишни истасанг, ҳамиша эмин юр.

Юсуф Хос Ҳожиб

UDK:811.512

QORAQALPOG‘ISTONDAGI TURKMANLAR TILIGA QORAQALPOQ TILINING TA‘SIRI

Maya BABAYEVA,
Ajiniyoz nomidagi NDPI “Qozoq tili ham adabiyoti” kafedrasi turkman tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘zaro ahil-inoq bo‘lib yashayotgan turkiy tillardan biri bo‘lgan turkman tilining qoraqolpoq tili ta‘sirida gapirishi va uning sabablari, milliy madaniy markazi, uning faoliyati haqidadir.*

Kalit so‘zlar: *qoraqalpoq tili, turkman tili, milliy madaniy markaz, millatlararo hamjihatlik.*

Аннотация: *В данной статье речь идет о туркменском языке, одном из тюркских языков, живущих в гармонии между собой на территории Республики Каракалпакстан, на котором говорят под влиянием Каракалпакского языка, и его причинах, национальном культурном центре, его деятельности.*

Ключевые слова: *каракалпакский язык, туркменский язык, национальный культурный центр, межнациональная солидарность.*

Annotation*: This article is about the Turkmen language, one of the Turkic languages living in harmony with each other on the territory of the Republic of Karakalpakstan, which is spoken under the influence of the Karakalpak language, and its causes, the national cultural center, its activities.*

Key words: *Karakalpak language, Turkmen language, National Cultural Center, interethnic solidarity.*

Hozir dunyodagi mamlakatlarning aksariyati ko‘p millatli, ko‘p madaniyatli xarakterga ega. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi ham aynan shunday mamlakatlar jumlasiga kirib, ushbu hol fuqarolar o‘rtasidagi tinchlik-totuvlik hamda millatlararo hamjihatlikni saqlab qolishga to‘sqinlik qilmaydi.

Mustaqilliklning dastlabki kunlaridan olib borilgan odilona siyosatning samarasi, shuningdek azaliy xalqimizning yuksak fazilatlari sabab bugun barcha millat va din vakillari yurtimizda tinch hamda ahil yashab, hayot kechirmoqdalar. Ayniqsa, so‘nggi yillarda ko‘plab sohalar kabi millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik yangi bosqichga ko‘tarildi. Endi bu boradagi O‘zbekiston amaliyoti va tashabbuslari jahon hamjamiyatida ham ijobiy namuna sifatida qabul qilinmoqda.

Jumladan, mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 2018-yil 12-dekabrdagi yalpi sessiyasida qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" maxsus rezolyusiyasi fikrimizga isbot bo'la oladi [1:5].

Har bir tilning jamiyatda o'z xizmat va vazifalarini to'la ado etishi, ijtimoiy faoliyatini erkin davom ettirishi uchun mavjud ijtimoiy-tarixiy sharoit, til qo'llanishi muhiti katta ahamiyatga ega bo'ladi. Sir emaski, millatlar va xalqlar katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar butun insoniyatning noyob boyligi va oliy qadriyatidir.

Qoraqalpog'iston hududidagi tillar vaziyati murakkab xarakterda bo'lib, bu hududda turli tillar oilasiga mansub bo'lgan, rivojlanish darajasi har xil, o'zlarining ijtimoiy vazifalari, qo'llanilish doiralari va ijtimoiy sharoiti bir-biridan farqlanuvchi tillar faoliyat ko'rsatadi.

Bu o'lka ko'p millatli o'lka bo'lib, unda yuzdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Shu sababli Qoraqalpog'istonda til muammolarini oqilona hal qilish muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega [2:34].

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida o'zaro ahil-inoq bo'lib yashayotgan xalqlar, xususan, qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va turkman xalqlari dialektlarini o'rganish, bu tillarni sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilishda kommunikativ muhit va sotsiolingvistik zona tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 1989-yilning 1-dekabrida qoraqalpoq tilining davlat tili deb e'lon qilinishi va shunga muvofiq qonun qabul qilinishi qoraqalpoq tili hayotida yangi sahifa ochdi. Qoraqalpoq xalqining oliy qadriyati va milliy o'zligining asosiy belgisi hisoblangan qoraqalpoq tilining davlat tili sifatidagi maqomini qaror toptirish bo'yicha ancha ishlar amalga oshirildi. Ish yuritishda qoraqalpoq tilining mavqei ko'tarildi. Ommaviy axborot vositalari: matbuot, radio, televideniyeda qoraqalpoq tilining hissasi oshirildi. Oliy o'quv yurtlarida fakultetlararo kafedralar tuzildi, boshqa millat vakillarini qoraqalpoq tilida o'qitish yo'lga qo'yildi [2:89].

O'zga tilli maktablarda o'zbek davlat tili bilan bir qatorda qoraqalpoq davlat tili ham o'tila boshladi. Bu esa tillarning o'zaro ta'siriga olib keladi.

Turkman va qoraqalpoq tillarining o'zaro ta'siri turkman-rus, turkman-ingliz, turkman-arab tillarining o'zaro ta'siri bilan bir xil emas. Chunki bu tillarning o'zaro ta'siri, birinchidan, iqtisodiyoti, fan-texnika, madaniyati jihatidan rivojlangan xalqlardan namunalar olib, ularning ish tajribasidan foydalanish natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchidan, o'xshashligi bo'lmagan tillar bilan so'z boyligi va grammatik tuzilishi jihatidan bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi. Ammo, turkman va qoraqalpoq tillarining ta'siri, birinchidan, birga yashayotgan bu xalqlarning hayotiy munosabatlariga asoslangan bog'liqlik bo'lsa, ikkinchidan, turkman va qoraqalpoq tillari qarindosh tillar bo'lib, turkiy tillar guruhiga kiradi. Ushbu tillar lug'at va grammatik tuzilish jihatidan juda ko'p umumiy xususiyatlarga ega.

Qoraqalpoq ham turkman xalqlari uzoq davrlardan beri yonma-yon yashashadi. Kunda-likli hayot tarzida ularning tillari qator qo'llanilib, so'zlashuvlar natijasida bir-biriga ta'sirini yetkazadi. Shuning uchun turkmanlarn-ing so'zlashuv tilining qoraqalpoq tili bilan o'zaro ta'sirining natijalarini har tomonlama o'rganish, lingvistika uchun katta ahamiyatga ega.

O'zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman til-larining o'zaro ta'siri haqida akademik A.D.Davletov: "Qoraqolpog'istonda yashovchi turkiy tilli to'rt xalqning asrlar bo'yi birga yashashi ularning so'zlashiv tilida o'zgacha iz qoldirdi. Ushbu tillarning o'zaro ta'sirini, bir-bi-rini boyitishini tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi,"– deb yozadi [3:4].

Qoraqalpog'istonda yashovchi turkmanlarni qoraqalpoq millati vakillari bilan munosabatiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Qoraqalpoq millati vakillari bilan pas-siv munosabatda bo'lgan turkmanlar.
2. Qoraqalpoq millati vakillari bilan vaq-tinchalik aloqada bo'lgan turkmanlar.
3. Qoraqalpoq millati vakillari bilan faol aloqada bo'lgan turkmanlar [4:4].

Birinchi guruhga mansub turkmanlar Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l tumanining “Ata yurt”, “Pagtaçy”, “Kelteminar”, “Ata oba”, “Akgamyş”, “Miskin”, “Aramçukur”, “Emirabat” qishloqlarida yashaydigan turkmanlar tilini misol o‘rnida keltirishimiz mumkin. Ular yashayotgan hududda qoraqalpoq millatiga mansub kishilar oz sonli bo‘lgani uchun tillarida unchalik qoraqalpoq tilining elementlari sezilmaydi. Aksincha, bu guruhga kiruvchilar turkman-o‘zbek ikki tilli xususiyatiga ega kishilardir.

Hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘istonda yuz mingdan ko‘proq turkmanlar istiqomat qiladi. Ularning ayrim etnik guruhlari ata, igdir, arabachi va yovmutlardir. Qoraqalpog’istonning To‘rtko‘l, Beruniy, Ellikqal’a, Shumanay, Qo‘ng‘irot, Taxiatosh, Xo‘jayli va Amudaryo tumanlarida o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq xalqlari bilan birgalikda yashab kelmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining janubiy tumanlari hisoblangan To‘rtko‘l, Beruniy, Ellikq‘al‘a tumanlarida asosan ata turkmanlari istiqomat qiladi. Yovmut turkmanlari Amudaryo, Shumanay, Taxiatosh va Xo‘jayli tumanlarida yashaydi.

Xo‘jayli tumani ham qadimdan o‘zbek xalqi yashab kelayotgan hududlardan biridir. Hozirgi davrda Xo‘jayli shahrida asosan o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar istiqomat qiladi (boshqa millat vakillari ular bilan aralashib yashaydi). Shaharda o‘zbek aholisi ko‘pchilikni tashkil qiladi. Tumanning Ozodlik, Nayman fermer xo‘jaliklarida turkman millatiga mansub aholi zich yashaydigan o‘rinlar ham yo‘q emas.

Bu hududga qoraqalpoqlar orasida yakka holda yashovchi qoraqalpoq tilida bekam-u ko‘st gapiruvchi, turkman tilida esa qoraqalpoqcha talaffuz bilan so‘zlashuvchi turkmanlar kiradi. Aksincha, Qoraqalpog‘istonning janubiy tumanlarida istiqomat qiluvchi oz sonli qoraqalpoqlar nutqida turkman tilining ta‘siri kuzatilgan. Buning natijasida qoraqalpoq adabiy tilidagi jarangli **j** undoshining o‘rniga **ý** undoshi ishlatiladi. Masalan: ýok-joq, ýerli jügäri – jerli jügäri, ýüz-jüz, ýedi – jeti, ýap-jap, ýumuş-jumıs.Ýoq esitkàn emespàn qarag‘ım. Ýüz somg‘a almaytug‘ın baspaqlardı ýüz elli somg ‘a sattıg ‘o.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l shahrida faoliyat yuritayotgan markaz 2002-yildan buyon Dunyo turkmanlarining insonparvarlik tashkiloti a’zosi hisoblanadi. Markazda turkman tilida chiqadigan “Mekan” gazetasi tahririyati, turkman va boshqa tillardagi adabiyotlar bilan jihozlangan kutubxona mavjud. Bugungi kunda To‘rtko‘lning o‘zida 20 dan ortiq maktabda ta’lim turkman tilida olib borilmoqda. O‘zbekistonda turkman tilidagi maktab darsliklari ham Qoraqalpog‘istonlik mualliflar tomonidan ham tayyorlanmoqda. Shu o‘rinda A.Kadirov, G.Velbegov, G.Abdullayevalarning turkman tilida darslik va boshqa adabiy kitoblar yaratishda o‘z kuch-g‘ayratini sarflaganlarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz [6].

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan milliy-madaniy markazlar qoshida nashrlar tashkil qilinib, mazkur markaz faoliyatini yanada ommalashtirish, sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarni keng yoritishda alohida ahamiyat kasb etdi. 2001-yil yanvar oyidan Turkman milliy-madaniy markazi qoshida turkman tilidagi “Mekan” gazetasi nashr etildi [7].

Hozirgi vaqtda “Mekan” gazetasiga bir nechta o‘qituvchilar va o‘quvchi yoshlar obuna bo‘lib, o‘zlarining ijodiy ishlarini va maqolalarini chop ettirib kelmoqdalar.

Bu esa shu hududdagi turkmanlarning o‘z milliy tilini, urf-odatlarini va madaniyatini to‘liq saqlab qolishiga olib keladi. Biroq shunday bo‘lsa-da uzoq vaqtlar davomida qo‘shnichilikda yashashlari, ko‘proq ommaviy axborot vositalarini tomosha qilishlari, mahalliy xalqning to‘ylarida qatnashishlari, qoraqalpoq va o‘zbek tillariga davlat tili maqomi berilishi ham turkmanlarning so‘zlashuv tiliga qoraqalpoq tilining oz bo‘lsa-da ta‘sir qilishiga olib keladi.

Masalan:

Myrat azanda size gitdigoý. (Myrat ertir bilen size barýardy-la.) Jereniň sumkasy dym zor eken.(Jereniň alan sumkasy gaty gowy eken.) Men ýene gelerin birak işimi bitirmeseň özüňnen gör!(Men ýene-de gelerin welin işimi bitirmeseň özüňden gör!).

Bu misollardagi *“-goý, -dym, keýin, birak*” kabi elementlar qoraqalpoq tiliga mansub bo‘lib, turkmanlarning birinchi guruhining

so‘zlashuv tilida kam qo‘llaniladi. Ya’ni, bu guruhdagi turkmanlar bilan qoraqalpoq millati vakillari o‘rtasidagi hayotiy munosabatlar passiv bo‘lgani uchun bu guruhning so‘zlashuv tiliga qoraqalpoq tilining ta‘siri unchalik sezilmaydi.

Har bir inson boshqa millat vakili bilan aloqa qilmoqchi bo‘lsa, imkon qadar o‘sha xalqning tilida gapirishga harakat qiladi. Uning uchun aytmoqchi bo‘lgan so‘zlarini (fikrlarini) o‘sha tilda shakllantirishga harakat qiladi. Shunday qilib, u o‘z ona tili elementlarini so‘z shaklida yoki noto‘g‘ri bo‘lgan boshqa shaklda ishlatadi. Natijada ikki tillilik (bilingvizm) hodisasi yuz beradi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi turkmanlar Qoraqalpog‘istonning Xo‘jayli tumanining “Aýböwir”, “Gum oba”, “Atalyk oba”, “Aýmyrat oba” qishloqlarida, Sho‘manay tumanining “Töre oba” , “Gagarin”, “Meňlaly”, “Tirken” hamda “Azat” nomli jamoa xo‘jaliklarida, Taxiatosh tumanidagi qishloqlarda qoraqalpoq millati vakillari bilan yonma-yon yashaydilar. Ularning qoraqalpoqlar orasida oz sonli bo‘lib yashashlari, qoraqalpoq bolalari bilan birga yoshlikdan o‘ynab ulg‘ayishlari, qoraqalpoq tilidagi maktablarda ta’lim olishlari hamda shu millat vakillari bilan oila qurishi mazkur tilning so‘zlashuv tiliga kuchli ta’sir qilgan. Yoshlari esa qoraqalpoq tilida tiniq va ravon gapira oladilar, turkman tilida gapirganlarida esa qoraqalpoq tilining ta‘siri kuchli seziladi. Masalan: *Kapynyň agzynda turmaňşeş. Maňada bazardan bir zat getirip berşeş. Ol häzir öýge kelüw kerek. Biz bu gün barywymyz gerek. Men öýge barywym kerek. Şaşymdy alyp ber.*

Uchinchi guruhga mansub bo‘lgan turkmanlarga turkmanlarning zich joylashgan yerlaridan shahar markaziga malaka oshirish uchun kelganlar va Oliy ta’lim muassasalariga ilm olish uchun kelgan yoshlarni misol qila olamiz.

Har bir inson qaysi millat vakili bilan muloqot qilmoqchi bo‘lsa, iloji boricha o‘sha millatning tilida gapirishga haraqat qiladi. Shuning uchun ham aytmoqchi bo‘lgan (fikr)ni o‘sha tilda aytishga harakat qiladi, lekin ikkinchi tilni yaxshi bilmagani uchun so‘zning o‘ziga va uning ma’nosiga ko‘proq e’tibor berishadi, so‘zning shakliga kamroq e’tibor qaratishadi. Bunday odamlar so‘zlashuv tilida qoraqalpoq tilidagi *bersesh* so‘zini ber, kөrgen so‘zini *kören* yoki *görgen, keledi* so‘zini *geledi* [5] kabi formalarda turkman tilining elementlarini qo‘shib gapirishadi.

Ammo, vaqt o‘tishi bilan ularning kundalikli muloqot qilayotgan tili qoraqalpoq tili bo‘lganligi uchun, ularning tili turkman tili bo‘lsa ham qoraqalpoq tilini juda yaxshi o‘rganadilar. Ular o‘qishlari tamom bo‘lganidan keyin o‘z qishloqlariga ham qaytganlarida o‘zlari bilmagan hollarda qoraqalpoq tilining elementlarini qo‘shib gapirishadi. Masalan: *Nökis zordygoý. (Nöküs gowudy-la). Her kün üş para okoýok. (Hergün üç para okaýarys). Şaý kuý (Çaý guý).*

Ushbu tillar o‘zaro tas‘irlashganda, har bir element birinchi navbatda shaxs tomonidan qo‘llaniladi, keyin u jamoatchilik tomonidan qabul qilinadi va o‘zini takrorlay boshlaydi. Bu haqida E.Haugen: “Tilning har bir elementi avval bir kishi tomonidan qo‘llaniladi, keyin ko‘pchilik tomonidan qabul qilinadi va nutqda qo‘llaniladi”[10:344].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ta’sirlashgan turkman va qoraqalpoq tillarining har biriga xos nutq mexanizmlarining o‘zaro aloqadorligini ko‘rib chiqsak. Til aloqalari tushunchalarini ifodalovchi terminlardan biri bilingvizmdir. Bilingvizm (ikki tillilik) ikki tilda bemalol muloqot qilish, ikki til sohibi bo‘lish demakdir. Ikki tilda o‘zaro kommunikativ munosabatga kirishuvchi shaxslar bilingvlar hisoblanadi.

Qoraqalpog‘istonda yashovchi turkmanlar orasida aralash ikki tillilik keng tarqalgan. Ikki tillilikning bunday holatlarida bir tilning elementlari ikkinchi til elementlari bilan aralashib ketadi. Aralash ikki tillilik ko‘plab o‘zlashtirilgan elementlarni ikkinchi til tarkibiga o‘tkazish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bulardan tashqari bu ikki til orasida adabiy aloqalar ham bo‘lgan. Qoraqalpoqlar bilan turkmanlar qarindosh sifatida bir-birini tog‘a-jiyan deb hisoblab, ularning bir-biriga tushunishi, yaxshi munosabatlarining bo‘lganligini aytib o‘tishimiz mumkin. Chama bilan aytganda, o‘sha

davrlardan boshlab, turkman mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi Maxtumqulining (Magtymguly Pyragy) she'rlari har bir qoraqalpoqning qalbiga singa boshlagan. Keyingi davrda Maxtumquli bu xalq ichida shunday tanilib ulgurganki, hatto, uning turkman ekanligini ham unutib, o'zlarining jonkuyar qoraqalpog'i hisoblashgan. Bu esa turkmanlar bilan qoraqalpoqlar o'rtasidagi munosabatlarning ildizi chuqur ekanligidan dalolatdir.

XVIII asrda janubiy Orol bo'ylari, qo'shni davlatlar, Qoraqalpog'iston diyorida ham, ya'ni bizning besh qal'amiz Shobboz, Sho'raxan (To'rtko'l) Shimbay, Xo'jayli, Qo'ng'irot kabi shaharlarga Maxtumquli sayohat qilgan. Bu borada ulug' shoirlarimiz o'zlarining badiiy asarlarida keltirib o'tgan.

Baxshilar Maxtumqulining she'rlarini hech bir qiyinchiliksiz xalqqa yetkazgan. Keyinchalik esa, Ajiniyaz va Berdaqning bu sohada katta ishlar ishlaganini hech ham unitishimiz mumkin emas. Ular ikkita xalqning aloqa va do'stligini mustahkamlashga kuch-g'ayratlarini ayamasdan o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar, hozirgi kunda qoraqalpoq xalqi to'y marosimlarini Maxtumqulining qo'shiqlarisiz o'tkazmaydi [10:134-135].

Yuqorida aytib o'tilganlar esa, faqatgina qoraqalpoq va turkman xalqlarining orasidagi adabiy aloqalar emas, balki ularning bir-biriga bo'lgan ishonchini, do'stligini mustahkamlashga asos bo'lgan. Sababi "XVIII-XIX asrlarda turkman va qoraqalpoq xalqlari bir xil tarixiy sharoitda kun kechirdi. Shuning uchun bu xalqlarni bir-biridan ayirish juda qiyindir" [11:12].

Сиз сүўретте көрип турған көринисте қумлықта бир топар балалар жыйналған, ортада бир бала дизерлеген бойы қолларын жеңине тығып алдыға бүкшейип отыр.

Арқасында шапанының ишинен салынған бир нәрсе дөңис шығып тур, ал басынан болса, шаршы менен оралған еки үрпейген қалың қара жүннен исленген қулақ орнатылған. Бул жерде қарақулақтың еки қулағына мегзелгени анық. Ойынның толық қағыйдасы болса, анық емес.

Сүўретке алынған аты белгисиз ойынларға тоқтап өтетутуғын болсақ, биринши ойын оғада қызықлы. Онда еки бала жерде отырып бир-бирине қос аяқларын созып, бирлестирип, табанларын үсти-үстине қойып айқастырып тирескен. Соның менен бирге, оның үстине бас кийимлери – тақыяларын да жоқарыға жалғастырып атыр. Бул ойын сол ўақыттағы балалардың “әўелемен-дүўелемен” сыяқлы ҳәрекет ҳәм сөз ойынына мегзейди (1-сүўрет).

Ал, екинши ойында болса, топарласқан балаларға дус келемиз. Онда 10-12 бала қара жерде аяқларын қапталға ашып, тап атқа мингескен сыяқлы бир-бириниң изине қатара дизилген. Бул дизбектиң басында (ойын баслаўшы бала болыўы итимал) болса, бир бала тикке буларға қарап тур. Бул ойын да жоқарыдағы сыяқлы балаларды шешенлик ҳәм ҳәрекетшеңликке бағдарлайтуғын ойынларға уқсас (2-сүўрет).

Аты белгисиз болған үшинши ойын көрген адамды терең ойға талдырады. Себеби, бул ойын әйемги диний мәресимлерди еслетеди. Бир топар балалар қур болып жыйналған.



Ортада бир бала еки қолын аспанға жайып, ҳүким оқып атырғандай. Ал оның аяқларының астында болса, және бир бала шалқасына бир аяғын көтерип жатыр. Қурды айланшықлап турған балалар да қолларын алдыға созған. (3-сүўрет)

Жуўмақлап айтқанда биз бул кишигирим илимий жумысымызда А.Л.Мелков сүўретке алған Қарақалпақ миллий балалар ойынлары ҳаққында сөз еттик. Көрип турғаныңыздай, илимпаздың мийнетлери еле де изертлеўди талап етеди. Соңғы жылларда Өзбекстан Республикасы Президенти тәрепинен елимизде миллий ойынлар ҳәм усы тийкарда жүзеге келген этноспорт түрлерин ғалаба ен жайдырыў ҳәм раўажландырыў бағдарында көлемли жумыслар алып барылмақта[1]. Соннан келип шыққан ҳалда, келешек әўладларды физикалық

ҳәм руўхый жақтан тәрбиялаўда умытылып баратырған миллий

ойынларымызды ҳәр тәреплеме илимий изертлеў бүгинги күндеги тийкарғы ўазыйпалардан болып табылады, деп ойлаймыз.

Пайдаланылған әдебиятлар дизими:

1. Б.Г.Белинкий. «Адабий орзулар», Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент – 1977, 6-в.

2.https://yuz.uz/news/etnosport-turlarini-ommalashtirish-va-rivojlantirish-chora-tadbirlari-togrisida

3.Әмирлан.С.Е. «Қарақалпақ балалар фольклоры үлгилериниң жыйналыў ҳәм жәрияланыў мәселелери». «Халық аўызеки дөретиўшилиги миллий ҳәм улыўма инсаный қәдириятлар системасында» Халықаралық илимий конференция материаллары. Нөкис, 2015-жыл, 26-27-ноябрь. 17-20-бетлер.

4.Сонда. 97-99-бетлер

5.Экспонаты Кунсткамера (kunstkamera.ru)

6.К.Есемуратов, П.Серимбетов. Қарақал-пақ миллий ҳәрекетли ойынларын үйрениў. Нөкис, Қарақалпақстан – 2005. 16-бет.

7.Сонда. 16-бет.

8.К.Есемуратов. Дене тәрбиясы, Нөкис, билим -1994. 66-бет.

9.Сонда. 63-бет.

10.Халық аўзынан жазып алынған.

11.Г.Утепбергенов, Ә.Қайыпов. Палўанлардың әдиўли устазы. Нөкис-2019, 3-бет.

УДК: 81`373.45:81`42

УСТАРЕВШИЕ ЛАТИНИЗМЫ В РЕЧИ УЗБЕКОЯЗЫЧНЫХ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СТАРШЕГО ПОКОЛЕНИЯ

***Аннотация**: В данной статье рассматриваются семантические особенности устаревших слов латинского происхождения, которые функционируют в речи узбекоязычных представителей старшего поколения. Указанные единицы классифицированы на две группы: историзмы и архаизмы и описаны особенности каждой группы.*

***Ключевые слова**: заимствование, латинизм, историзм, архаизм, прямое заимствование, опосредованное заимствование, представитель старшего поколения.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbekzabon keksa avlod vakillari nutqidagi lotin tiliga oid eskirgan o'zlashma birliklarning semantik xususiyatlari tadqiq qilingan. Ushbu birliklar ikkita guruhga (istorizmlar va arxaizmlar) ajratilgan va ularning o'ziga xosliklari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar**: o'zlashma, lotin tiliga oid so'z, istorizm, arxaizm, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashma, vositali o'zlashma, keksa avlod vakili.*

***Annotation**: This article examines the semantic features of obsolete words of Latin origin that function in the speech of Uzbek-speaking representatives of the older generation. These units are classified into two groups: historicisms and archaisms and the features of each group are described.*

***Key words**: borrowing, Latinism, historicism, archaism, direct borrowing, indirect borrowing, a representative of the older generation.*

Сурожбек РУЗМЕТОВ,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, заведующий кафедрой, Ургенчский государственный университет

В целях определения этимологической характеристики заимствований, функционирующих в речи узбекоязычных представителей старшего поколения (далее – ПСП), нами было проанализировано более 100 интервью на различные темы, размещенных в основном на сайте https://www.youtube.com. В результате анализа было выявлено 1037 заимствованных единиц. Количество латинизмов составило 139 единиц (13,4%).

Под латинизмами в данной статье понимаются слова или обороты речи, заимствованные из латинского языка.

Латинизмы в современном узбекском языке неоднородны: во-первых, есть как слова из классического латинского языка, так и слова, пришедшие из средневековой латыни. Во-вторых, часть латинских слов пришла в узбекский язык практически в первозданном виде, другая часть слов изменилась под влиянием языков-посредников, в частности, русского языка, который в советский период выполнял функцию языка-посредника.

Латинизмы также как и арабизмы представляют самую продуктивную группу иноязычных заимствований, встречающихся в речи узбекоязычных ПСП. По способу заимствования латинизмы были распределены нами на прямые (105 слов) и опосредованные (139 слов) заимствования. Напрямую были заимствованы слова типа *адвокат, декан, контракт, оператор, фамилия.*

Среди латинизмов, проникших в узбекский язык из языков-посредников, можно встретить слова типа *армия, гвардия, концерт, пенсия, университет.*

Среди опосредованных латинизмов, употребляемых в речи ПСП, нами были обнаружены слова, на первый взгляд имеющие «облик» русских слов, но их наличие в словарях иностранных слов позволяет нам утверждать, что они образованы из продуктивных иноязычных слов путем прибавления русских суффиксов: *абсолютно, активный, импортный, коммерческий, компетентный.* Необходимо отметить, что включение в речь слов с элементами русского языка является одной из особенностей речи узбекоязычных ПСП, обусловленной языковой действительностью советского периода, когда русский язык был официальным языком страны. Пример употребления: *Бизнинг фильмларимиз коммерческий эмас, демоқчиман* [Ист. 4].

В речи узбекоязычных ПСП нам удалось обнаружить единицы типа *кандидат, комитет, коммунист, министр, партия* (в знач. Коммунистическая партия)*, план, революционер, финанс* (именно в форме ед. числа), которые могут служить геронтологической маркировкой возрастной группы. Исходя из семантической характеристики, вышеуказанные слова можно разделить на две подгруппы:

1) наименования устаревших предметов, явлений (историзмы): *коммунист, партия* (в знач. «Коммунистическая партия»)*, революция* (3 слова);

2) устаревшие заимствования (архаизмы): *кандидат, комитет, министр, план, финанс* (5 слов).

Рассмотрим особенность единиц каждой группы.

Подгруппа «Наименования устаревших предметов, явлений (историзмы)». Слова данной подгруппы представлены лексическими единицами *коммунист, партия* (в знач. «Коммунистическая партия»)*, революция* (3 слова).

Коммунист – член коммунистической партии. В связи с искоренением идей коммунизма после распада СССР, в узбекоязычной речи ПСП данная единица может быть квалифицирована как историзм. ПСП употребляют слово при описании событий прошлого века, а именно советской действительности: *Бу киши* [Ғ. Саломов] *коммунист эмас эдилар* [Ист. 7].

Партия – организация или движение с политической направленностью, представляющая интересы определенной общественной части (класса) населения. Узбекоязычные ПСП при употреблении данной единицы без названия (либерально-демократическая, социально-демократическая и т.п.) в основном подразумевают Коммунистическую партию, которая в более ранний период их жизни играла решающую роль во всех аспектах жизни советского человека. Если данное понятие употребляется для описания текущих событий, то, по нашему мнению, должно сопутствовать и ее конкретное название, т.к. в настоящее время в нашей стране действуют несколько (пять) политических партий. Примеры употребления данной единицы без «определителя» в значении «Коммунистическая партия» в речи ПСП: *Ўша пайтларда муаммони партия арбоблари ечишарди* [Ист. 8];

Революция – коренной переворот в общественно-политических отношениях в целях

смены действующего общественного строя. ПСП как воспитанники пропитанной коммунистическими ценностями, ленинскими идеалами системы, под *революцией* в основном подразумевают октябрьский переворот 1917 года: *У ерда* [Коммунистик партия биноси] *революция кунидан олдин унвонлар топширилар эди* [Ист. 10].

Таким образом, лишь три единицы среди латинизмов (*коммунист, партия, революция*), охарактеризованных нами как историзм, до настоящего времени сохранились в речи узбекоязычных ПСП. Мы считаем, что это обусловлено активной фазой жизни пожилых людей, которая приходится на советский период.

Подгруппа «Устаревшие заимствования (архаизмы)». Причина сохранения слов данной подгруппы до настоящего времени в речи исследуемой нами возрастной группы заключается в том, что они были в широком употреблении в советский период не только в русском языке, но и во всех языках народов СССР. Значит, узбекоязычные ПСП как люди, часть жизни которых приходится на советский период, прибегали к частому употреблению данных латинизмов в повседневной речи. Важно отметить, что некоторые узбекоязычные ПСП до сих пор употребляют данные латинизмы, несмотря на языковую тенденцию выведения их из обихода путем замены арабско-персидскими эквивалентами: *кандидат – номзод* (перс.), *комитет – қўмита* (фонетически адаптированный вариант), *министр – вазир* (араб.), *план – режа* (перс.), *финанс – маблаг* (араб.). В связи с частотностью данных единиц, в речи узбекоязычных ПСП нам удалось обнаружить и латинские варианты, и замещающие их фонетически адаптированный, арабско-персидские формы.

Кандидат – единица, сохранившаяся в речи узбекоязычных ПСП вследствие частого употребления в советское время. По данным словаря частотности, данная единица имела высокий показатель употребительности в художественном тексте в 1970-1980 годах, а в публицистике – в 1990-х [2], что позволяет судить о высокой частотности данной единицы и в узбекском языке, обусловленной влиянием русского языка. В речи узбекоязычных ПСП мы обнаружили его употребление в двух значениях:

1) в знач. «Лицо, имеющее младшую ученую степень»: *Улар ҳам кандидат наук эдилар* [Ист. 7];

2) в знач. «Спортивное звание в СССР, России и ряде других стран»: *Кейин кандидат мастер спорта бўлдим* [Ист. 2].

Кроме того, в речи ПСП употребляется и персизм, «привлеченный» для замены «чужого» слова: *Ўша пайтга бориб балки, ёшлардан янги номзодлар чиқар* [Ист. 1].

Комитет – коллегиальный орган, руководящий какой-нибудь деятельностью. Отметим, что единица *комитет* специфична для речи ПСП, а фонетически адаптированный вариант *(қўмита)* – имеет общеупотребительный характер. Их употребление в речи людей пожилого возраста: *Уларда ҳам* [ўзга сайёра] *маҳалла комитети бор экан* [Ист. 6]; *... Хотин-қизлар қўмитаси, умуман барча мутасадди ташкилотлар ҳокимият раҳбарлигида 4 нафар уруш қатнашчиларининг уйларини ремонт қилишга ёрдам беришди* [Ист. 9].

Министр – латинизм, сохранившийся в речи узбекоязычных ПСП и употребляющийся в значении «Высшее должностное лицо, возглавляющее министерство». В годы независимости был «реабилитирован» арабизм *вазир*, дающийся с пометой *тар*. (*истор*.) в Толковом словаре узбекского языка за 1981 год [3, с. 170]. В речи ПСП нам удалось обнаружить обе эти единицы: *Пастда ички ишлар министри Зокир Алматов ўтирган эди* [Ист. 5]; *Шу пайтдаги молия вазирига ҳам айтдим* [Ист. 8].

План. Данная единица была выявлена нами в речи узбекоязычных ПСП в значении «Заранее намеченная система каких-н. действий, предусматривающая порядок, последовательность и сроки их выполнения» [1, с. 596]. Слово персидского происхождения *режа*, выполняющая в общеупотребительной речи функцию рассматриваемого латинизма употреблена в идентичном значении: *... пахта, буғдой планларини мунтазам бажариб келяпман* [Ист. 12]; *Яшиллар партияси Президентнинг атом электростанцияси қуриш режасига қарши чиқди-ку* [Ист. 3].

Финанс – свойственный узбекскому языку усеченный вариант русифицированного латинизма *финансовый*, вследствие отсутствия фонемы [ы] или словообразовательного аффикса *-ов- (-ый)* в узбекском языке. В речи узбекоязычных ПСП данная единица употреблена в значении «Совокупность денежных средств государства, предприятия, а также система их формирования, распределения и использования» [1, с. 829], как и заменяющий его в последний период арабизм *маблағ: Мен финанс сиёсатига кўп ҳам тушунмайман* [Ист. 4]; *Бизда энди ҳажга боришга катта маблағ керак, унга бизнинг кучимиз етмайди* [Ист. 11].

Таким образом, речи узбекоязычных ПСП свойственно употребление и латинизмов, причисляемых к единицам-советизмам, и единиц, переживших процесс лексической реактивации (возвращения в обиход). По способу проникновения в узбекский язык они классифицированы нами на прямые и опосредованные заимствования. Рассмотренные устаревшие заимствования выполняют функцию геронтологического маркера речи узбекоязычных ПСП.

Список использованной литературы:

1. Крысин Л. П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: Эксмо, 2006. – С. 596.
2. Ляшевская О. Н., Шаров С. А. Частотный словарь современного русского языка (на материалах Национального корпуса русского языка). – М.: Азбуковник, 2009. – 1087 с. URL: http://dict.ruslang.ru/freq.php?
3. Толковый словарь узбекского языка: в двух томах: 60000 слов и сочетаний / Под редакцией З.М. Магруфова. Том I. – М.: Русский язык, 1981. – С. 170.

ИСТОЧНИКИ АНАЛИЗА:

Источник 1. https://adolat.uz:8443/oav-biz-hakimizda/yosh-kadrlar-kop-narimon-umarov-kejingi-prezidentlik-sajlovida-nom zodini-qojish-masalasida

Источник 2. https://www.youtube.com/watch?v=E6ZloDqlT-0

Источник 3. https://www.youtube.com/watch?v=FXnrL2R3e4c

Источник 4. https://www.youtube.com/watch?v=ikeL96ZT0fk

Источник 5. https://www.youtube.com/watch?v=ImHT1cjfSd8

Источник 6. https://www.youtube.com/watch?v=N7frHq5Qfkg

Источник 7. https://www.youtube.com/watch?v=SP-p6pbhp60

Источник 8. https://www.youtube.com/watch?v=TLTPKYi1qRA

Источник 9. https://www.youtube.com/watch?v=trumhtRHO6U

Источник 10. https://www.youtube.com/watch?v=wbFoomm3vg0

Источник 11. https://www.youtube.com/watch?v=wIvMuY_8hXk

Источник 12. https://www.youtube.com/watch?v=Ye2DXtdXsXs

УДК: 378:001.891(04).

ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ КАДРОВ

Мунаввара КУРБАНБАЕВА,
Ургенчский государственный университет

Аннотация: *В данной статье говорится о роли самостоятельной работы в высшем образовании, в области филологии, в частности, при изучении русского языка, и ее значении в совершенствовании и закреплении знаний студентов.*

Ключевые слова: *самостоятельная деятельность, самостоятельное мышление, творческая идея, вывод, знание, компетенция, изучение языка.*

Аннотация: *Мазкур мақолада олий таълимда, филология йўналишида, хусусан рус тилини ўрганишда мустақил ишнинг роли, талабалар билимини ошириш ва мустаҳкамлашдаги аҳамияти ҳақида гап боради.*

Калит сўзлар: *мустақил фаолият, мустақил фикрлаш, креатив ғоя, хулоса, билим, малака, тил ўрганиш.*

Annotation: *This article talks about the role of independent work in higher education, in the field of philology, in particular, in the study of the Russian language, and its importance in improving and strengthening students' knowledge.*

Key words: *independent work, independent thinking, creative idea, conclusion, knowledge, competence, language learning.*

Истинная цель кардинальных реформ, проводимых во всех сферах в нашей республике, состоит в создании в стране правового демократического общества, во вхождении Узбекистана в число развитых стран, словом, в повышении уровня нашего развития.

Для этого, конечно же, необходимо будет развивать систему образования на основе современных международных стандартов. Развитие страны всегда решали кадры. Мы можем узнать это из мировой истории. Тем более несравнима роль высшего образования, которое готовит кадры и непосредственно вводит их в рабочий процесс.

Для поднятия высшего образования на новый этап развития, 20 апреля 2017 года принято постановление Президента Республики Узбекистан №2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования». Среди прочего в нем определены следующие задачи:

«Считать важнейшими задачами дальнейшего совершенствования и комплексного развития системы высшего образования:

- формирование целевых параметров подготовки кадров с высшим образованием, оптимизацию направлений и специальностей обучения в высших образовательных учреждениях с учетом перспектив комплексного развития регионов и отраслей экономики, потребностей реализуемых территориальных и отраслевых программ;

- усиление духовно-нравственного содержания высшего образования, проведение широкой просветительской и воспитательной работы по глубокому укоренению среди студенческой молодежи преданности идее независимости, верности национальным традициям гуманности и высокой духовности, укреплению критического мышления и иммунитета к чуждым идеям и идеологиям» [1]. Мы считаем, что целесообразно использовать самостоятельную деятельность в высших учебных заведениях для развития вышеперечисленных качеств у студенческой молодежи.

Ближайшим помощником учителя в воспитании молодежи, способной самостоятель-но мыслить, делать научные и практические выводы на основе собственных знаний, становиться авторами современных творческих идей, является форма самостоятельной учебы. Когда студент работает самостоятельно над определенной темой, он проводит собственное небольшое исследование, расширяет свои знания, усваивает несколько разных подходов к одному и тому же вопросу и приходит к собственному выводу. При этом он развивает свои идеи и учится аргументированно выражать их. Исходя из этого можно сказать, что самостоятельная работа также играет большую роль в обеспечении качественного образования учащихся. Положительное мнение о самостоятельной работе высказали многие известные ученые и педагоги. “Самостоятельная работа – плановая деятельность студентов по поручению и под методическим руководством преподавателя. Самостоятельная работа предполагает не только освоение курса дисциплины, но вместе с тем помогает освоению навыков самостоятельной учебной и научной работы и осознанию ответственности процесса познания” [2].

Рассматривая значение самостоятельной работы, учёные-классики обращают внимание на её значимость: «Самостоятельность головы учащегося - единственное прочное основание всякого плодотворного учения», - считал К.Д. Ушинский, указывая, что самостоятельная работа является деятельностью по усвоению знаний и умений, осуществляемой без непосредственного руководства преподавателя, хотя и направляемой им. А. Дистервег обращал внимание, что «развитие и образование ни одному человеку не могут быть даны или сообщены. Всякий, кто желает к ним приобщиться, должен достигнуть этого собственной деятельностью, собственными силами, собственным напряжением. Извне он может получить только возбуждение...»

К рассмотрению вопроса о роли самостоятельной работы студентов обращались многие ученые: Н.А. Введенский, Н.Г. Дайри, Р.Г. Лемберг, Г.М. Муртазин и другие. Однако, единого понимания самостоятельной работы не сложилось. Так, В.И. Загвязинский рассматривает ее как «деятельность студентов по усвоению знаний и умений, которая протекаетбез непосредственного руководства преподавателя, хотя и направляется им».

Самостоятельная работа в вузе – это часть учебного процесса, метод обучения, прием учебно-познавательной деятельности [2].

Основной целью самостоятельной работы является развитие личностных и профессиональных качеств студентов. Задачами самостоятельного образования являются: обновление интеллектуальных возможностей человека, повышение его идейно-теоретического уровня, повышение профессионального мастерства и культуры.

«Самостоятельные работы делятся на следующие виды:

Эвристические самостоятельные работы - лекционные, лабораторные, практические занятия, семинары ориентированы на решение самостоятельно.

Самостоятельная исследовательская работа ориентирована на умение увидеть исследовательскую проблему, самостоятельно ее изложить, сформулировать гипотезу, разработать план решения проблемы, нацелиться на ее решение.

Творческие исследовательские работы – поиск путей решения проблемы, исследования, проектирование и т.п.» [3].

Можно сделать вывод, что самостоятельная работа в высшем образовании – это вид учебной деятельности, применяемый при подготовке современных кадров, самостоятельных, свободомыслящих, и в то же время умеющих из множества идей и мыслей определить правильную, сделать правильные научные и практические выводы. Желательно широко использовать его в области филологии, в частности, при обучении русскому языку.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан №2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования».
2. Э.А. Челнокова, С.Н. КУЗНЕЦОВА. Роль самостоятельной работы студентов в учебном процессе. Нижегородский ГДУ Козьми Минина (Минский университет), Нижний Новгород, Российская Федерация.
3. Д.Қ.Абдиева, Олий таълим муассасалари талабаларини мустақил фикрлашга йўналтириш // Замонавий таълим / Современное образование, 2019, 4 (77).

ERKIN VOHIDOV IJODIDA NAVOIYGA IZDOSHLIK

Annotatsiya: *Maqolada zamonasining zabardast shoiri Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni»dagi g'azallar va ularga Navoiy she'riyatining ta'siri haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ikki ijodkor lirikasidagi mushtarakliklar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *mushtaraklik, bayt, mumtoz adabiyot, ijodiy an'ana, klassika, aruz vazni, g'azaliyot, «ilmlar uchligi», ilmi bade', ilmi qofiya, ilmi aruz, sarv, qahrabo, radif, uslub, talmih.*

Аннотация: *В статье говорится о газалях величайшего поэта своего времени Эркина Вахидова в «Деване юности» и влияние на них поэзии Навои. Также анализируются сходства в лирике двух поэтов.*

Ключевые слова: *аналогия, стих, классическая литература, творческая традиция, классика, «три науки», наука бадэ, наука кафия, наука аруз, сарв, кахраба, радиф, стиль, талмих.*

Annotation: *The article talks about the ghazals of Erkin Vahidov, the greatest poet of his time, in "Devon of Youth" and the influence of Navoi's poetry on them. The commonalities in the lyrics of the two artists are also analyzed.*

Key words: *analogy, verse, classical literature, creative tradition, classics, "three sciences", science bade, science kafiya, science aruz, sarv, kahraba, radif, style, talmikh.*

Komila KOMILJONOVA,
UrDU Filologiya fakulteti talabasi

Har bir iste'dodning yuzaga chiqishida nafaqat u ulg'aygan muhit, balki u o'qigan kitoblar ham katta rol o'ynaydi. Jumladan, asrlar osha boyib, sayqal topib kelayotgan mumtoz adabiyotimiz xazinasi ham ko'pgina ijodkorlarning yetukligida asosiy manba bo'lib kelmoqda. Fuzuliy, Navoiy, Firdavsiy, Farididdin Attor, Hofiz Sheroziylarning nazmisiz keyingi davr klassikasini tasavvur qilish qiyin. Hatto Navoiy hazratlarining o'zi ham o'zidan oldingi va zamondosh shoirlarning ijodidan boxabar bo'lgani, eng nodir she'riyat namunalaridan yuz ming misra yod bilgani uning «Muhokamat ul-lug'atayn» asaridagi quyidagi jumlalaridan ma'lum «…yigitligim zamoni va shabob ayyomi ovonida ko'prak she'rda sihrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash'ori va rangin abyotidin ellik mingdin ortuq yod tutupmen va alar zavq va xushhollig'idin o'zumni ovutupmen…» [8]. Navoiyni Navoiy qilgan nafaqat ilohiy iste'dod, balki tinimsiz izlanish va ilm hamdir. Keyingi davrlarda ul hazratning o'z ijodi ham boshqa shoirlarga ilhom manbayi bo'lib xizmat qildi.

Xususan, XX asrda ko‘plab Adabiyotshunoslar-u shoirlar aruz vaznining eskirganligini ta’kidlayotgan bir paytda Erkin Vohidov o‘zining shu vaznda yozilgan «Yoshlik devoni» bilan ularga qarata: *«Ey munaqqid, sen g‘azalni ko‘hna deb kamsitmagil, Sevgi ham Odam Atodin qolmish inson qonida»* [1;61] deya bong urib chiqdi. Erkin Vohidov o‘z zamonasining yetuk ijodkori sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Uning she’riyatiga nisbatan «ko‘ngillarga ko‘chgan she’riyat» (Umarali Normatov), o‘ziga esa «zamonamiz klassigi» (Hamdam Abdullayev) deya ta’rif berilgani bejiz emas. Shoirni shoir qilgan, mumtoz adabiyot shaydosiga aylantirgan omillardan biri esa Navoiy, Fuzuliy, Boburlar g‘azaliyotidir. Buning dalili o‘laroq, shoirning yuqoridagi ijodkorlarning g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarini ko‘rsatishimiz mumkin. Ayniqsa, Erkin Vohidovning Navoiy hazratlariga mehri va ixlosi yuksak bo‘lgani ularning ijodidagi mushtarakliklarda ham namoyon bo‘ladi. Garchi Erkin Vohidovning lirikasi ham «ilmlar uchligi», ya’ni ham ilmi bade’, ham ilmi qofiya, ham ilmi aruz jihatidan mukammal bo‘lsa-da, shoir «Yoshlik devoni» debochasidayoq: *«Istadim sayr aylamoqni men g‘azal bo‘stonida, Kulmangiz ne bor senga deb Mir Alisher yonida»* [1;61] deya kamtarlik qiladi.

«Yoshlik devoni»ga chuqur nazar soladigan bo‘lsak, Erkin Vohidovning Navoiy ijodining kuchli bilimdoni, hazratning ijodiy an’analari davomchisi ekanligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Masalan, shoir «Hijron yuki» g‘azaliga Navoiyning *«Aylagil jondin judo, qilg‘uncha jonondin judo»* misrasini epigraf sifatida olgan. Buning sabablariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Navoiyda ham, Erkin Vohidovda ham ayni bir xil ikki tushuncha «hajr va o‘lim» tushunchalari solishtirilgan va hijronning o‘limdan qattiq ekanligiga urg‘u berilgan. Xususan, Erkin Vohidov g‘azalining birinchi baytiga diqqat qaratsak:

Roziman tushguncha dilga nogahon hijron yuki,
Nogahon mayli tanimdin ayri bo‘lsin jon yuki.[1;79]

Xuddi shu ifodani Navoiy hazratlarida quyidagi tarzda uchratamiz:

Hajr o‘lumdin talx emish, mundin so‘ng, ey gardun, meni
Aylagil jondin judo, qilg‘uncha jonondin judo.[7;21]

Darhaqiqat, hijrondan, ya’ni yordan ayrolikdan, ko‘ra o‘lim afzalroq. Chunki mumtoz adabiyotda aksar hollarda yor deganda Alloh nazarda tutilgan va Allohga oshiq banda uchun Robbisidan ayro bo‘lishdan ortiqroq g‘am yo‘q. «Hijron yuki» g‘azalida ham Navoiy anglatmoqchi bo‘lgan ma’no soddaroq til bilan bayon etilgan va maqta’gacha hijron ta’rifi darajama-daraja ortib borgan. Bunday parallellikni yana ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Xususan, «sarv» daraxti doimo yashilligi va tikligi bilan yor qomatiga o‘xshatilgan. Alisher Navoiy «Muvofiq kiydilar…» deb boshlanuvchi g‘azalida o‘zining yori va chamandagi sarvni o‘zaro taqqoslaydi. Navoiy g‘azali yorining Navro‘zda yashil xil’at (libos) kiyishi va sarvga o‘xshab qolishi bilan boshlansa, Erkin Vohidovda tasvir o‘zgacha tus oladi, ya’ni tunda oyning sarv ustiga kelib turishi - oyruxsor bo‘lishi yoriga o‘xshatilgan, chunki yorning ham yuzi oydan go‘zal, qomati esa sarvdek tik. Parallel olingan ikki ijodkor baytlariga diqqat qaratsak:

Muvofiq kiydilar bo‘lmish magar Navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yashil xil’at, mening sarvi ravonim ham. (Navoiy)

***

Kecha oydin, mavjli dengiz kuy to‘qir, bedor sarv,
Oy kelib sarv uzra qo‘ndi, bo‘ldi oyruxsor sarv.
Ikk sarvning o‘rtasida men turibman lol-u gung,
Bir tomon sarv qadli dildor, bir tomon dildor sarv.(E. Vohidov)

Bunday parallellik ikki g‘azal baytlarida yana ko‘plab davom etgan.

Mumtoz adabiyotda oshiqning holatini izohlash va dalillash uchun go‘zal sabab va bahonalar keltirish, bunda aybni nafaqat ma’shuqaga, balki oshiqqa va hatto tabiatga to‘nkash an’anasi ham mavjud. Navoiy ijodidagi quyidagi bayt esa o‘zining mumtozligi bilan ajralib turadi:

Chiqsa jonim, ayb qilma, jismi bemorimg‘a boq,
Kuysa jonim, hayrat etma, nolayi zorimg‘a boq.[7,60]

Baytga ko‘ra oshiqning joni chiqsa (o‘lsa), buning sababi jismining bemorligidadir, joni kuyishiga

sabab esa uning tinimsiz nola qilishi bo‘lishi mumkin. Demoqchimizki, oshiq holatini aybga yo‘ymaslik iltimosi baytda yetakchilik kasb etadi. Shu o‘rinda Erkin Vohidovning «Ayb» radifli g‘azalini eslashimiz o‘rinlidir. Chunki shoir lirik qahramon holatini quyidagicha tasvirlaydi:

Sevgi dardida mening ham bo‘ldi rangim qahrabo,
Yo‘q iloj, ne naf o‘kunmak bo‘lmasa ko‘zguda ayb. [1,69]

Bizningcha, shoir demoqchiki, ishq tufayli oshiqning yuzi qahrabo (metall turi, sariq rangda bo‘ladi) rangga kirgan, lekin buni aks ettirgan ko‘zguda ayb yo‘q. G‘azal davomida shoir aybni goh kimga yoki nimagadir to‘nkaydi, gohida esa «aybdor»larni aybdan forig‘ qilib, oqlab ham qo‘yadi. Bu uslub esa Navoiyning o‘sha ma’lum va mashhur «Jong‘a chun dermen…» deb boshlanuvchi g‘azalini ham eslatadi. Umuman olganda, Erkin Vohidovda ayni Navoiyga xos ifoda uslublarining o‘zgacha talqinlarini ko‘plab uchratamiz. Misol uchun, Erkin Vohidovning quyidagi baytini keltiramiz:

Gar sog‘inchim sharhin aytsam, yondirar Farhod o‘zin,
Yo ochay Majnung‘a dardim, ul-ku mendan sog‘rog‘.[1;112]

Farhod va Majnun orqali talmih qilish mumtoz adabiyotning asrlik an’analaridan biri, ammo yuqoridagi kabi mubolag‘ali tasvir bizga aynan Navoiyning misralarini eslatadi:

Dasht aro dermenki Majnunni o‘zumga uchratay,
Hush andin o‘rganib, devonalig‘ni o‘rgatay.[7;143]

Qaysga Majnun (jinni) ismi berilganini nazarda tutsak, Erkin Vohidov ham Navoiy yo‘lidan borgan holda o‘z lirik qahramonining holatini telbavor qilib tasvirlaydiki, Majnun uning oldida «sog‘rog‘». Navoiy ham xuddi shunday tasvirni, ya’ni oshiqning ishqda telba bo‘lganini tasvirlar ekan, aqldan ozib, dashtda yurgan Majnundan hush o‘rganib, unga devonalig‘ni o‘rgatar holga kelganini aytadi. Bunga o‘xshash tasvirni quyidagi misralarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Ey Navoiy, so‘zla voqi’ dostonim ishq aro,
Kim bu dam Farhod-u Majnun qissayi afsonadur. (Navoiy)

Sevgi vodiysida menga teng bo‘lolgay qaysi Qays,
Ko‘nglim ochsam, ikki dunyo bu kabi afsona yo‘q. (E. Vohidov)

Navoiy o‘zining ishqini voqeiy doston deya ta’riflab, Farhod va Majnunning sevgi qissasini bir afsonadir, desa, Erkin Vohidov o‘zining sevgisini Qays (Majnun)nikidan ham ustun qo‘yadi, ikki dunyoda meniki kabi bir afsona yo‘q, deydi. Darhaqiqat, ikki buyuk — XV asr dahosi Alisher Navoiy va XX asr klassigi Erkin Vohidov ijodida mushtarakliklar, ustoz an’analarining shogird ijodida davom etishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Erkin Vohidov Navoiyning «Aylagach» radifli g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Ma’lumki, taxmis bog‘lash oson ish emas va buning uchun ijodkorda kuchli iste’doddan tashqari g‘azal muallifiga va merosiga nisbatan ixlos bo‘lishi lozim. Erkin Vohidov ana shu ikki xususiyatni ham o‘zida mujassam etgan va taxmisning nodir namunasini yarata olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tavalludiga 582 yil bo‘lgan buyuk daho, turkiy she’riyat osmonining quyoshi bo‘lgan zot — Navoiy hazratlariga XX asrning eng tahlikali davrida ijod qilishiga qaramay, haq so‘zdan qaytmagan, mumtoz adabiyotda zamon nafasini aks ettira olgan shoir Erkin Vohidov munosib izdosh bo‘la oldi, deya ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E. Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018.
2. Abdulla A’zam. Abrorlar hayrati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.
3. Nurboy Jabborov. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
4. E.Begmatov, A.Madvaliyev va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
5. Hamdam Abdullayev. Erkin Vohidov - zamonamiz klassigi. –Toshkent: 2006.
6. To‘xta Boboyev. She’r ilmi ta’limi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
7. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy.—Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. — Toshkent: Tafakkur, 2014.

UDK:81'1

LINGVISTIK EKSPERTIZADA HAQORAT ALOMATINI BELGILASH

Shoira TOLIYEVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada maxsus lingvistik ekspertiza tadqiqotlarining mohiyati, huquqiy ahamiyati, amaliy tilshunoslikda lingvistik ekspertizaning tutgan o'rni xususida so'z yuritiladi. Lingvistik ekspertiza bosqichlari va tahlil usullari xususida ma'lumot berilgan. Shuningdek, lingvistik ekspertizaning huquqiy asoslari va huquqiy oqibatlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvistik ekspertiza, haqorat, haqorat qilish, haqorat alomati, shaxsni kamsitish, tahqirlash, qasddan haqorat qilish, haqorat ifodalovchi birliklar, haqorat darajasi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются сущность, юридическое значение и роль лингвистической экспертизы в прикладной лингвистике. Дана информация об этапах лингвистической экспертизы и методах анализа. Также анализируются правовая основа и правовые последствия проведения лингвистической экспертизы.*

Ключевые слова: *лингвистическая экспертиза, оскорбление, оскорбление, признак оскорбления, дискриминация лица, оскорбление, умышленное оскорбление, единицы оскорбления, степень оскорбления.*

Annotation: *The article discusses the nature, legal significance, and role of linguistic expertise in applied linguistics. Information is given on the stages of linguistic expertise and methods of analysis. Also, the legal basis and legal consequences of linguistic expertise are analyzed.*

Key words: *linguistic examination, insult, insult, symptom of insult, discrimination of a person, insult, intentional insult, units of insult, degree of insult.*

Muayyan nutq faoliyati mahsuli bo'lgan og'zaki yoki yozma matnlarda shaxsga nisbatan haqorat, tahqirlash alomatlarini aniqlash maxsus lingvistik ekspertizaning predmeti hisoblanadi. Haqorat obyektga qaratilganligini aniqlash, matnda yashirilgan tag ma'noni ochib berish, haqorat darajasini belgilash lingvistik ekspertiza faoliyatining asosiy vazifalaridir.

Tilshunos olim A.N.Baranov lingvistik ekspertizani quyidagicha ta'riflaydi: "Lingvistik ekspertiza - muhim faktlarni aniqlashga va mutaxassisga qo'yilgan savollarga javob olishga qaratilgan nutq faoliyati mahsulini o'rganish jarayoni hisoblanadi. Lingvistik ekspertiza obyekt haqida tavsiflovchi bayonotlarning

to‘g‘riligini yoki noto‘g‘riligini, mumkinligini yoki mumkin emasligini aniqlashga imkon beradi. Lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslikda lingvistik obyektlarni o‘rganish uchun ishlab chiqilgan lingvistik nazariyalar va usullarga asoslanadi” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 41-moddasida: “Haqorat qilish, ya’ni shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi” [2], deyiladi.

Demak, keyingi yillarda qonunchilikka kiritilgan o‘zgarishlarga muvofiq haqorat qilganlik uchun jazo choralari juda kuchaytirilgan. Shaxslarning o‘zaro muloqotida bir-birini haqorat qilganligi to‘g‘risidagi shikoyat arizalari ham ko‘payib bormoqda. Shu bois, shaxslararo muloqotda qo‘llaniladigan birliklarda haqorat alomati mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash amaliy tilshunoslikda muhim va dolzarb masalaga aylanmoqda.

Avvalo, “haqorat” so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak. O‘zbek tilining izohli lug‘atida mazkur so‘z quyidagicha izohlanadi: [a. ... – pastlik, razillik, tubanlik; pastkashlik; tahqirlash] 1. Kishining or-nomusi, shaxsiyatini pastga uradigan tahqirlovchi ma’no-mazmunli so‘z, gap. 2. Shunday ma’no mazmunli muomala, xatti-harakat, holat. Aynan shu lug‘atda “haqoratlamoq” so‘ziga esa shunday ta’rif beriladi: Kimsa sha’niga haqoratli gap, so‘z aytmoq, haqorat bo‘ladigan ish, xatti-harakat qilmoq [3].

Shuni ham unutmaslik kerakki, haqorat ma’nosiga ega bo‘lgan so‘z ba’zan ayrim hududlarda iste’molda keng qo‘llanilishi natijasida haqorat ma’nosining pasayishi yoki butunlay yo‘qolishi holatlari ham kuzatiladi. Shuningdek, nutq egasining ehtirosli murojaati yoki erkalashi natijasida haqoratli so‘z teskari ma’noda qo‘llanilishi ham mavjud. Bunday vaziyatda teskari ma’noda qo‘llanilayotgan so‘z erkalash, egalik qo‘shimchalarni olishi yoki alohida urg‘u bilan aytilishi lozim: *ho‘tikcham, qovoqboshim* kabi.

Og‘zaki yoki yozma matnda haqorat aniq (oshkora) ifodalanishi yoki mavhum tarzda muayyan shaxsga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Aniq (oshkora) ifodalangan haqorat til egalari tomonidan bir xilda talqin qilinadi. Biroq, ba’zi hollarda matnda shaxsni haqoratlash alomatlari mavjudligini aniqlash uchun malakali mutaxassis jalb qilinib, maxsus lingvistik ekspertiza tadqiqotlari o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Agar, javobgar (haqorat qilganlikda gumonlanayotgan shaxs) haqorat qilganini tan olmasa, masalaga aniqlik kiritish uchun maxsus lingvistik ekspertiza (MLE) tadqiqotlari belgilanadi. MLE quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

1) MLE uchun taqdim etilgan matnda haqorat ifodalovchi birliklarning mavjud ekanligini aniqlash;
2) haqorat ifodalovchi birlikning aniq da’vogar shaxsga qaratilganligini isbotlash;
3) ohang yoki urg‘u yordamida haqorat ifodalovchi birlikka qanday ma’no yuklanayotganligini belgilash;
4) haqorat ifodalovchi birlik qo‘llanilgan hududda mazkur so‘zning haqorat ma’nosida bo‘lgan siljishlarga aniqlik kiritish;
5) haqorat ifodalovchi birlikning haqorat ifodalash darajasini belgilash;
6) haqoratlovchining psixologik holatini baholash.

MLE uchun taqdim etilgan matnda haqorat ifodalovchi birliklarning mavjud ekanligini aniqlash uchun mutaxassis-ekspert o‘zbek tilining izohli lug‘atiga, tarjima lug‘atlarga, shevalar lug‘atiga tayanib ish ko‘rishi lozim. Lug‘atlarda izohlanmagan, ma’nosi bo‘yicha jiddiy tortishuvga sabab bo‘ladigan birliklarning ma’nosiga aniqlik kiritish uchun anketa so‘rovnomasi o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Haqorat ma’nosidagi so‘zlarni professor B.O‘rinboyev ma’no ottenkasi va qo‘llanish doirasiga ko‘ra 3 guruhga bo‘ladi:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: *ezma, juvonboz, xumpar, buzuq, mug‘ombir, latta* kabi;

b) kishining tashqi kamchiligini ko‘rsatuvchi vulgarizmlar: *mechkay, ko‘ppak, maymoq, ilonbosh, simyog‘och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, bordonday, qo‘ng‘iz, mo‘ylov, kal, do‘rdoq, qiyshiq, qo‘tir* kabi;

v) so‘kish, koyish ma’nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *bachchag‘ar, yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko‘r, gumroh, qistaloq, ahmoq, sintaloq, xotin-taloq, galvars, kasofat, naxs, ko‘ppak, og‘moq (telbalanmoq), og‘zi katta (kibr-havoli), nazarga ilmaydi (mensimaslik)* kabilar [4].

Haqorat ma’nosidagi leksemalarni J.O‘rozov quyidagicha tasnif qilgan:

• So‘kinish – *iflos, qo‘tir, ahmoq, bezbet*;

• Ijtimoiy qoralanuvchi terminlar – *o‘g‘ri, fohisha, tovlamachi, firibgar, poraxo‘r, kolxoz, haromi, lo‘li*;

• Salbiy tarixga ega terminlar – *millatchi, qonxo‘r*;

• Biror kasb nomi bilan boshqa kasbni atash – *shifokorni jallod, qassob deyish*;

• Zoosemantik metaforalar – *mol, eshak, it, hayvon, cho‘chqa*;

• Salbiy ma’noli fe’llar – *uxlatish, kiydirish, yedirish;*

• Odam fe’l-atvorini salbiy baholovchi terminlar – *ablah, yaramas, maraz, latta, lapashang, dovdir, itfe’l, jinni.*

Haqorat ifodalovchi birlikning aniq da’vogar shaxsga qaratilganligini aniqlash ham ekspertiza jarayonida muhim ahamiyatga ega. I.Azimov, Z.Ro‘ziyev, F.Bobojonovlar muallifligidagi “O‘zbek tilida lingvistik ekspertiza” uslubiy qo‘llanmasida haqorat yo‘naltirilgan shaxsni aniqlashga doir quyidagicha fikrlar bildiriladi: “So‘kish yoki haqorat aynan tinglovchiga qaratilgan bo‘lsa, jumla sintaktik jihatdan quyidagicha shakllanadi: *Haqoratli so‘z ikkinchi shaxsdagi ot-kesim bilan shakllanadi:* (*ahmoq**san**, to‘ng‘iz**san**, it**san***); *Haqoratli so‘z bilan boshqaruv usulida birikma hosil qilgan birlik ikkinchi shaxs egalik qo‘shimchasini oladi:* (*ota**nq**ga la’nat, ona**nq**ni ….*); *Haqoratli so‘z undalma vazifasida keladi:* shaxsga murojaat qilganda uning ismi sharifi o‘rniga *hayvon, ahmoq, it, to‘ng‘iz* kabi haqoratomuz so‘zlarni undalma vazifasida qo‘llash orqali ham haqoratning bevosita tinglovchiga (ikkinchi shaxsga) yo‘naltirilganligi ifodalanadi; *Haqorat yoki kamsitish jumlaning umumiy mazmunidan anglashiladi:* nutqiy faoliyatda haqorat yoki kamsitish qaratilgan shaxs jumlaning umumiy mazmuni orqali ko‘rsatiladi” [5].

Lingvistik ekspertizada ohang yoki urg‘u yordamida haqorat ifodalovchi birlikka qanday ma’no yuklanayotganligini belgilash bir tomondan mas’uliyatli, ikkinchi tomondan mushkul muammodir. Bu xususda tilshunos olim V.I.Jelvis shunday yozadi: “Huquqiy amaliyotda, ba’zi haqoratlar vaqti-vaqti bilan qarama-qarshi ma’noda, hayrat yoki do‘stona munosabat ifodasi sifatida ishlatilishi mumkinligini hisobga olish zarur” [6].

Haqorat ifodalovchi birlik qo‘llanilgan hududda mazkur so‘zning haqorat ma’nosida bo‘lgan siljishlarga aniqlik kiritish uchun ekspert mahalliy shevaga xos xususiyatlarni yaxshi bilishi lozim. Masalan, o‘zbek tilining Andijon shevasida sensirashning o‘zi qo‘pol muomala hisoblanadi. Masalan, Xorazm o‘g‘uz shevalarida *mongloyi qoro (manglayi qora – diniy tushuncha sifatida peshonasi sajdaga bormagan, umuman namoz o‘qimagan degan ma’noda)* birikmasida haqoratomuz salbiy ma’no ottenkasi yo‘qolgan. Adabiy tilda esa mazkur birikma haqorat ifodalovchi birlik sifatida baholanishi mumkin.

Haqorat ifodalovchi birlikning haqorat ifodalash darajasini belgilash juda muhim ish hisoblanadi. Nazarimizda, haqoratli so‘zlarni mavzu guruhlariga ajratishdan ko‘ra ulardagi haqorat alomatining kuchliligiga ko‘ra tasniflash muhimroq. Chunki, *iflos* bilan *qo‘tir*; *millatchi* bilan *qonxo‘r*; *jallod* bilan *qassob*; *hayvon* bilan *cho‘chqa* kabi birliklar solishtirilganda ularda ifodalanayotgan haqorat darajasi bir-biridan farqlanishini kuzatamiz. Shu bois, haqoratli birliklar haqorat ifodalash darajasiga ko‘ra uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Haqorat darajasi *yuqori* bo‘lgan birliklar:

- shaxsning o‘zini, onasini, yaqin qaridoshlarini jinsiy zo‘rlashga yo‘naltirilgan, tabu so‘zlar ishtirokidagi so‘kishlar: *(onagni ...)*;
- shaxsni jinsiy organlarga tenglashtiradigan yoki jinsiy organlar bilan bog‘liq so‘zlar birikmasidan shakllangan haqorat so‘zlar;
- shaxsni qo‘pol salbiy sifatlovchi so‘zlar: *haromi, bachchag‘ar, valadizino;*
- zoonimlar va ular bilan bog‘liq ayrim so‘z va birikmalar: *it, ko‘ppak, eshshak,*

xo'tik, mol, hayvon, cho'chqa, to'ng'iz, itemgan, itvachcha, itfe'l, ityaloq, itdan tarqagan kabi*;*

2. Haqorat darajasi *o'rtacha* bo'lgan birliklar:

- qarg'ishlar: *otangga la'nat, xarom o'lgur, og'zingdan qoning kelgur, juvonmarg bo'lgur, baloga yo'liqqur, sochi uzun aqli kalta* kabi;
- shaxs sifatini salbiy baholaydigan so'kishlar: *ahmoq, ablah, xumpar, yaramas, iflos, maraz, latta, bezbet, befarosat (farosatsiz).*
- shaxsni ijtimoiy qoralovchi atamalar – *o'g'ri, firibgar, poraxo'r;*
- kasallik nomlarini yoki tug'ma nuqsonni ifodalovchi so'zlar: *jinni, maxov, qiltamoq, saraton, kal, ko'r, kar, soqov, bukri, cho'loq, qiltiriq;*
- zoonimlar va ular bilan bog'liq ayrim so'z va birikmalar: *ilon (suvilon), ho'kiz, chivin, pashsha (xirapashsha).* Mazkur toifa so'zlar ko'pincha *-day* qo'shimchasi bilan birga qo'llaniladi: *ho'kizday, xirapashshaday* kabi;
- iboraga aylangan so'kishlar: *onagni uchqo'rgondan ko'rsataman.*

3. Haqorat darajasi *quyi* bo'lgan birliklar:

- shaxsni sifatlovchi so'zlar: *millatchi, egoist, xudbin, oqpadar, dovdir*;
- zoonimlar va ular bilan bog'liq ayrim so'z va birikmalar: *tulki (mug'ombir), bo'ri (ochko'z), quyon (qo'rqoq), toshbaqa (sekin harakatlanuvchi).* Mazkur toifa so'zlar ko'pincha ma'joziy ma'noga (qavs ichidagi) ishora qiladi.
- shaxsni tashqi ko'rinishini salbiy baholovchi so'zlar: *semiz, oriq, pakana, kalta, uzun, shalpangquloq, qoravoy, sariq (malla);*
- shaxsni ijtimiy holatini kamsituvchi so'zlar: *anqov, lapashang, kolxoz, lo'li.*
- iboraga aylangan kamsitishlar: *ko'rmaganni ko'rgani qursin, yeb to'ymas*.

Lingivistik ekspertza jarayonida haqoratlovchining psixologik holatini baholash ham ekspert e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Chunki, shaxsga psixologik bosim o'tkazilganda ko'pchilik beixtiyor ravishda va bexosdan haqorat so'zlarni qo'llashga moyil bo'ladi.

Demak, maxsus lingvistik ekspertizaning har bir bosqichiga mas'uliyat bilan yondashish, har qanday xulosani manbalarga va chuqur bilim va malakaga asoslangan holda ifodalash lozim. Chunki, lingvistik ekspertiza xulosalari huquqiy oqibatlarga olib keladi va inson taqdiri masalasiga daxldor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: Учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2007. Стр. 5.
2. https://lex.uz/acts/-97664. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. -Toshkent: O'zbekiston nashriyoti - 2020. 5-жилд, 521-bet.
4. O'rozov, J.N. 2022. Haqorat mazmunidagi leksemalarning lingvokriminalistik tahlili. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya 1(5): 32-43.
5. Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. O'zbek tilida lingvistik ekspertiza. Uslubiy qo'llanma: - T.:Bookmani print, 2023.
6. Жельвис, В.И. 2004. Слово и дело: юридический аспект сквернословия. Понятия чести, достоинства и деловой репутации: Спорные тексты СМИ и проблемы их анализа и оценки юристами и лингвистами. — Изд. 2-е, перераб. и доп. Москва: Медея.

RESUME

In the "Philosophy" column of our magazine, you will find articles on interesting topics by Abdurahim Boltaev, Yoldosh Isomiddinov, Khurshid Danabayev, Eldor Alkarov, Khuriyat Khudayberdiyeva, Abrorkhan Oshilov, Shoirakhan Ishanchaeva, Irodakhon Badalbayeva.

In the "History" column, Kozimbek Tukhtabekov, Sherali Allaberganov, Zafar Karimov, Sherzod Torayev present the known and unknown information of history with their interesting articles.

In the “Philology” column Surojbek Ruzmetov, Munavvara Kurbanbaeva, Khafiza Abdurashidova, Navbahor Bazarbayeva, Boburjon Abdurazoqov, Maya Babayeva, Mahliyo Norboyeva, Oysuluv Uralova, Shoira Toliyeva, Charjaubay Elmuratov, Nilufar Juraeva, Alijon Allaberdiyev, Guzal Abdumalikova, Komila Komiljonova make journalists happy with interesting articles .

An article by Bakvargan Allabergenov on an interesting topic is covered under the "Pedagogy" column.

"Nazm" column by Anvarmirzo Kudratov, a member of the Writers' Union of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Political Sciences, you will enjoy his work.